

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



# **TARIX O'QITISH METODIKASI**

**O'zbek davlatchiligi tarixining  
dolzarb muammolari va  
zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotlari**

**MODULI BO'YICHA**

# **O'QUV-USLUBIY MAJMUUA**



**TOSHKENT-2022**



**Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**

- Tuzuvchilar:** **t.f.n., dotsent Z.A.IIhomov** - Nizomiy nomidagi TDPU "O'zbekiston tarixi" kafedrasida.  
**t.f.n., dotsent F.O.Ismatullayev** - Nizomiy nomidagi TDPU "Tarix va uni o'qitish metodikasi" kafedrasida.
- Taqrizchilar:** **Sh.Shoyoqubov** - Toshkent davlat Moliya instituti "O'zbekiston tarixi" kafedrasida mudiri, t.f.n.  
**X.Matyaqubov** - Nizomiy nomidagi TDPU "O'zbekiston tarixi" kafedrasida, t.f.n.
- Xorijiy ekspert: t.f.n., dotsenti R.A.Xamidov** – akademik Bobojon Gafurov nomidagi Xo'jand davlat universiteti.

**O'quv-uslubiy majmua TDPU Kengashining 2020 yil 27 avgustda 1/3.6- sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.**



## MUNDARIJA

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>	<b>4</b>
<b>II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....</b>	<b>11</b>
<b>III. NAZARIY MATERIALLAR.....</b>	<b>29</b>
<b>VI. AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI.....</b>	<b>90</b>
<b>V. KEYSLAR BANKI .....</b>	<b>107</b>
<b>VI. GLOSSARIY.....</b>	<b>114</b>
<b>VII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>	<b>123</b>



## I. ISHCHI DASTUR

### KIRISH

Dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-4732-son Farmonidagi ustuvor yo'nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy va pedagogik kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi. Dastur mazmuni oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslari vaqonunchilik normalari, ilg'or ta'lim texnologiyalari va pedagogik mahorat, ta'lim jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari, maxsus fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot va o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativligi, global Internet tarmog'i, multimedia tizimlari va masofadan o'qitish usullarini o'zlashtirish bo'yicha yangi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

### Modulning maqsadi va vazifalari

Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarning o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada ta'minlashlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam yangilash, malaka talablari, o'quv reja va dasturlari asosida ularning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratini doimiy rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Modulning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

"Tarix o'qitish metodikasi" yo'nalishlari bo'yicha oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasi oshirish kursi tinglovchilarida tarix faning zamonaviy dolzarb muammolari haqidagi tasavvurlarni hosil qilish;

pedagog kadrlarning tarix fani bo'yicha kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish;

zamonaviy talablarga mos holda oliy ta'limning sifatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pedagoglarning sohaga oid kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;

pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali o'zlashtirilishini ta'minlash;

maxsus fanlar sohasidagi o'qitishning innovasion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish;

"Tarix o'qitish metodikasi" yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini ta'minlash.

### Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar



- Davlatchilikning nazariy masalalari: tushunchalar, davrlashtirish, shakllanish va taraqqiyot nazariyalari;
- O'zbek davlatchiligining taraqqiyot bosqichlari va tadqiqotlarning zamonaviy konsepsiyalari;
- Tarix fanining zamonaviy nazariy qarashlari va yetakchi konsepsiyalarini;
- Jahon iqtisodiy va siyosiy globallashuv jarayonlarida o'zbek davlatchiligining tashqi iqtisodiy va siyosiy aloqalari masalalarining zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotlari;
- Tarix fanning yordamchi fan sohalari;
- Fanning moddiy va yozma manbalari;
- fanning ta'limiy va tarbiyaviy maqsad-vazifalari;
- fanning rivojlanish tarixi va taraqqiyot bosqichlari;
- oliy ta'lim tizimida tarix ta'limi sohasidagi kadrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni;
- ta'lim mazmunini modernizatsiyalashni;
- ta'limning normativ-huquqiy hujjatlarini;
- ta'limdagi innovatsiyalarni bilishi kerak.
- fanlardagi innovatsiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish;
- darslarda tinglovchilarning faolligini oshirishga xizmat qiladigan interfaol ta'lim shakllari, metodlari va vositalaridan samarali foydalanish;
- fanni o'qitishda rivojlangan mamlakatlardagi ilg'or tajribalardan foydalanish;
- ta'lim jarayonida tinglovchilarning bilimlarini ob'ektiv baholash mexanizmlari, reyting nazoratda qo'llashga qaratilgan didaktik vositalar: standart va nostandart o'quv va test topshiriqlari majmuasini ishlab chiqish;
- ta'lim jarayonida tinglovchilarda mustaqil ravishda bilimlarni yanada orttirib borishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish, mustaqil ish vazifalarini tabaqalashtirish, mustaqil ish va ijodiy izlanishlarini tashkil etish, ularga rahbarlik qilish **ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.**
- o'qituvchining pedagogik faoliyatini loyihalashtirish;
- moderator o'qituvchilarning ilg'or ish tajribalarini o'rganish asosida o'zining pedagogik faoliyatini takomillashtirish;
- fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarning bilimlarini xolisona baholash mexanizmlarini, reyting nazoratda qo'llashga qaratilgan didaktik vositalar: standart va nostandart testlar hamda o'quv topshiriqlari majmuasini ishlab chiqish;
- o'quv axborotni qayta ishlash, muammoli vaziyat, Keys-stadi topshiriqlarini tuzish;
- ta'lim jarayonida tinglovchilarda mustaqil ravishda bilimlarni yanada orttirib borishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish, mustaqil ish vazifalarini tabaqalashtirish, mustaqil ish va ijodiy izlanishlarini tashkil etish;
- didaktik ta'minotni takomillashtirish kabi **malakalariga ega bo'lishi lozim.**
- Tarix fanining zamonaviy yo'nalishlariga oid nazariy qarashlar, yetakchi konsepsiyalarini pedagogik faoliyatda qo'llay olish;



- mashg'ulotlarda innovasion va axborot texnologiyalar, tinglovchilar o'quv faoliyatini faollashtiruvchi metodlarni qo'llash;
- ta'lim jarayonida tinglovchilarning faolligini oshirishga xizmat qiladigan interfaol ta'lim shakllari, metodlari va vositalaridan pedagogik amaliyotda samarali foydalanish;
- rivojlangan mamlakatlarda tarix fanini o'qitish metodikasidagi ilg'or tajribalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga modernizatsiya qilgan holda qo'llash **kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim.**

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

“Tarix o'qitish metodikasi” yo'nalishi bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

“O'zbek davlatchiligi tarixining dolzarb muammolari va zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotlari” moduli mazmuni o'quv rejadagi “Tarix fanining nazariy masalalari va zamonaviy konsepsiyalari”, “Oliy ta'limda tarix fanlarini o'qitish metodikasi va metodologik masalalari” hamda “Globallashuv sharoitida O'zbekistonning Yevropa va Osiyo davlatlarining bilan hamkorligi” o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

### **Modulning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

Asosiy qismda (ma'ruza) modulning mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha tinglovchilarga yetkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo'yiladigan talab mavzularning dolzarbligini, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligini, mamlakatimizda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o'zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy-huquqiy va boshqa sohalaridagi islohotlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so'ngi yutuqlari e'tiborga olinishi tavsiya etiladi.

### **Modulning oliy ta'limdagi o'rni**



Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar O'zbek davlatchiligi tarixining dolzarb muammolari va zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotlari haqida ma'lumotga ega bo'lib, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

### Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Jami	Jumladan	
			nazariy	amaliy
1.	Davlatchilikning nazariy masalalari: tushunchalar, davrlashtirish, shakllanish va taraqqiyot nazariyalari.	2	2	-
2.	O'zbek davlatchiligining taraqqiyot bosqichlari va tadqiqotlarning zamonaviy konsepsiyalari	2	2	-
3.	O'zbek davlatchiligi tarixi tarixshunoslik tadqiqotlarining dolzarb masalalari (mustamlaka davri tarixi tadqiqotlari misolida).	2	2	-
4.	Mustaqillik davri tadqiqotlarida o'rta asrlar davlatchilik jarayonlari tadqiqotlari tarixshunosligi.	2	-	2
5.	Amir Temur va temuriylar davlati tarixiga oid tarixshunoslik va manbashunoslik tadqiqotlari	2	-	2
6.	Zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotlarida XVI-XX asr boshlari davlatchilik jarayonlarining tahlili.	2	-	2
7.	O'zbek xonliklari davri davlatchilik jarayonlari tarixining manbashunoslik masalalari.	2	-	2
8.	XX asr tadqiqotlarida davlatchilik tarixining o'rganish prinsiplarining zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotlari.	2	-	2
9.	Jahon iqtisodiy va siyosiy globallasuv jarayonlarida o'zbek davlatchiligining tashqi iqtisodiy va siyosiy aloqalari masalalarining zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotlari	2	2	-
10.	Zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotlarida O'zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiy va siyosiy aloqalari jarayonlarining globallasuv vaziyatidagi tashqi siyosati prinsiplari masalalarining o'rganilish	2	2	-
11.	O'zbekistonning AQSh va Yevropa davlatlari, Osiyo va Tinch Okeani havzasi mamlakatlari bilan siyosiy-diplomatik aloqalari va iqtisodiy hamkorliklari	2	-	2
12.	O'zbekiston Respublikasining Yevropa Ittifoqi bilan ko'p tomonlama xamkorligi va Shanxay hamkorligi tashkilotidagi ishtiroki.	2	-	2



13.	Globallashuv sharoitida Markaziy Osiyo davlatlari xamkorligining yangi bosqichi	2	-	2
<b>Jami</b>		<b>26</b>	<b>10</b>	<b>16</b>

## NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

### **1-Mavzu: Davlatchilikning nazariy masalalari: tushunchalar, davrlashtirish, shakllanish va taraqqiyot nazariyalari.**

Davlatchilik tushunchasi va belgilari. Davlatchilikning shakllanishi: sivilizatsion yondashuv. O‘zbekiston hududlaridagi qadimgi davlatlar taraqqiyotining davrlashtirish masalalari. O‘zbekiston hududlaridagi qadimgi davlatlarning tipologiyasi.

### **2-mavzu. O‘zbek davlatchiligining taraqqiyot bosqichlari va tadqiqotlarning zamonaviy konsepsiyalari**

O‘zbek davlatchiligi tarixi fanining nazariy-metodologik asoslari. O‘zbek davlatchiligi taraqqiyoti bosqichlari.

### **3 - mavzu: O‘zbek davlatchiligi tarixi tarixshunoslik tadqiqotlarining dolzarb masalalari (mustamlaka davri tarixi tadqiqotlari misolida).**

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasi ijtimoiy-siyosiy hayotining o‘ziga xos xususiyatlari, imperiyaning mustamlakachilik siyosati va uning zamonaviy talqini. Turkiston xalqlari milliy-ozodlik harakatlari tarixshunosligi. Rossiya imperiyasining Turkistonda yuritgan ta’lim siyosati va uning mustamlakachilik mazmuni. Jadidchilik harakatining o‘lka xalqlari milliy uyg‘onishida tutgan o‘rni. Jadidchilik, o‘lka jadid namoyondalarining madaniy-oqartuvchilik faoliyati. Qadimchilar va milliy taraqqiyparvar-islohotchilik oqimi.

### **4-mavzu. Jahon iqtisodiy va siyosiy globallashuv jarayonlarida o‘zbek davlatchiligining tashqi iqtisodiy va siyosiy aloqalari masalalarining zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotlari**

XX asr oxiri - XXI asr dastlabki choragida globallashuv jarayonlari. XX asrda paydo bo‘lgan xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning jahon siyosiy sahnasidagi o‘rni. Iqtisodiy inqirozlar va ularning jahon tartibotiga ta’siri. Xalqaro aloqalarning rivojlanish ko‘lami, geostrategik va geosiyosiy jarayonlarning kuchayishi, ko‘p tomonlama aloqalarning rivojlanish holatlari va ularning amaliy jihatlari.

### **5-mavzu. Zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotlarida O‘zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiy va siyosiy aloqalari jarayonlarining globallashuv vaziyatidagi tashqi siyosati prinsiplari masalalarining o‘rganilish**

O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy prinsiplari va yo‘nalishlari. O‘zbekiston tashqi siyosatida Osiyo vektori. O‘zaro manfaatli, amaliy tashqi siyosat-Xarakterlar strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida. Bir kamar-bir yo‘l loyihasi va unda





O'zbekiston ishtiroki. O'zbekiston-Xitoy hamkorligi. O'zbekiston-Yaponiya hamkorligi. O'zbekiston-Koreya Respublikasi aloqalarining rivojlanishi. XXI asrda Osiyo davlatlarining jahon miqyosidagi o'rni. O'zbekiston Respublikasining Yevropa Ittifoqi bilan ko'p tomonlama xamkorligi. O'zbekistonning ta'lim, madaniyat va turizm sohasidagi xalqaro aloqalari.

## **AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI**

### **1-amaliy mashg'ulot: Mustaqillik davri tadqiqotlarida o'rta asrlar davlatchilik jarayonlari tadqiqotlari tarixshunosligi.**

O'rta asr o'zbek davlatchiligi tarixining davrlashtirish masalalari. O'rta asr davlatlari davlatchilik jarayonlarining eng asosiy jihatlari. O'rta asr davlatchiligi tarixi jarayonlarining zamonaviy ilmiy tadqiqot muammolari va tarixshunoslik masalalari.

### **2-amaliy mashg'ulot: Amir Temur va temuriylar davlati tarixiga oid tarixshunoslik va manbashunoslik tadqiqotlari**

Amir Temur va temuriylar davlati davlatchilik jarayonlarining eng asosiy jihatlari. Amir Temur va temuriylar davlati tarixi jarayonlarining zamonaviy ilmiy tadqiqot muammolari va tarixshunoslik masalalari. Amir Temur va temuriylar davlati tarixiga oid manbashunoslik tadqiqotlari

### **3-amaliy mashg'ulot: Zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotlarida XVI-XX asr boshlari davlatchilik jarayonlarining tahlili.**

XVI-XX asr boshlari o'zbek davlatchiligi tarixining davrlashtirish masalalari. XVI-XX asr boshlari davlatlari davlatchilik jarayonlarining eng asosiy jihatlari. XVI-XX asr boshlari davlatchiligi tarixi jarayonlarining zamonaviy ilmiy tadqiqot muammolari va tarixshunoslik masalalari.

### **4-amaliy mashg'ulot: O'zbek xonliklari davri davlatchilik jarayonlari tarixining manbashunoslik masalalari.**

O'zbek xonliklari tarixi va davlatchilik jarayonlarining XVI-XX asr boshlarida yaratilgan manbalarda aks etishi. Qo'qon tarixnavislik maktabi va Toshkent tarixnavislik maktabi, Xorazm tarixnavislik maktabi hamda Buxoro tarixnavislik maktabi manbalarining zamonaviy manbashunoslik tadqiqotlari.

### **5-amaliy mashg'ulot: XX asr tadqiqotlarida davlatchilik tarixining o'rganish prinsiplarining zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotlari.**

Sovet davlatchiligini o'rganish prinsiplari va ularning O'zbekiston tarixshunosligida aks etishi. Sovet davlati mafkurasining O'zbekiston tarixini o'rganishga ta'siri.



**6-amaliy mashg'ulot: O'zbekistonning AQSH va Yevropa davlatlari, Osiyo va Tinch Okeani havzasi mamlakatlari bilan siyosiy-diplomatik aloqalari va iqtisodiy hamkorliklari**

XX asr oxiri - XXI asr dastlabki choragida globallashuv jarayonlarining jahon iqtisodiy va siyosiy aloqalarining faollashuviga ta'siri. O'zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiy va siyosiy aloqalari jarayonlarining globallashuv vaziyatidagi tashqi siyosati prinsiplari.

**7-amaliy mashg'ulot: O'zbekiston Respublikasining Yevropa Ittifoqi bilan ko'p tomonlama xamkorligi va Shanxay hamkorligi tashkilotidagi ishtiroki.**

Yevropa Ittifoqi va unga a'zo davlatlar bilan hamkorlik – O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri. O'zbekiston-Buyuk Britaniya: fan, ta'lim va madaniy aloqalarni rivojlanishi. Shanxay hamkorligi tashkiloti – mintaqadagi eng yirik iqtisodiy tashkilot sifatida. ShHTning xalqaro o'rni ortib borishi. O'zbekiston - ShHT hamkorligi: shakllanishi, rivojlanishi va istiqbollari.

**8-amaliy mashg'ulot: Globallashuv sharoitida Markaziy Osiyo davlatlari xamkorligining yangi bosqichi**

O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri – Markaziy Osiyo. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligi: kecha va bugun.

**O'QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).



## II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

Bugangi kunda o'qitishning zamonaviy metodlari ta'lim jarayonida keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlar interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham ataladi. **Interfaol metodlar** deganda ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.




### “Kichik guruhlarda ishlash” metodi

**“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH” METODI** - ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo'llanilganda ta'lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo'llanilganda ta'lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.



**“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlariga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

**«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:**

- o‘qitish mazmunining yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi;
- o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

**«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:**

- ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;



- barcha ta'lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo'ladi;
- guruhlararo o'zaro salbiy raqobatlar paydo bo'lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o'zaro nizo paydo bo'lishi mumkin.

**“DAVRA SUHBATI” METODI** – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'lim oluvchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir.


“Davra suhbat” metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta'lim oluvchining bir-biri bilan “ko'z aloqasi”ni o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og'zaki davra suhbatida ta'lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta'lim oluvchilardan ushbu savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir ta'lim oluvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan ta'lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. Quyida “Davra suhbat” metodining tuzilmasi keltirilgan.

#### **Davra stoli tuzilmasi**

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta'lim oluvchiga konvert qog'ozi beriladi. Har bir ta'lim oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi.

#### **“Davra suhbat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Mashg'ulot mavzusi e'lon qilinadi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta'lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta'lim oluvchi bo'lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo'yiladi. Ta'lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o'z ismi-sharifini yozadi.
4. Ta'lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo'yicha o'z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi.
5. Konvertga savol yozgan ta'lim oluvchi konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.
6. Konvertni olgan ta'lim oluvchi konvert ustidagi savolga “Javoblar varaqalari”dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo'yadi hamda yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.
7. Konvert davra stoli bo'ylab aylanib, yana savol yozgan ta'lim oluvchining o'ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta'lim oluvchi konvertdagi “Javoblar varaqalari”ni baholaydi.
8. Barcha konvertlar yig'ib olinadi va tahlil qilinadi.



Ushbu metod orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta'lim beruvchi ham ta'lim oluvchilarni ob'ektiv baholashi mumkin.

**“BAHS-MUNOZARA” METODI** - biror mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo'llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta'lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta'lim beruvchining o'zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta'lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta'lim oluvchilar orasida paydo bo'ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o'tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:


- ✓ barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- ✓ “o'ng qo'l” qoidasi (qo'lini ko'tarib, ruhsat olgandan so'ng so'zlash)ga rioya qilish;
- ✓ fikr-g'oyalarni tinglash madaniyati;
- ✓ bildirilgan fikr-g'oyalarning takrorlanmasligi;
- ✓ bir-birlariga o'zaro hurmat.

Quyida “Bahs-munozara” metodini o'tkazish tuzilmasi berilgan.



**Metodning bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta'lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammo bo'yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
3. Ta'lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya'ni turli g'oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta'lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga o'z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.
4. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g'oyalarni guruhlarga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.
5. Tahlil natijasida qo'yilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi.



**“FSMU” metodi**

“FSMU”–(fikr, sabab, misol, umumlashtirish) metodi munozarali masalalarni hal etish hamda o'quv jarayonining bahs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu metod tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash, o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatiga o'rgatadi. Bu metod yangi mavzuni chuqur o'rganishdan avval tinglovchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, o'zlashtirish, umumlashtirish, tinglovchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini yozma shaklda, dalil va isbotlar bilan ifodalashga undaydi.

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini



shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

**Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi:
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

F	. fikringizni bayon eting
S	. fikringizni bayoniga sabab ko'rsating
M	. ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring
U	. fikringizni umumlashtiring

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

**Namuna.**

**Fikr:** "Tarix fanidan davlat ta'lim standartlari talablarini xalqaro andozalar asosida takomillashtirish va sertifikatlashtirish ta'lim samaradorligining eng muhim omillaridan biridir".

**1-Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU texnologiyasi orqali tahlil qiling.

**2-Topshiriq:** Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qo'qon xonligi davlat boshqaruvining asosiy farqlari?



**“XULOSALASH” (Rezyuml, Veer)  
metodi**

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va





ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**



Ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;



Mashg'ulotning maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



Har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



Nvbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, o'qituvchi tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlr bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

**Namuna:**

Tarix fanidan Davlat ta'lim standarti			
Sobiq standart		Yangi standart	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi

**Xulosa:**



**"SWOT-tahlil" metodi**

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



<b>S – (strength)</b>	<b>. kuchli tomonlari</b>
<b>W – (weakness)</b>	<b>. zaif, kuchsiz tomonlari</b>
<b>O – (opportunity)</b>	<b>. imkoniyatlari</b>
<b>T – (threat)</b>	<b>. to'siqlar</b>

**Namuna:** Tarix o'qitishda "Xulosalash" metodning SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

<b>S</b>	Tarix o'qitishda "Xulosalash" metodidan foydalanishning kuchli tomonlari	
<b>W</b>	Tarix o'qitishda "Xulosalash" metodidan foydalanishning kuchsiz tomonlari	
<b>O</b>	Tarix o'qitishda "Xulosalash" metoddan foydalanishning imkoniyatlari (ichki)	
<b>T</b>	To'siqlar (tashqi)	

**Namuna:** An'anaviy va zamonaviy ta'lim shakllarini "SWOT-tahlil" metodida tahlil qiling.

<b>S</b>	Oddiy darsda o'qituvchi, tinglovchilarga ko'p ma'lumot bera olmaydi	Zamonaviy darsda kamroq ma'lumot beriladi, biroq ular tinglovchilar ongiga singdirib beriladi
<b>W</b>	O'qituvchi asosan a'lochi, qiziquvchi tinglovchilar bilan gaplashadi, ya'ni darsda oz sonli tinglovchilar qamrab olinadi	Zamonaviy ta'limda darsda ko'p sonli tinglovchilar qamrab olinadi
<b>O</b>	Oddiy darsda faqat o'qituvchi reja asosida va tayyorlab kelgan ma'lumotlari atrofida gaplashiladi	Zamonaviy darsda muhokama jarayonida yangi-yangi masalalar, muammolar yuzaga chiqishi, g'oyalar tug'ilishi mumkin
<b>T</b>	O'qituvchi uchun asosiy to'siq – dasturdan chiqib keta olmaslik, tinglovchi uchun qiziqmasa ham o'qituvchini eshitib o'tirish majburiyati	Keng muhokama uchun vaqtning chegaralanganligi, tinglovchilarni mavzudan chetga burishga intilishlari



## “Insert” metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o'zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma'lumot.			
“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma'lumot men uchun yangilik.			
“–” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.



## “Pinbord” metodi

Pinbord (inglizchadan: pin – mahkamlash, board – yozuv taxtasi) munozara usullari yoki o'quv suhbatini amaliy usul bilan moslashdan iborat. Muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish va guruhlashtirish (klassifikatsiya)ni amalga oshirishga, jamoa tarzda yagona yoki aksincha qarama-qarshi pozitsiyani shakllantirishga imkon beradi.

O'qituvchi taklif etilgan muammo bo'yicha o'z nuqtai nazarini bayon qilishni so'raydi. To'g'ridan-to'g'ri yoki ommaviy aqliy hujumning boshlanishini tashkil qiladi (rag'batlantiradi). Fikrlarni taklif qiladilar, muhokama qiladilar, baholaydilar va eng optimal (samarali) fikrni tanlaydilar. Ularni tayanch xulosaviy fikr (2 ta so'zdan ko'p bo'lmagan) sifatida alohida qog'ozlarga yozadilar va doskaga mahkamlaydilar.



O'qituvchi bilan birgalikda flipchart (maxsus doska va maxsus qog'oz yopishtirish imkonini beradigan skotch) yordamida fikrlar jamlanadi, klassifikatsiya qilinadi, muhokamada esa optimal yechimlar bo'yicha aniqlanadi.

Guruh namoyondalari doskaga chiqadilar va maslahatlashgan holda:

- 1) yaqqol xato bo'lgan yoki takrorlanayotgan fikrlarni olib tashlaydilar;
- 2) bahsli bo'lgan fikrlarni oydinlashtiradilar;
- 3) fikrlarni tizimlashtirish mumkin bo'lgan belgilarini aniqlaydilar;
- 4) shu belgilar asosida doskadagi barcha fikrlarni (qog'oz va varaqlaridagi) guruhlariga ajratadilar;
- 5) ularning o'zaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko'rsatadilar: jamoaning yagona yoki qarama-qarshi pozitsiyalari ishlab chiqiladi.

### Madaniyat


moddiy madaniyat	ma'naviy madaniyat



### “Konseptual jadval” metodi

Konseptual jadval metodi - turli g'oyalarni, qarashlarni o'zaro taqqoslash va ularni turli toifalar bo'yicha taqqoslagan holda baho berishga qaratilgan organayzer hisoblanadi. Metod tinglovchilarni o'rganilayotgan mavzu (masala yoki muammo) ni ikki yoki undan ortiq jihatlari bo'yicha taqqoslashga o'rgatadi. Undan foydalanishda tinglovchilarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma'lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Mashg'ulotlar chog'ida metoddan foydalanish quyidagi tartibda kechadi:





O'rganilayotgan mavzu mohiyatini yorituvchi jihatlar	Muhim belgilar, tavsiflar		
	1-belgi (tavsif)	2-belgi (tavsif)	3-belgi (tavsif)
1-jihat			
2-jihat			
...			

**Namuna:**

Tarix darslarida interfaol ta'lim usullaridan foydalanishning jihatlari	Muhim belgilar, tavsiflar		
	1-belgi (tavsif)	2-belgi (tavsif)	3-belgi (tavsif)
“Assesment”			
“Insert”			
“Tushunchalar”			
“Brifing”			
“Bahs-munozara”			
“Muammoli vaziyat”			



## “Tushunchalar” metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod Tinglovchilar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Namuna:** “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?	Qo'shimcha ma'lumot
--------------	---	---------------------



Tarixiy manba		
Tarixiy adabiyot		
Tarixiy hujjat		
Tarixiy xarita		
Tarixiy surat		
Tarixiy fonogramma		
Tarixiy xat		
Tarixiy makon		

**Izoh:** Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘shimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.

**“Muammoli vaziyat” metodi**

**“Muammoli vaziyat” metodi** - ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo‘yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. “Muammoli vaziyat” metodi qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o‘rganadilar. Quyida “Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi keltirilgan.



**“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**



1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo'llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.
8. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.



## “T-jadval” texnologiya

Texnologiya tayanch tushunchalarni bir-biri bilan o'zaro solishtirish, qiyoslash asosida o'rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini bir necha asosiy belgilarga ko'ra batafsil yoritish maqsadida qo'llaniladi. Ko'p hollarda texnologiya mavzu mazmunida yoritiladigan bir necha holatlarning afzallik yoki kamchiliklarini, samaradorli yoki samarasizligini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo'llaniladi.

Agar ular yozilgan fikrga qo'shilsalar, birinchi ustunda “+“ aks holda uchinchi ustunda “-“ belgisini qo'yadilar.

**Izoh: O'qituvchi:** Yangi mavzuni bayon qiladi va tinglovchilarga ikki qarama-qarshi jihat haqida boshlang'ich ma'lumotlarni beradi;

- topshiriqni yakka tartibda bajarishlarini so'raydi va 10 daqiqa vaqt ajratadi;
- vaqt tugagach tinglovchilardan izohlarsiz o'z fikr – mulohazalarini o'qib eshittirishlarini aytadi;
- barcha xulosalar tinglangach, umumlashtiriladi va yakuniy xulosa shakllantiriladi.

### **Tinglovchi:**

- mavzuni diqqat bilan tinglaydi;
- o'zi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni daftariga qayd qilib boradi;
- berilgan sxema asosida tushunchaga nisbatan o'zining mustaqil fikrini bildiradi;
- yakuniy xulosasi bilan o'tirganlarni tanishtiradi;
- reglamentga rioya qiladi.

**Kutiladigan natija:** Tinglovchilar mavzu yuzasidan zaruriy bilimlarni o'zlashtiradi, kursning mohiyati haqida tasavvurga ega bo'ladi

**“T-jadval” texnologiyasi**

<b>O'rganilayotgan masala (g'oya, omil)</b>	
<b>+ (ha, ijobiy) afzalligi (yutug'i)</b>	<b>- (yo'q, salbiy) kamchiligi</b>
1.	1.
2.	2.
...	...

**“Innovatsion texnologiyalarni darsda foydalanish”**

<b>Afzalliklari</b>	<b>Kamchiliklari</b>
“Qaytar aloqa” ning ta'minlanishi	ko'p vaqt talab etilishi
motivasiyaning yuqori darajada bo'lishi	tinglovchilarni nazorat qilish imkoniyatining pastligi
o'tilgan materialning yaxshi esda saqlab qolinishi	ob'ektiv baholashning qiyinligi
muloqatga kirishish ko'nikmasining takomillashishi	o'qituvchining o'zidan ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolar yechish ko'nikmasiga ega bo'lishining talab etilishi
o'z-o'zini va boshqalarni baholash ko'nikmasining shakllanishi	ijodiy shovqin bo'lishi
mustaqil fikrlash qobiliyatining oshishi	qaytar aloqaning ta'minlanmasligi
<b>XULOSA</b>	

**T-sxema ko'rinishida vazifa**

<b>Ha</b>	<b>Fikr-mulohazalar</b>	<b>Yo'q</b>
	O'zbekistonda "Tashselmash", "O'zbekselmash", "Krasniy dvigatel", "Pod'emnik" va boshqa zavodlar paxtachilikni rivojlantirish maqsadlariga moslashtirildi.	
	1950 yil O'zbekistonda 2.220 ming tonna paxta tayyorlandi.	
	Sug'orish ishlarini yaxshilash uchun sun'iy suv omborlari qurildi.	
	XX asrining eng yirik ekologik - "Orol fojeasi" vujudga keldi.	
	O'zbekiston mamlakati paxta xom-ashyo bazasiga aylantirildi.	
	O'zbekiston "Oq-oltin"dan katta manfaat ko'rardi.	

**“Blis-o'yin texnologiyasi”**

Sana va voqealarni to'g'ri xronologik ketma-ketlikda joylashtiring.





**Sanalar** – 395, VI asr, 527-565, 534, VI asrning o'rtalari, VII asr, X-XI asr, IX-XI asrlar.

**Tarixiy voqealar** – Rim imperiyasi ikki mustaqil davlatga bo'lindi, Konstantinopol, Yustinian I imperatorligi davri, Yustinian I Velisariyni shimoliy Afrikaga jo'natdi, Vizantiyaning zaiflashuvi slavyan qabilalari istilolariga yo'l ochdi, Arab halifaligi hujumlari natijasida Suriya va Misr qo'ldan ketdi, imperatorlar amaldorlar, ibodatxonalar va monastirlarga ko'plab yer-mulklar in'om etadilar, feodal munosabatlarning uzil-kesil o'rnatilishiga olib keldi.

Yil, sana	Sodir bo'lgan voqelik

### “Venn diagrammasi” strategiyasi

Strategiya tinglovchi (tinglovchi)larda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

Strategiya tinglovchi (tinglovchi)lar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilim, ma'lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.



### “Hamkorlikda o'qitish” metodi

Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi – biror narsani birga bajarish emas, balki hamkorlikda o'qish, o'rganishdir!

Hamkorlikda o'qitishning samaradorligi:

1. Axborotga tanqidiy yondashuv va o'z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi. Bu ko'nikmalar hamkorlikda o'qiyotganlarda bir-biri bilan raqobat qilayotgan yoki individual o'qiyotganlarga qaraganda yaxshiroq rivojlangan. Xattoki, hamkorlikda bajarilgan yozma ishlar chuqur mazmunga egaligi bilan farqlanadi.

2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi. Hamkorlikda o'qiyotgan guruh a'zolari betakror g'oyalarni ko'proq ishlab chiqadi, turli maqsadlarga erishishda va dars jarayonida paydo bo'lgan har xil o'quv masalalarining yangi yechimlarini topishda ijodiy qobiliyatlar rivojlanib boradi.

3. Bir vaziyatda olingan bilimlar boshqa vaziyatda qo'llanishiga ko'maklashadi. Bugun guruh bajargan topshiriqni ertaga har tinglovchi mustaqil bajara olishi mumkin.

4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi. Hamkorlik bilimlarga ko'proq qiziqish uchun ham sharoitlar yaratadi. Mashg'ulot o'tkazish usuli qanchalik takomillashgan bo'lsa, tinglovchilarning o'rganilayotgan masalaga qiziqishi va faolli ortib boradi.



5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko'proq vaqt sarflanadi. Hamkorlikda o'qiyotganlar topshiriqlarni bajarish uchun raqobat qilayotgan yoki individual o'qiyotganlarga nisbatan ko'proq vaqt sarflaydilar.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy afzalliklari:

- hamkorlikda o'qiyotgan tinglovchilar bir-birining muvaffaqiyatiga ko'maklashadi;

- yordam va madad beradilar va yordamni qabul qiladilar, gap faqat o'qish to'g'risida emas, balki insoniy, do'stona munosabat to'g'risida ketayapti;

- axborot va "moddiy resurslar", ya'ni topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan barcha narsalar bilan almashadi;

- o'rtoqlari bergan ma'lumotlarni o'zlashtiradi va qo'llashga harakat qiladilar. Og'zaki tushuntirishlar, axborotni o'ylab ko'rish va umumlashtirish, o'z bilimlari va ko'nikmalarini boshqalarga uzatish – bularning hammasi bilimlarni tartibga solish, ularni yaxshiroq anglab o'zlashtirish va umumiy maqsadga erishishga shaxsiy ulushini qo'shishga olib keladi;

- tinglovchilar bir-biri bilan muzokara olib borishga va dalillar keltirishga o'rganadi. Intellektual maydondagi zidliklar qiziquvchanlikni rivojlantiradi, bilimlarni o'zlashtirish va ularni qayta anglash, o'rganilayotgan muammoga chuqurroq kirishishga undaydi hamda boshqa ko'p foydali sifat va ko'nikmalarni shakllantiradi;

- tinglovchilar yaxshiroq o'qishga intilishda bir-biriga ko'maklashadi. O'qishda o'rtoqlariga yordam berayotgan tinglovchi o'zi ham sezilarli darajada yaxshiroq o'qiydi;

- bir-biriga ta'sir etadi. Hamkorlikda o'qiyotgan guruh a'zolari o'rtoqlariga ta'sir etishning har qanday imkoniyatidan foydalanadilar va o'z navbatida ta'sir uchun ochiqlar;

- aniq ifodolangan motivasiyaga ega. Bilimlarni o'zlashtirishga intilish umumiy maqsadga erishishga qaratilgan hamkorlikdagi mehnat tufayli kuchayadi;

- o'zaro ishonch sharoitini yaratadi va talablarni yuqori darajada ushlab turadi. Guruh a'zolari o'z o'rtoqlariga ishonadilar va o'zlarini o'rtoqlari ishonchini qozonadigan tarzda tutadilar, bu katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun sharoitlar yaratadi. O'zaro ishonch – har birining yuqori yutuqlari uchun yaxshi asos.

Hamkorlikdagi o'qish tamoyillari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- guruhga bitta topshiriq;

- bitta rag'bat: guruh barcha ishtirokchilari hamkorlikdagi ish bahosi (umumiy natijaga erishish uchun barcha guruh a'zolari sarflaydigan kuchi baholanadi) va akademik natijalari yig'indisidan tashkil topgan bitta baho oladi, ya'ni guruh (komanda) muvaffaqiyati har bir ishtirokchining hissasiga bog'liq;

- har birining o'z muvaffaqiyati va guruhning boshqa a'zolari muvaffaqiyati uchun shaxsiy mas'uliyati;

- hamkorlikdagi faoliyat: guruhiy muzokara, hamkorlik, o'zaro yordam berish kabi o'zaro harakat usullari asosida tashkil topadi;

- muvaffaqiyatga erishishda teng imkoniyatlar: har bir o'qiyotgan o'z shaxsiy yutug'ini takomillashtirish, shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda o'qishga berilgan bo'lishi zarur, chunki u boshqalar bilan teng baholanadi.



### **Guruhda ishlash qoidalari:**

Har kim o'z hamkasblari nutqini xushmuomalalik bilan tinglashi zarur;  
Har kim faol, birgalikda ishlashi, berilgan topshiriqqa mas'uliyatli yondashishi zarur;  
Har kim yordamga muhtoj bo'lganda uni so'rashi zarur;  
Har kimdan yordam so'ralsa, yordam qilishi zarur;  
Har kim guruh ishini natijalarini baholashda ishtirok etishi zarur.  
- Boshqalarga yordam berib, o'zimiz tushunamiz!  
- Biz bitta kemadamiz: yoki birga suzib chiqamiz, yoki birga cho'kib ketamiz!

### **Guruhda topshiriqni bajarish yo'riqnomasi:**

1. Guruh liderini saylang.
2. Topshiriq bilan tanishing va uni qanday qilib bajarishingizni muhokama qiling.
3. Topshiriqni bajaring.
4. Taqdimotga tayyorlaning.
5. Taqdimot o'tkazing.
6. Guruh ishini baholang.

#### 1-bosqich

Guruh ish joyini tayyorlash – stol va o'rindiqlar shunday joylashtiriladiki, bunda ta'lim beruvchi auditoriyada erkin harakatlana olsun, har bir guruh a'zosi bir joyda bo'lishlari va bir-birlarini ko'rishlari va eshitishlari kerak, zarur o'quv qo'llanmalar barchaga yetarli bo'lishi kerak.

#### 2-Asosiy bosqich

1. Ta'lim oluvchilarni guruhlariga taqsimlash – tanlangan kichik guruhlariga birlashtirish yo'li asosida ta'lim oluvchilarni guruhlariga bo'ladi.

2. O'quv topshiriqlarini tarqatish – muammoli vaziyatni taklif qiladi, ta'lim oluvchilar bilan birgalikda uni echish yo'li va tartibini muhokama qiladi, guruhlarda hamkorlikdagi faoliyatni taqdim etish shaklini ma'lum qiladi. Har biri va butun guruhning natijalarini baholash mezonlarini tushuntiradi.

3. O'quv topshiriqlarni bajarish bo'yicha yo'riqnomani tushuntirish. Guruhlar bo'yicha ishni bajarish uchun zarur materiallarni tarqatadi. Topshiriqni bajarishda qanday qo'shimcha materiallaridan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. Guruhlarda ishlash qoidalarini eslatadi.

Doskada guruhli ishni bajarish bo'yicha yo'riqnomani yozadi yoki tarqatadi.

4. Ta'lim oluvchilar bilan qaytar aloqani amalga oshirish Ta'lim oluvchilar bilan guruhli ishni bajarish bo'yicha yo'riqnomani muhokama qiladi; hammalari uni tushunganlariga ishonch hosil qiladi.

5. Guruhlarda o'quv topshiriqni bajarish jarayonini tashkil etish – o'quv topshiriqni bajarish bo'yicha ishni boshlanishi haqida e'lon qiladi; Guruh ishini nazorat qiladi. Guruh ishini rejalashtirish, vazifalarni guruh a'zolari o'rtasida taqsimlash, vazifani bajarish bo'yicha yakka tartibda ishlash, yakka tartibda topilgan yechimlarni muhokama qilish,



guruh uchun umumiy yechimni ifodalash, guruh ishi natijalarini taqdimotini tayyorlash, aniq topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan alohida bo'lib ishlashga, ko'nikmalarni shakllantirishga e'tiborini qaratadi. Ish borishini sharhlaydi, yutuqlarni baholaydi, ayrim aniq, va samimiy tanbeh qiladi.

6. Guruh ishi taqdimotini tashkil qilish – bajarilgan ish natijalari to'g'risida ma'lumot berish uchun guruh vakillarini tayinlaydi. Baholash mezonini va ko'rsatkichlarini eslatadi.

3-Nazorat –yakuniy bosqichi

Yakun yasash – natijalar tekshiruvini o'tkazadi: guruhning har bir ishtirokchisi bilan gaplashadi; Guruh ishini tahlil qiladi, topshiriq bajarilishining yakunini qiladi, erishilgan maqsad to'g'risida xulosalar chiqaradi.

### **Hamkorlikda o'qitishning samaradorligi**

1. Axborotga tanqidiy yondashuv va o'z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi.

2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi.

3. Bir vaziyatda olingan bilimlar boshqa vaziyatda qo'llanishiga ko'maklashadi.

4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi.

5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko'proq vaqt sarfini talab etadi.



### III. NAZARIY MATERIALLAR

#### 1-MAVZU. DAVLATCHILIKNING NAZARIY MASALALARI: TUSHUNCHALAR, DAVRLASHTIRISH, SHAKLLANISH VA TARAQQIYOT NAZARIYALARI.

##### Reja:

1. Davlatchilik tushunchasi va belgilari.
2. Davlatchilikning shakllanishi: sivilizatsion yondashuv.
3. O'zbekiston hududlaridagi qadimgi davlatlar taraqqiyotining davrlashtirish masalalari.
4. O'zbekiston hududlaridagi qadimgi davlatlarning tipologiyasi.

**Tayanch tushunchalar:** Davlatchilik, davlat, tashkilot, jamiyat, boshqaruv, boshqaruv apparati, boshqaruv shakllari, hokimiyat, suverenitet, xalqaro munosabatlar, xuquqiy munosabatlar, qonun.

##### 1. Davlatchilik tushunchasi va belgilari.

“**Davlatchilik**” so‘zi ostida qanday tushuncha yotadi, bu haqda bir qator mutaxassislarning turlicha yondashuvlari va izohlarini ko‘rish mumkin.

“**Davlat**” so‘zi lotincha “**status**” – *holat (polojenie-rus t.)* tushunchasini anglatadi. Lotincha “status” jumlasini italyan tilida “stato”, ispan tilida “esado”, nemis tilida “staat”, ingliz tilida esa “state” tarzida talaffuz qilinadi va bu barcha tushunchalarning ostida jamiyatni boshqarish, uning siyosiy hayotini tashkil qilishning boshlanishidagi holat tushunchalari kabi yagona umumiylik yotadi<sup>1</sup>.

Davlat haqidagi, uning boshqaruv vazifalari va davlatning boshqaruvdagi suverenligi kabi to‘laqon tushunchalar XVI-XVII asrlarda to‘liq shakllandi.

Shu o‘rinda bu sohaning ayrim mutaxassilarining fikrlarini keltirib o‘tish o‘rinli, xususan, XX asr tadqiqotchilaridan biri F.Xayek davlatchilik tushunchasini tushuntirishda davlat apparati (boshqaruv organlari) tushunchasi bilan izohlab beradi<sup>2</sup>.

Fransuz olimlari B.Badi va P.Biribumalar esa davlatchilik tushunchasini “fuqarolik amaldorlari hamda qurolli kuchlarga ega bo‘lgan xizmatchilarning yaxshi tashkil etilgan hokimiyat mashinasi” sifatida izohlaydi<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Ushbu ma’ruza matnini tayyorlashda E.Rtveladze va A.Saidovlarning “Teoreticheskie voprosy gosudarstvennosti (ponyatiynost, periodizatsi i teori vozniknoveniya i razvitiya)” nomli maqolasidan foydalanildi. Qarang: Rtveladze E., Saidov A. Teoreticheskie voprosy gosudarstvennosti (ponyatiynost, periodizatsi i teori vozniknoveniya i razvitiya) / Ocherki istoriografii gosudarstvennosti Uzbekistana. Tom 1. Institut istorii AN RUz. D.A.Alimova. –T.: Izdatelstvo “Navro’z”, 2018. Str. 3-30.

<sup>2</sup> Xayek F. *Obshchestvo svobodnykh. Sderjivanie vlasti i razvenchanie politiki // Otkritaya politika. 1995. №8. S.41*; Qarang: Rtveladze E., Saidov A. Teoreticheskie voprosy gosudarstvennosti (ponyatiynost, periodizatsi i teori vozniknoveniya i razvitiya) / Ocherki istoriografii gosudarstvennosti Uzbekistana. Tom 1. Institut istorii AN RUz. D.A.Alimova. –T.: Izdatelstvo “Navro’z”, 2018. Str. 3

<sup>3</sup> Badi B., Biribuma P. *Pereosmysleniesotsiologii gosudarstvo // Mejdunarodnyy jurnal sotsialnykh nauk. 1994. №4, S.17*; Qarang: Rtveladze E., Saidov A. Teoreticheskie voprosy gosudarstvennosti (ponyatiynost, periodizatsi i teori vozniknoveniya i razvitiya) / Ocherki istoriografii gosudarstvennosti Uzbekistana. Tom 1. Institut istorii AN RUz. D.A.Alimova. –T.: Izdatelstvo “Navro’z”, 2018. Str. 3



Boshqa bir tadqiqotchi J.Xellouellning fikricha, davlatchilik tushunchasi ostida davlat - insoniylik xislatlarini yuksaltirish, insonlarning jamiyat farovonligiga xizmat qiluvchi ijodiy erkinligini ta'minlash, ayni vaqtda jamiyat hayotiga xavf soluvchi yovuzliklarni bartaraf etish choralarini ko'rishga xizmat qiluvchi tashkilot ekanligi sifatida ta'riflaydi<sup>4</sup>.

A.S.Axiezerning ta'kidlashicha, davlat – jamiyat orasidan boshqaruvni ta'minlash uchun ixtisoslashib chiqqan va pirovard natijada professional boshqaruv darajasiga erishgan boshqaruv apparatidir<sup>5</sup>.

Yuqoridagi tadqiqotchilarning bir-biridan mustaqil tarzda bildirgan fikrlaridan ko'rish mumkinki, davlatchilik tushunchasi ko'pqirrali va ko'p tomonlama funksiyaviy tushunchalarni anglatishi mutaxassilar tomonidan ta'kidlab o'tilgan.

Tushunish mumkinki, davlat o'z-o'zini boshqaruvchi va taraqqiy etib boruvchi tizimlarga va tuzilishlarga ega va shu sohalarini tasarruf etuvchi tashkilot sifatida ko'rsatilsada, ayrim tadqiqotchilarning fikricha, “fanda yoki uning alohida ayrim bir sohalarida (yoki fanning ayrim holatdagi taraqqiy etgan bosqichida) davlatchilik tushunchasiga hozircha to'laqonli aniqlik shakllanmagan”, degan qarashlar ham yo'q emas<sup>6</sup>.

Shu o'rinda davlatchilik sohasida tadqiqotlar olib borgan mutaxassislarining davlatchilik tushunchasi va unga aloqador xususiyatlar borasidagi bildirgan xulosaviy fikrlari ham mavjudki, bu aloqadorlik va xususiyatlar davlatlarning qanday tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tganligi, qanday boshqaruv shakllarini amaliyotdan o'tkazganligi va qolversa, insonlar ongida bu davlatlarga nisbatan qanday qarashlar shakllanganligidan qat'iy nazar ularning barchasi uchun xos, deb ko'rsatiladi, xususan,

**Birinchidan**, davlat o'z fuqarolarining jamoaviy hududiy yaxlitligi, bir butunligiga asoslanadi. Hududiy (territorial) yaxlitlik yoki bir butunlik davlatlarning boshqa bir davlatlardan alohida bo'lgan hududlarining chegaralarini, davlat boshqaruv organlarining shakllanishi va tartiblarini, ularning vazifalari va funksiyalarini alohida, o'ziga xos ekanligini belgilab beradi. Ta'kidlab o'tish kerakki, hudud yoki hududiy yaxlitlikning o'zigina davlatning belgisi sifatida xizmat qilmaydi, balki, undagi aholining aynan shu hududga taalluqli ekanligi, shu hududda barcha tarixiy davrlarda yashab kelayotganligi shu aholi yoki fuqarolarning ayni davlatga tegishli ekanligini belgilab beradi.

**Ikkinchidan**, davlat – maxsus ommaviy hokimiyat boshqaruv tashkiloti bo'lib, siyosiy xarakterga ega bo'ladi. Siyosiy hokimiyat ibtidoiy jamoa tuzumidagi jamoaviy hokimiyatdan farqli ravishda birinchi navbatda jamiyatning alohida bir qismining yoki ijtimoiy guruhlarining va sinflarning korporativ manfaatlari va qiziqishlarini aks ettiradi.

<sup>4</sup> Xellouell J. Моральные основы демократии. М.1993. С.114; Qarang: Rtveladze E., Saidov A. Teoreticheskie voprosy gosudarstvennosti (ponyatiynost, periodizatsi i teori voznikoveniya i razvitiya) / Ocherki istoriografii gosudarstvennosti Uzbekistana. Tom 1. Institut istorii AN RUz. D.A.Alimova. –T.: Izdatelstvo “Navro'z”, 2018. Str. 4

<sup>5</sup> Axiezer A.S. Sinretizm ili liberalizm // Rubeji. 1995. №4. S.71; Qarang: Rtveladze E., Saidov A. Teoreticheskie voprosy gosudarstvennosti (ponyatiynost, periodizatsi i teori voznikoveniya i razvitiya) / Ocherki istoriografii gosudarstvennosti Uzbekistana. Tom 1. Institut istorii AN RUz. D.A.Alimova. –T.: Izdatelstvo “Navro'z”, 2018. Str. 4

<sup>6</sup> Belkov P.L. Ranee gosudarstvo, predgosudarstvo, protogosudarstvo: igra i terminy // Ranee formy politicheskoy organizatsii: ot pervobytnosti k gosudarstvennosti. M. 1995. S.197. Qarang: E.Rtveladze. A.Saidov. Teoreticheskie voprosy gosudarstvennosti (ponyatiynost, periodizatsi i teori voznikoveniya i razvitiya) / Ocherki istoriografii gosudarstvennosti Uzbekistana. Tom 1. Institut istorii AN RUz. D.A.Alimova. –T.: Izdatelstvo “Navro'z”, 2018. Str. 4.



**Uchinchidan**, siyosiy hokimiyatni ifodalovchi ko'p sonli davlat apparati ishini tashkil etish hamda xizmatchilarining ta'minoti uchun soliqlar, yig'img'lar va turli to'lovlarning mavjudligi. Shuning uchun soliq (moliyaviy xizmatlar) xizmati har qanday davlatning eng muhim funksiyalaridan biri sanaladi.

**To'rtinchidan**, suverenitet, ya'ni davlatga xos bo'lgan o'z hududiy birligida oliy hokimiyatni amalga oshirishi va xalqaro munosabatlar mustaqil bo'lishi.

**Beshinchidan**, davlat xuquqiy munosabatlar va qonunlarsiz mavjud bo'lmaydi, shuning uchun davlatning qonun ijodkorligi ham muhim o'rin tutadi.

Demak, bu ko'rsatib o'tilgan zaruriyatlar yoki shartlar davlatning har qanday holatdagi shakllanishi va rivojlanishi, uning taraqqiyot darajasi va boshqaruv shaklidan qat'iy nazar barchasi uchun xos bo'lgan omillar sanaladi<sup>7</sup>.

**Davlat tushunchasi: mohiyati, belgilari, tiplari, shakllari, funksiyalari** "Davlat" tushunchasi keng ma'noga ega. Bu tushuncha to'risida olimlar uzoq vaqtlardan buyon baxslashib kelishadi. Jahon tarixshunosligida ilk davlatlarning shakllanishi borasida ko'plab nazariyalar mavjud:

- davlatlar mulkiy tabaqalanish mahsuli bo'lib, uning kurtaklari qadimgi jamoalar davrida paydo bo'lgan (Qadimgi Sharq);

- rivojlangan jamoalarda sinfiy differensiya va davlatchilik bo'lgan e'ki harbiylashgan jamoalar bosqinidan o'zlarini himoya qilish yo'lida himoya vositalari va davlat boshqaruv tizimini rivojlantirib borgan, aks holda varvarlar hujumining qurboniga aylangan. Bu holatda rivojlangan jamoa uchun davlatchilik ikkilamchi, urug' jamoa tuzumi darajasida bo'lgan xalqlar uchun davlatchilik birlamchi hisoblanadi (V-VI asrlarda Rim imperiyasining Varvarlar tomonidan bosib olinishi);

- sinfiy differensiyasiz jamiyatda davlatlarning paydo bo'lishi (Shan-In, Maya, Inklar, Asteklar - Kolumbgacha bo'lgan Amerika xalqlari). Bu xalqlarda yerga egalik qilish, jamoa mulki yoki sinfiy stratifikatsiya sezilmaydi. Avval primitiv davlatlarning shakllanishi va keyin esa sinflarning shakllanishi yuz bergan;

- to'rtinchi holatda sinfiy differensiya va davlatchilik bir vaqtda shakllanadi. Albatta, bu jamoada davlatchilik qo'shni xalqlarning - davlatlarning ta'sirida (Attika) paydo bo'ladi<sup>8</sup>.

Yuqoridagilardan ko'rish mumkinki, davlatchilikning shakllanishini bir qolipga solib bo'lmaydi<sup>9</sup>.

### *Davlat belgilari jadvali*

Davlatning mohiyatini tushunishda uchta asosiy nazariy yondashuv mavjudligi haqida ham adabiyotlarda qarashlar mavjud: *ijtimoiy*, *sinfiy* va *siyosiy-xuquqiy*. Birinchi yondashuvga ko'ra davlat xukmdorlar va xalqning o'zaro munosabatini tartibga soladi, ikkinchi yondashuv bo'yicha ko'radigan bo'lsak, davlat ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi, sinflarning paydo bo'lishi bilan xukmron sinfnig quroli sifatida unga qarshi

<sup>7</sup> Очерки историографии государственности Узбекистана. Том 1. Стр. 5-6.

<sup>8</sup> Илюшечкин В.П. Теория стадийного развития общества. - М.,1996. - С. 294-296.

<sup>9</sup> Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон хуудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари. (Бактрия мисолида).Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Самарқанд. 2009. 3-4-бетлар.



kurashish uchun maydonga chiqqan. Uchinchi yondashuvda, davlat jamiyatning va o'zining xayotini tashkil etuvchi xuquq manbaidir. Davlatning iqtisodiy soxadagi mohiyati ishlab chiqarish vositalariga egalikni bildirsa, siyosiy hukmronlik butun axolini davlat apparati va muayyan qonunlar yordamida davlat boshqaruvini amalga oshirishdan iboratdir<sup>10</sup>.

## 2. Davlatchilikning kelib chiqishi: sivilizatsion yondashuv

Davlatchilikning kelib chiqishi masalasi – tarix va yuridik fanlari sohalarida bugungi kungacha eng munozarali masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Davlatchilikning yuzaga kelishi va paydo bo'lishini tushuntirib berishga asoslangan juda ko'plab nazariyalar mavjud. Biroq shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, alohida bir mazmundagi nazariy yondashuvlarda ham davlatchilining shakllanishi borasidagi bir-biridan farqlanuvchi fikrlarni kuzatish mumkin, buning sababi o'rganilayotgan masalalar vaqt nuqtai nazaridan juda uzoq davrlar avval sodir bo'lgan va birinchidan bu jarayonlarni ilmiy modellashtirishning imkoni nihyatda kam bo'lsa, ikkinchidan bu modellashtirishlar mutaxassilar tomonidan juda ham ishonarli tarzda qabul qilinmasligi tabiiy.

O'zbekistonda ham davlatchilik jahonning boshqa hududlarida bo'lganidek, insoniyat taraqqiyotining ma'lum bir bosqichlarida shakllana boshladi. Tarix fanidagi so'nggi ma'lumotlarga asoslanib aytiladigan bo'lsa, zamonaviy odamlarning ajdodi bo'lgan kramanon odami bunda 40 ming yillar avval yashagan bo'lsa, eng dastlabki davlatlar bundan 5 ming yillar avval, ya'ni, miloddan avvalgi 4-3 ming yilliklar chegarasida paydo bo'lganligini ko'rish mumkin. *Davlatchilikning kelib chiqishida sivilizatsion yondashuv* tarafdorlarining qarashlaricha, davlatchilikning insoniyat tomonidan "ixtiro" qilinganligiga unchalik ham ko'p vaqt o'tgani yo'q, ya'ni, insoniyat o'zining ongli hayotining nisbatan juda katta qismini davlatchilikka asoslangan jamiyat boshqaruvidan holi o'tkazgan<sup>11</sup>.

Bir necha ming yillar, asrlar va xatoki o'n yilliklar avvalgi davlatchilik hozirgi mavjud davlatchilikdan ma'lum darajada farqlangan, shundan kelib chiqqan holda ko'pincha davlatchilikning taraqqiyoti masalasi haqida so'z yuritilganda "davlat tipi" tushunchasi haqidagi tushunchaga ko'proq urg'u beriladi.

*Davlat tipi* – umumiy belgilariga asosan va ichki tuzilish mohiyatini aks ettiruvchi boshqaruvni anglatadi.

Davlat va xuquq nazariyasida davlatni tiplarga ajratishda yagona yondashuv yo'q. Tiplarini shartli ravishda kuyidagilarga bo'lish mumkin:

Sovet davri ijtimoiy fanlarida davlatchilik masalalari hamda uning tarixi va taraqqiyoti masalalarida davlat va jamiyat taraqqiyotining formatsion yondashuvi tushunchasi yetakchi mavqega ega bo'ldi. Biroq bu yondashuvda bir qator xatoliklarga yo'l qo'yildiki, ular quyidagi holatlarda namoyon bo'ldi:

***Birinchidan***, davlatchilikning bir tipi ikkinchisiga mexanik ravishda o'z o'rnini bo'shatib beradi, degan bir tomonlama yondashuvning ustunligi;

<sup>10</sup> Саидов А., У.Таджиханов, Х.Одилқориев, Давлат ва ҳуқуқ асослари.Тошкент, "Шарк". 2002. 11-бет.

<sup>11</sup> Очерки историографии государственности Узбекистана. Том 1. Стр. 6.





**Ikkinchidan**, quldorlik davlati, feodal davlat, sotsialistik davlat tiplari sifatida davlat shakllarini, ya'ni formalarini aniqlab berildi, dekan davlatchilik taraqqiyoti tarixi jarayonida ko'rindiki, barcha davlatlar va davlatchilik jarayonlari ham bu formatsiyaga har doim ham mos kelavermaydi;

**Uchinchidan**, Osiyochoa ishlab chiqarish usuli inkor qilindi;

**To'rtinchidan**, ma'naviy omillarga yetarli darajada baho berilmadi va davlatchilikdagi ularning o'rni va ta'siri inobatga olinmadi;

**Beshinchidan**, Sotsialistik davlat tipini eng oliy davlat tipi sifatida yetakchi mavqeda baholovchi apologetik<sup>12</sup> yondashuv yetakchilik qildi.

### *Davlat tiplari jadvali*

Hozirgi vaqtda *davlatchilikning tipologiyalashtirish masalasida sivilizatsion yondashuv* katta ahamiyat kasb etmoqda.

*Sivilizatsion yondashuv asosini* "sivilizatsiya" – (*lotin civilis* – fuqaroviy (grajdanskiy) tushunchasi tashkil etadi. Aksariyat ilmiy adabiyotlarda sivilizatsiya tushunchasi jamiyatning taraqqiyoti darajasini belgilovchi tushuncha sifatida ma'lum.

Shu nuqtai nazardan sivilizatsion yondashuvda davlatni tipologiyalashtirishning tashqi xususiyatlari emas, balki davlatning ichki funksiyaviy jihatlari asosiy o'ringa qo'yiladi.

Tarixni "sivilizatsiya" tushunchasi yordamida o'rganish ingliz tarixchisi A.Toynbi (1889-1975) tomonidan uning 12 tomli "Postijenie istorii" (1934-1961) nomli kitobida ilgari surilgan. Toynbi barcha sivilizatsiyalarni milliy, diniy, geografik va boshqa jihatlari qarama-qarshi 21 ta sivilizatsiyaga bo'lib tahlil qiladi. Umuman turli olimlar tomonidan sivilizatsiyalar 15-20 tadan 30 tagacha ko'rsatiladi<sup>13</sup>.

Umuman, davlatchilikni tipologiyalashtirish masalasida sivilizatsion yondashuvning xususiyati shundaki, bunda asosiy omillar sifatida jamiyatning ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti, xalqning ma'naviy taraqqiyoti darajasi, an'analari va milliy xarakter, mentalitet, mafkuraning xarakteri, geografik muhit va boshqalar asosiy o'rin tutadi<sup>14</sup>.

***Davlatchilikning kelib chiqishidagi sivilizatsion yondashuv masalalariga xulosa sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish o'rinlidir:***

1. Davlat insoniyat hayotining barcha davrlarida ham, ya'ni har doim ham mavjud bo'lmagan (dastlabki davlat 5 ming yil avval tashkil topgan bo'lsa, undan avval ibtidoiy jamoa davri hukm surgan)

2. Davlatchilik jamiyat taraqqiyoti qonuniyatining moddiy va ma'naviy hayot sharoitlari va ehtiyojlari natijasi sifatida shakllandi.

3. Davlatchilik uzoq davom etgan tarixiy jarayonlarning ma'lum bir alohida davrida shakllandi.

<sup>12</sup> Apologetika - diniy ibora bo'lib, ayrim hollarda tarix fanida ham qo'llaniladi va ko'r-ko'rona himoya qilish ma'nosida tarixiy voqealarning va jarayonlarning barchasi oldindan belgilangan va ma'lum qonuniyatlarga asoslangan holda sodir bo'ladi degan teologik tushuncha. Qarang: Ilhomov Z. Tarix fani metodologiyasi. Tadqiqot usulbulari va terminlarining izohli lug'ati. Toshkent, 2013. 22-b

<sup>13</sup> Ocherki istoriografii gosudarstvennosti Uzbekistana. Tom 1. Str. 10.

<sup>14</sup> Ocherki istoriografii gosudarstvennosti Uzbekistana. Tom 1. Str. 9-10.da



4. Davlatchilik bir qator omillarning ta'siri ostida shakllandi.

5. Davlatchilikning shakllanishi jarayoni – bu marta sodir bo'ladigan jarayon emas, balki bu jarayon davlatchilikning qaror topishi uchun zarur omillarning qaror topishigacha davom etadi. Shu nuqtai-nazardan turli xalqlar o'z davlatchiligiga turli tarixiy davrlarda, ya'ni biri avvalroq, boshqasi keyinroq erishgan.

6. Davlatchilikning shakllanishi omillari konkret-tarixiy sharoitda o'zini turlicha ko'rinishda namoyon etdi va har bir alohida konkret holatda o'zining maxsus xususiyatlariga ega bo'ldi.

7. Davlat jamiyat qiziqishlari va manfaatlarini ifodalagan holda jamiyat ustidan turuvchi kuch sifatida shakllandi<sup>15</sup>.

Xulosa sifatida aytish kerakki, davlatchilikning shakllanishida sivilizatsion yondashuv ayni vaqtda shakllanish jarayonini kechirmoqda va ilmiy adabiyotlarda davlatning tiplarga bo'linishi borasidagi yagona va tugal fikrlar batafsil o'z aksini topgan emas.

### **3. O'zbekiston hududlaridagi qadimgi davlatlar taraqqiyotining davrlashtirish masalalari.**

O'rta Osiyoda davlatchilik evolyusiyasini miloddan avvalgi II ming yillik ikkinchi yarmidan boshlab milodiy III – IV asrlargacha bo'lgan vaqt orasida bir nechta davrlarga bo'lish mumkin. O'zbekiston hududlarida ilk davlatchilikning shakllanishi so'nggi bronza davrida o'troq-dehqonchilik madaniyati tarqalgan janubiy hududlarda sodir bo'ldi. Bu jarayonning yakunlanishi shu vaqtda O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan Kushonlar imperiyasi hamda Parfiya imperiyalarining yemirilishi davriga, ya'ni milodiy III asr birinchi yarmilariga to'g'ri keladi. Taxminan shu davrlarda Qang' davlati ham tugab bordi<sup>16</sup>.

Mana shu oraliqda o'tgan davrlarda O'rta osiyo hududlarida davlatchilikning shakllanishi, kechishi va qaror topishi jarayonlari mutaxassislar tomonidan oltita davrga bo'lib ko'rsatiladi va ularning asosiy jihatlari ko'rsatib beriladi.

**Birinchi davr** – miloddan avvalgi II mig yillik – O'zbekistonning janubiy hududlarida protodavlatlarning, ya'ni ilk davlatlarning shakllanishi sodir bo'ldi va davlatchilikning tuzilishi qaror topa boshladi. Davlatchilikning ilk ko'rinishi Jarqo'ton yodgorligida ko'rinadi, ya'ni bunda mudofaa devori bilan o'ralgan qal'a va uning ichki qismida aholi yashash joylari, ibodatxona va ark saroyi mavjud.

**Ikkinchi davr** – miloddan avvalgi I ming yillikning boshlaridan – miloddan avvalgi 539 yil – Baqtriya, So'g'd, Xorazm kabi tarixiy madaniy viloyatlarning shakllanishi, ularda davlatchilikning dastlabki shakllari bilan birga siyoisy hokimiyatning boshqaruv pog'onlarani ham ko'rish mumkin.

Bu holatni "Avesto"da keltirilgan ma'lumotlardan ham ko'rish mumkinligi mutaxassislar tomonidan ko'rsatib o'tiladi, chunonchi, unda jamiyatning tarkibiy tuzilish sifatida namana (oila - uy), vis (urug', urug'ga tegishli hudud), zantu (qabila yoki qabilaga tegishli hudud), daxyu (viloyat yoki davlat) sifatida ko'rsatilsa, eng quyi boshqaruv amaldorlari pog'onasidan boshlab viloyat yoki davlat hukmdori (daxyupati) va oliy

<sup>15</sup> Очерки историографии государственности Узбекистана. Том 1. Стр. 11-12.

<sup>16</sup> Очерки историографии государственности Узбекистана. Том 1. Стр. 22.



hukmdorgacha (sastar) boshqaruv tizimi vakllari va ularing funksiyalari tavsiflab berilgan<sup>17</sup>.

**Uchinchi davr** – miloddan avvalgi 539-330 yillarni o'z ichiga olib, Eron ahmoniylarining O'rta Osiyo hududlariga bostirib kirishi va hukmronligi o'rnatishi sababli bu yerda mahalliy davlatchilik an'analari uzilish sodir bo'lganligi bilan belgilanadi. O'rta Osiyoning janubiy hududlari 200 yil davomida Ahmoniylar davlati tarkibida bo'ldi. Bu yerda davlatchilik an'analari o'rniga Ahmoniylar boshqaruv tizimi joriy etilib, O'rta Osiyo hududlarida 3 ta satraplik tashkil etildi, bu satrapliklarning chegaralari to'lig'icha yoki qisman hozirgi O'zbekiston hududlariga to'g'ri kelardi. Ularning tobeligi asosan to'lanadigan o'lponlar bilan cheklanardi. Ahmoniylarning O'rta Osiyo davlatlari ustidan hukmronligi miloddan avvalgi IV asrning 30-yillarida Makedoniyalik Aleksandr tomonidan yunon-fors urushlaridagi g'alaba natijasida barham topdi.

**To'rtinchi davr** – miloddan avvalgi IV asr oxirlaridan - miloddan avvalgi II asr ikkinchi yarmi boshlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, Aleksandr Makedonskiy bosqinchiligidan to' ellin davlatlari (Yunon-Baqtriya davlati) hukmronligining so'nggi yillarigacha bo'lgan tarixiy voqealar va davlatchilik jarayonlarini aks ettiradi. Bir vaqtning o'zida mahalliy davlatchilik jarayonlarining shakllanishi ham sodir bo'la boshladi, jumladan miloddan avvalgi IV asr oxirlarida Xorazm podsholigi shakllandi.

Miloddan avvalgi III asr oxirlari – miloddan avvalgi II asrda Buxoro, Dovon va So'g'dda alohida mahalliy davlatlar shakllandi.

E.Rtveladze va A.Saidovlarning ko'rsatishicha, taxminan shu vaqtlarda hozirgi Toshkent viloyati hududlarida Qang' davlati shakllandi va keyinchalik butun O'rta Osiyoda to'liq hukmronlikni qo'lga kiritdi<sup>18</sup>.

**Beshinchi davr** – miloddan avvalgi II ming yillik ikkinchi yarmi - milodiy I asr boshlari – mahalliy davlatlar – Qang', Xorazm podsholigi, Buxoro, So'g'd va Dovon mulklarining mustahkamlanishi bilan belgilanadi. Shuningdek, bu davrda Yuechji (Kushon) davlatining shakllanishi va Gandxara o'lkasigacha yoyilib borishi sodir bo'ldi. Eng asosiy xususiyatlaridan biri davlatlarning deyarli barchasida (Dovon davlatidan tashqari) o'zining pul muomalasi tizimi shakllantirildi, mis va kumushdan tangalar zarb etish yo'lga qo'yildi. Bundan tashqari mahalliy So'g'd va Xorazm yozuvlari shakllandi. Bular orasida pul ishlarining shakllanishi davlatchilikning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lishi bilan xususiyatlandi.

**Oltinchi davr** – milodiy I asr boshlari - milodiy III asr birinchi yarmi – mahalliy Qang', Xorazm podsholigi, Buxoro, So'g'd va Dovon mulklarining taraqqiy etgan davri bilan xususiyatlanadi. O'zbekistonning janubiy hududlari qudratli Kushon podsholigi tarkibiga kirdi, bu davlatning asosiy siyosiy markaziy hududlari hozirgi Surxondaryo viloyati hududlariga to'g'ri kelardi. Choch hududlarida davlatchilik yuzaga keldi va mis tangalar zarb etish yo'lga qo'yildi, Xorazmda afrig'iylarning sulolaviy hukmronligi

<sup>17</sup> Livshis V.A. *Общество Авесты* // ИТМ. Т.1. М.1963. С.145-149; Qarang: *Ocherki istoriografii gosudarstvennosti Uzbekistana*. Tom 1. Str. 23.

<sup>18</sup> Lekin ma'ruza muallifi (Z.Ilhomov) antik davr tarixchilarining yozma manbalariga asoslanib bildirgan fikriga ko'ra, Qang' davlati miloddan avvalgi IV asrda, ayni Aleksandr Makedonskiyning bosqini jarayonlari sodir bo'layotgan vaqtdayoq mavjud bo'lganligi va bu davlat haqida keltirilgan ma'lumotlar yunon tarixchilari tomonidan yozib qoldirilganligini ko'rsatib o'tadi. Qarang: Ilhomov Z.A. *Qang' davlati davlatchiligi tarixi*. / "Ilk o'zbek davlatchiligi tarixi". Toshkent. 2010.



o'rnatildi. Bu davrda Buyuk Ipak yo'li shakllandi. Bu davrning so'ngiga kelib, milodiy III-IV asrlarda Kushon davlati va Parfiya davlati kabi yirik davlatlarning parchalanishi va ularning o'rnida bir qancha nisabatan mayda mulklarning qaror topishi sodir bo'ldi<sup>19</sup>.

#### **4.O'zbekiston hududlaridagi qadimgi davlatlarning tipologiyasi.**

O'zbekiston hududlarida mavjud bo'lgan qadimgi davlatlarni ularning boshqaruv shakli, davlatchilik shakli va boshqa xususiyatlariga qarab bir nechta tiplarga va shakllarga bo'lib ko'rsatish mumkin. Bunda davlatlarning siyosiy boshqaruv jihatlari, boshqaruv shakllari, boshqaruvchi davlat apparati funksiyalarining xususiyatlari kabilar inobatga olingan. Shunga ko'ra O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan qadimgi davlatlarni quyidagi tipologiyaga ajratib ko'rsatish mumkin:

**1. Davlatchilik tipi – podsholik. Boshqaruv shakli - mutlaq (absolyut) monarxiya.**

**2. Davlatchilik tipi – konfederativ podsholik. Boshqaruv shakli - cheklangan monarxiya.**

**3. Davlatchilik tipi – mulk. Boshqaruv shakli - qabila yetakchilari va urug' boshliqlarining merosiy hukmronligi.**

Quyida ularning har biri haqida alohida to'xtalib o'tiladi.

#### ***Davlatchilik tipi – podsholik. Boshqaruv shakli - mutlaq (absolyut) monarxiya.***

O'zbekistonning qadimgi davr davlatchiligida podsholik tipiga kiruvchi davlatchilik ko'rinishlarini ham ko'rish mumkin.

Miloddan avvalgi 539-330 yillarda O'rta Osiyoning Farg'ona (Dovon) va Chochdan tashqari juda katta hududlari Ahmoniylar sulolasi hukmronligi ostida bo'lgan Fors davlatiga tobe bo'lgan. Ayni vaqtda Xorazm, So'g'd, Baqtriya, shuningdek saklar va ular yashaydigan hududlar Ahmoniylar davlatining ma'muriy birligi – satrapliklarni tashkil qilgan, boshqaruv ahmoniylar shoxi tomonidan qo'yilgan noib – satrap tomonidan amalga oshirilgan, satrapliklar har yili belgilangan miqdorda shox xazinasiga boj to'lab turishga majbur etilgan.

Miloddan avvalgi IV asr oxirlarida O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan yunon makedon davlati ham absolyut monarxiya tizimiga ega bo'lgan. Bu yerda miloddan avvalgi III asr o'rtalarida tashkil topib - miloddan avvalgi II asr ikkinchi yarmi boshlarigacha bo'lgan davrda hukmronlik qilgan Yunon-Baqtoriya davlati ham absolyut monarxiya tizimiga ega edi.

Shimoliy Baqtriya va So'g'd miloddan avvalgi IV asr oxiridan – miloddan avvalgi III asr o'rtalarigacha boshqa bir yunon podsholigi – Salavkiylar davlati tarkibiga kirgan.

Milodiy I-III asrlarda qudratli davlatga aylangan Kushon podsholigi ham absolyut monarxiya tipidagi davlat sanalgan. Shu bilan birga davlat tarkibida yirik viloyatlar ham bo'lib, ularni *kanaranglar* deb ataluvchi (baqtriy tilida – *karalrago*) harbiy boshliqlar boshqargan va boshqaruvda ma'lum darajada mavqega ega bo'lgan.

Bunday xususiyatga ega bo'lgan davlatlardan biri sifatida Xorazm podsholigini ham ko'rsatib o'tish mumkin.

<sup>19</sup> Очерки историографии государственности Узбекистана. Том 1. Стр. 22-26.



***Davlatchilik tipi – konfederativ podsholik. Boshqaruv shakli - cheklangan monarxiya.***

Davlatchilikning *konfederativ podsholik* tipi xususiyatini aks ettirgan davlatlar sifatida Qang‘ davlati va Yuechji davlatini ko‘rsatish mumkin. Bu davlatlar odatda bir nechta mustaqil mulklardan iborat bo‘lgan, bu mulklar qabila yoki urug‘lar boshliqlari tomonidan boshqarilgan va ular o‘z nomlaridan mis tangalar zarb qildirganlar.

Masalan *Qang‘ davlati* hududlarida taxminan 5 ta mustaqil mulklar mavjud bo‘lgan: Buxoro va uning atroflari bitta mulk bo‘lib, uning hukmdorlari Yevtidem tangalari nusxasida o‘zlarining unvonlari va nomlari bilan tangalar zarb qildirganlar, Buxoroning janubi-sharqiy hududlari va Samarqand So‘g‘dining shimoli-g‘arbiy hududlari Girkod sulolasi hukmdorlari tomonidan boshqarilgan, Samarqand So‘g‘di hukmdorlari esa o‘z tangalarini turli hukmdorlar nomlari bilan zarb qildirgan bo‘lsalar, Janubiy So‘g‘d hukmdorlari ham o‘z zarbxonalariga ega bo‘lganlar<sup>20</sup>.

Xorazm esa butunlay mustaqil boshqaruvga ega davlat bo‘lib, hukmdorlari nisbatan yuqori unvon (MR‘YMLK’ – hukmdor - podsho)ga ega bo‘lganlar.

Ayni vaqtda mutaxassislar tomonidan yuqorida ko‘rsatilgan davlatlar yoki mulklarning barchasi uchun Qang‘ davlatining yagona va umumiy bo‘lgan tangalari va zarbxonasi mavjud bo‘lmagan, deb ko‘rsatiladi.

Bunday tipdagi davlat sifatida *Ilk Yuechji* davlatini ham ko‘rsatish mumkin. Bu davlat ham Qang‘ davlati kabi 5 ta mulkdan iborat bo‘lib, ularning har biri davlat ichida katta mavqega ega edilar. Bular – Xyumi, Shuanmi, Guyshuan, Dumi, Xitun mulklari bo‘lib, Baqtriyaning turli hududlarida joylashan edilar va yuechjilarning yagona hukmdoriga bo‘sunganlar. Keyinchalk bu mulklar orasidan Guyshuan mulki hokimlari markaziy hokimiyat uchun kurash olib borib, O‘rta Osiyo va atrof hududlarda juda katta mulklarni o‘z tasarrufiga olgan ulkan Kushonlar imperiyasini tashkil etgan edilar.

***Davlatchilik tipi – mulk. Boshqaruv shakli - qabila yetakchilari va urug‘ boshliqlarining merosiy hukmronligi.***

Bu tipga mansub davlatlar sifatida ilk o‘rta asrlarda O‘rta Osiyo hududlarida mavjud bo‘lgan bir necha o‘nlab mulklarni ko‘rsatish mumkin. Xitoylik sayyoh Chjan-Szyanning qayd etishicha, Baqtriya bir necha o‘nlab mulklardan tarkib topgan va bu mulklarning har biri mustaqil boshqaruvga ega bo‘lib, o‘zlarining hukmdorlari bo‘lgan. Xitoy manbalarida ham O‘rta Osiyoning ikki daryo orag‘idagi hududlarida bu vaqtda 55 ta mustaqil mulklar mavjud bo‘lganligi qayd etib o‘tilgan. Bu mulklar o‘zining mustaqil ichki va tashqi siyosatini yuritgan bo‘lsa, ayrimlari xatto Xitoy davlati bilan diplomatik aloqalarga ham kirisha olgan edi<sup>21</sup>.

### **Nazorat savollari**

1. Davlatchilik tushunchasi.
2. Davlatchilik belgilari.

<sup>20</sup> Очерки историографии государственности Узбекистана. Том 1. Стр. 29.

<sup>21</sup> Очерки историографии государственности Узбекистана. Том 1. Стр. 30.



3. Davlatchilikning shakllanishi maslasidagi yondashuvlar?
4. O'zbekiston hududlaridagi qadimgi davlatlar taraqqiyoti nechta davrga bo'linadi?
5. O'zbekiston hududlaridagi qadimgi davlatlar nechta tipologiyaga ajratiladi?

### Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2016. - 56 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 48 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent, O'zbekiston, 2017.
5. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
6. Karimov I.A Tarixiy xotirisiz kelajak yo'q. T., Sharq. 1998
7. Karimov I.A. Yuksak ma'anviyat – yengilmas kuch. T. “Ma'naviyat”, 2008 y.
8. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T. “O'zbekiston”, 2011.
9. “O'zbek xalqining kelib chiqishi: ilmiy metodologik yondashuvlar, etnogenetik va etnik tarix” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy seminar materiallari. T: 2004.
10. Shoniyozov K.Sh. O'zbek xalqining shakllanishi jarayoni. T. “Sharq”, 2001.
11. Asqarov A. Jo'raqulov M. Yeneolit va bronza davrida O'rta Osiyo. — Samarqand, 1984.
12. O'zbekiston tarixi moddiy madaniyat va yozma manbalarda.T: “Fan” 2005.
13. Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. Tuzuvchi Zohid A'lam. T. 2008.
14. Sagdullaev A.S., Aminov B., Mavlonov U, Norqulov N O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. T, Akademiya 2000.
15. Ilxomov Z. Qo'qon xonligi davlatchiligi tarixining manbashunoslik masalalari. Ocherki istoriografii gosudarstvennosti Uzbekistana. Tom 1. Institut istorii AN RUz. D.A.Alimova. –T.: Izdatelstvo “Navro'z”, 2018. 380s.
16. Istorioografiya gosudarstvennosti Uzbekistana: konsepsiya proekta fundamentalnogo issledovaniya . Institut istorii AN RUz. D.A.Alimova. –T.: Izdatelstvo “Navro'z”, 2018. 75 s.
17. Istoriya gosudarstvennosti Uzbekistana (Bibliografiya). O'zR FA asosiy kutubxonasi. Toshkent. 2018.
18. Ocherki istoriografii gosudarstvennosti Uzbekistana. Tom 1. Institut istorii AN RUz. D.A.Alimova. –T.: Izdatelstvo “Navro'z”, 2018.
19. Ocherki istoriografii gosudarstvennosti Uzbekistana. Tom 2. Institut istorii AN RUz. D.A.Alimova. –T.: Izdatelstvo “Navro'z”, 2019.
20. Rtveladze E.V., Saidov A.X., Abdulaev Ye.V. Qadimgi O'zbekiston



sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavxalar. - Toshkent: "Adolat" 2001.

21. Rtveladze E., Saidov A. Teoreticheskie voprosy gosudarstvennosti (ponyatiynost, periodizatsi i teori vozniknoveniya i razvitiya) / Ocherki istoriografii gosudarstvennosti Uzbekistana. Tom 1. Institut istorii AN RUz. D.A.Alimova. –T.: Izdatelstvo "Navro'z", 2018. Str. 3-30.

## **2-MAVZU. O'ZBEK DAVLATCHILIGINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI VA TADQIQOTLARNING ZAMONAVIY KONSEPSIYALARI**

- 1. O'zbek davlatchiligi tarixi fanining nazariy-metodologik asoslari.**
- 2. O'zbek davlatchiligi taraqqiyoti bosqichlari.**

**Tayanch so'zlar:** Davlat, jamiyat, davlatchilik tarixi, davlatchilik bosqichi, o'zbek davlatchiligi tarixi, davlat uyushmalari, davlatchiligi tarixi konsepsiyasi,

### ***1. O'zbek davlatchiligi tarixi fanining nazariy-metodologik asoslari.***

Ilk ajdodlarimizning yurtimiz hududlarida joylashuvidan boshlab, ularning o'troq turmush tarziga asoslangan etno-madaniy hududlarda o'zlarining ilk shaharlari va ilk davlatlariga asos solishi jarayonlari, uch ming yillik tarixiy davr davomida davlatchilik va uning taraqqiyotida sodir bo'lgan o'zgarishlar va davlatchilik an'alarining shakllanishi, oddiy davlat boshqaruvi tizimining murakkab davlatchilik tizimi sifatida qaror topish bosqichlari va ularning xususiyatlari, yurtimizda hukm surgan davlatlar va sulolalarning nafaqat Markaziy Osiyo yoinki Sharqda, balki jahon davlatchilik amaliyoti va davlatchilik an'alaridagi o'ziga xosligi va jahon davlatchiligi taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, ilm-fan va madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat sohalarida buyuk ajdodlarimizning beqiyos merosi va boshqa shu kabi jihatlarni atroflicha, xolis va ilmiylikka asoslangan holda yoritib berish davlatchilik tarixini yoritishdagi eng muhim masalalardir. Respublikamiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'z asarlarida ta'kidlab o'tganidek, o'zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi masalalari xaqqoniy va chuqur ilmiy xulosalarga asoslangan holda yoritilishi zarurdir.<sup>22</sup> Qolaversa, "Davlatimiz, millatimizning haqqoniy ilmiy tarixini yaratish keng jamoatchiligimiz uchun g'oyat muhim va dolzarb masalaga aylanishi lozim"<sup>23</sup>.

Shundan kelib chiqqan holda o'zbek davlatchiligi tarixi fanini yoritishda fanning nazariy metodologik asoslarini bilish va unga rioya etish katta ahamiyatga egadir. Bunda tarixiylik, ilmiylik, xolislik va ob'ektivlik omillari muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi konsepsiyasi asosida o'zbek davlatchiligi jarayonini bosqichlarga bo'lish va ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish, keyingi yillarda chop

<sup>22</sup> Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тошкент, "Шарқ", 1998.

<sup>23</sup> Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан кураимиз. 7-жилд. Тошкент. "Ўзбекистон". 1999. 154-бет.



etilayotgan ilmiy asarlar, tadqiqotlar, davlatchilik masalalariga bag'ishlangan ilmiy-nazariy konferensiyalar materiallarini o'rganish va ularni yagona tizimga solgan holda davlatchilik jarayoni tarixini ob'ektiv o'rganish va tarixiylik hamda haqqoniylik tamoyillariga amal qilgan holda ilmiylik nuqtai-nazaridan xulosalar chiqarish talab etiladi.

Ayniqsa, xolislik tamoyili ilmiy xulosalar chiqarishda muhim omil sanalgani bois, aniq manbaviy ma'lumotlarga tayanib, tarixiy jarayonlarning o'zaro chambarchas bog'liqligini asoslash, tarixiy jarayonlarni o'zaro solishtirish va taqqoslash, qiyosiy tahlil ijobiy natijalarga erishishda muhim o'rin tutadi. Biror bir davr yoki shu davrdagi davlatchilik an'analari haqida so'z yuritilar ekan, ana shu davr va davlatchilik masalalarida mavjud holatlarga xos xususiyatlardan kelib chiqqan holda voqelikni anglash va uni tahlil qila bilish, ko'rilayotgan voqealar yoki jarayonlar haqida to'g'ri xulosalar chiqarishga katta yordam beradi.

Tarixiylik uslubi xalqning o'tmishiga, hozirgi zamonning kelajagiga yagona tarixiy jarayon sifatida, hozirgi zamon kelajakni yaratadi, degan taraqqiyot qonuni asosida qarashni talab qiladi. Sodir bo'lgan madaniy-tarixiy jarayonlarni, ajdodlarimiz qoldirgan ulkan merosni qanchalik chuqur va har tomonlama o'rganib, uni chuqur anglansa kelajakni shunchalik yorqin tasavvur qilish mumkin. Tarixiylik va ilmiylikning muhim omillaridan yana biri shundaki, o'zbek davlatchiligi tarixi, o'zbek xalqining etnogenezi jarayonlari jahon mamlakatlari davlatchiligi amaliyoti va etnik jarayonlari bilan uzviy ravishda ro'y bergan va uning ajralmas bir bo'lagi sifatida taraqqiyotga erishgan. Shunday ekan, o'zbek davlatchiligi tarixi taraqqiyotini ham jahon taraqqiyoti tarixi bilan bog'liq holda o'rganish zaruriy talablardan biridir.

## ***2. O'zbek davlatchiligi taraqqiyoti bosqichlari.***

O'zbek davlatchiligi taraqqiyoti bosqichlari mutaxassislar tomonidan bir qancha tarixiy davrlarga bo'lib ko'rsatib berilgan bo'lsada, bu bosqichlarning o'ziga xos jihatlari va bosqichlarning asoslab beruvchi xususiyatlari yetarli darajada yoritib berilmagan<sup>24</sup>. O'zbek davlatchiligi taraqqiyotining tarixiy jarayonlarini o'rganar ekanmiz, uning tarixiy davrlardagi xususiyatlarini chuqur o'rgangan holda, nazariy va metodologik jihatdan quyidagi davrlarga bo'lib o'rganish va o'qitish maqsadga muvofiqdir:

**Birinchi bosqich - bronza davridan boshlanib ilk temir davrining oxirigacha** bo'lgan davrni o'z ichiga oladi va **siyosiy jihatdan** bu davrda boshqaruv shakllanib, davlatchilik tizimiga o'tila boshlandi va davlatchilik kichik-kichik shahar davlatlar shaklidan yirik davlat uyushmalari darajasigacha ko'tarildi.

---

<sup>24</sup> O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi konsepsiyasi. / O'zbekiston tarixi. 1999 yil, 1 - son.





**Iqtisodiy jihatdan** kichik-kichik vohalarning o'zlashtirilishi va sug'orish tarmoqlarining barpo etilishi, ijtimoiy tengsizlik va mulkka egalik jihatlarining yuzaga kelishi bilan xususiyatlanadi.

**Ikkinchi bosqich - miloddan avvalgi VI-IV asrlardan milodiy III asrlargacha** bo'lgan davrni o'z ichiga olib, **siyosiy jihatdan** bu davrda O'rta Osiyoda, jumladan hozirgi O'zbekiston xududlarida mavjud bulgan davlatlar boshqaruv tizimida Eron va qisman Yunon-makedon davlatlari boshqaruv tizimi ta'siri ostida davlatchilik an'analari davom etdi va ayrim o'zgarishlarni qabul qildi. Ayni vaqtda mahalliy davlatlar boshqaruv tizimi va davlatchilik tuzilishi takomillashib bordi. Bu davrlarda asosiy davlat mafkurasi otashparastlik va zardo'shtiylik dinlari negizida shakllanib bordi.

**Iqtisodiy jihatdan** yirik ekin maydonlarining barpo etilishi va sug'orish tarmoqlarining shakllantirilishi, o'unarmandchilik va chorvachilikning alohida xo'jalik turlari sifatida tarqqiy etib borishi, ichki bozorlarning faollashuvi va Buyuk Ipak savdo yo'lining yuzgaga kelishi va tashqi savdo-madaniy aloqalarning yo'lga qo'yilishi bilan xususiyatlanadi.

**Uchinchi bosqich - IV asrdan - IX asr o'talarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.** Bu davr **siyosiy jihatdan** O'rta Osiyo hududlarida turkiy davlatlarning qaror topishi va boshqaruvda ayrim turkiy-ko'chmanchi an'analarning vaqtinchalik joriy etilishi, davlat mafkurasi sifatida otashparastlik va zardushtiylik an'analarning yemirilib borishi, siyosiy tarqoqlikning kuchayishi, VIII asrdan boshlab esa Arab xalifaligi hukmronligi, davlatchilik ana'nalarida islom diniga asoslangan boshqaruv elementlarining kirib kelishi va islom diniga asoslangan mafkuraning shakllanishi bilan xususiyatlanadi.

**Iqtisodiy jihatdan** yerga egalik munosabatlarining shakllanishi, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarning mukammallashib borishi, yerga egalik tom ma'nodagi davlat siyosatiga ko'tarilishi, Arab xalifaligi davrida esa xalifalik tarkibidagi davlatlar bilan chuqur aloqaga kirishish va Buyuk Ipak yo'li ahamiyatning oshishi bilan xususiyatlanadi<sup>25</sup>.

**To'rtinchi bosqich - IX asr o'rtalari – XIII asr birinchi choragigacha** bo'lgan davrni o'z ichiga olib, **siyosiy jihatdan** bu davr O'rta Osiyodagi dastlabki markazlashgan davlat sifatida siyosiy boshqaruvdagi mavjud ana'nalarning takomillashtirishi va murakkab tuzilmaga ega davlat boshqaruvining shakllanishi, yirik saltanatlar (imperiyalar) darajasiga ko'tarilgan turkiy davlatlarning qaror topishi va boshqaruvshakllari hamda markazlashish jarayonlarining takomillashib borishi bilan xususiyatlanadi. Islom mafkurasi hukmron mafkura sifatida to'liq qaror topishi.

**Iqtisodiy jihatdan** yerga egalik munosabatlarining kengayishi va murakkablik kasb etishi, soliqlarning bir tizimiga solinishi, xalqaro savdoda muomala darajasiga ko'tarilgan pullarning zarb qilinishi, sug'orish tarmoqlarining ko'payishi, Buyuk Ipak yo'li

<sup>25</sup> Илһомов З. Илк ўрта асрлар ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент, ТДПУ, 2010. 6-7-бетлар.



faoliyatining kengayishi va xalqaro savdoning taraqqiy etishi, iqtisodiy markazlarga darajasiga yetgan shaharlarning ko'payishi bilan xususiyatlanadi.

**Beshinchi bosqich - XIII asr birinchi choragi – XIV asr 60-yillari.** *Siyosiy jihatdan* bu davr O'rta Osiyoda mo'g'ullar saltanati hukmronligining o'rnatilishi. Mavjud davlatchilik an'alarining inqirozga uchrashi va ayni vaktida mo'g'ullar davlat boshkaruvi an'alarining maxalliy boshkaruv bilan qorishuvi. Ko'chmanchilikka xos va kabilaviy mafkuralarning qisman hukmron mafkuraga aylanishi.

*Iqtisodiy jihatdan* yer va yerga egalik munosabatlarida ko'chmanchilik an'alarining qisman joriy etilishi, iqtisodiy salohiyatning inqirozga uchrashi va izdan chiqishi bilan xususiyatlanadi<sup>26</sup>.

**Oltinchi bosqich - XIV asr 60-yillari – XVI asr boshlari.** Mazkur davr *siyosiy jihatdan* Amir Temur tomonidan Movarounnaxrda marakazlashgan davlatning tashkil etilishi va ayni vaqtda Markaziy Osiyo, Old Osiyo va Yaqin Sharq, Kichik Osiyo va Yevropaning bir qismini o'z ichiga olgan buyuk salatanatga asos solinishi, davlatchilik an'alarining isloh kilinishi va takomillashtirilishi natijasida o'zbek davlatchiligi taraqqiyotida yangi bosqichga ko'tarilishi bilan xususiyatlanadi. Bu davrda islom mafkurasi hukmron mafkura sifatidagi mavqeini tikladi. XV asr boshiga kelib Movarounnahrda yuzaga kelgan siyosiy tarqoqlik XVI asr boshlariga kelib temuriylar davlatining inqirozi bilan yakun topadi.

*Iqtisodiy jihatdan* mazkur davr yer va yerga egalik munosabatlarining takomillashtirilishi, sug'orish tarmoqlarining tiklanishi va barpo etilishi, yangi yerlarning o'zlashtirilishi va dexqonchilik maydonlarining kengaytirilishi, iqtisodiy sohadagi davlat siyosatining izga solinishi, soliqlarning takomillashtirilishi, hunarmandchilik va me'morchilikning taraqqiy etishi, Buyuk Ipak yo'li bo'ylab Xitoy, Hindiston, Mo'g'uliston, Sibir xalqlari, Volgabo'yi xalqlari, Sharqiy Yevropa, Markaziy Yevropa, Bolqon mamlakatlari, Kichik Osiyo, Old Osiyo, Yaqin Sharq, Afg'oniston, Eron, Kavkaz xalqlari bilan savdo aloqalarining kengayib borishi kabilan bilan xususiyatlanadi.

**Yettinchi bosqich - XVI asr boshlari – XIX asr ikkinchi yarmini o'z ichiga olib,** *siyosiy jihatdan* bu davr O'rta Osiyoda yangi sulola – Shayboniylar sulolasining hokimiyatni egallashi va Buxoro xonligiga asos solinishi, markazlashgan hokimiyatning qisman tiklanishi, Shayboniylar sulolasi hukmronligi ostida Xiva xonligining alohida davlat sifatida shakllanishi, XVII asr boshlariga kelib Buxoro xonligida Ashtarxoniylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi, XVIII asr boshlariga kelib esa siyosiy tarqoqlikning kuchayishi Minglar sulolasi boshchiligida Qo'qon xonligining tashkil topishi, O'rta Osiyoda umumiy holda siyosiy tarqoqlikning kuchayishi va davlatlararo o'zaro kurashlarning kuchayishi bilan xususiyatlanadi.

<sup>26</sup> Илхомов З. Ўрта асрлар ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент, ТДПУ, 2010. 4-5-бетлар.



**Iqtisodiy jihatdan** bu davrda o'zbek xonliklarining jahon iqtisodiy taraqqiyotidan orqada qolishi bilan xususiyatlanadi.

**Sakkizinchi bosqich - XIX asr ikkinchi yarmidan 1917 yil mart oyigacha** bo'lgan davrni o'z ichiga olib, **siyosiy jihatdan** bu davr iqtisodiy, siyosiy va g'arbiy jihatdan jahon taraqqiyotida orqada qolgan va o'zaro kurashlar girdobiga tushib qolgan o'zbek xonliklarining xudi shunday holatda jahon taraqqiyotidan ancha ortda qolib ketayotgan va rivojlangan davlatlar orasida o'z o'rnini topa olmayotgan Rossiya imperiyasi tomonidan mustamlakaga aylantirilishi, Buxoro amirligi, Xiva xonligining qaram davlatlarga aylantirilishi va Qo'qon xonligining tugatilishi, Turkiston general – gubernatorligining tashkil etilishi va mustamlaka boshqaruv usulining joriy etilishi, o'zbek davlatchiligidagi tarixiy an'analarning inqirozga yuz tutishi bilan xususiyatlanadi.

**Iqtisodiy jihatdan** bu davr an'anaviy ishlab chiqarish usullarining inqirozga yuz tutishi, yevropacha ishlab chiqarish elementlarining kirib kelishi, mustamlaka manfaatiga xizmat qiluvchi sanoat korxonalarining shakllantirilishi, temir yo'l qurilishi, banklar va turli iqtisodiy sohadagi tashkilotlar faoliyatining yo'lga qo'yilishi bilan xususiyatlanadi.

**To'qqizinchi bosqich - 1917 yil mart - 1924 yil dekabrgacha** bo'lgan bu davr **siyosiy jihatdan** Rossiyada podsho hokimiyatning ag'darilishi natijasida Turkiston general-gubernatorligining barham topishi va mahalliy xalqlarning davlatchilik uchun kurashlari, ikki hokimiyatchilik va Turkiston muxtoriyati (Qo'qon muxtoriyati) tashkil etilishi va tugatilishi, Turkiston Avtonom Sovet respublikasining tashkil etilishi va ayni vaqtda Buxoro amirligi va Xiva xonligining tugatilishi, Buxoro Xalq Sovet respublikasi va Xorazm Xalq Sovet respublikalarining tashkil etilishi, boshqaruvda ayrim demokratik omillarning boshlang'ich elementlarining joriy etilishiga urinish, bolsheviklar tomonidan mahalliy davlatchilikni tiklash yo'lidagi har qanday urinishlarga to'sqinlik qilinishi, Turkiston Avtonom Sovet respublikasi, Buxoro Xalq Sovet respublikasi va Xorazm Xalq Sovet respublikalarining tugatilishi va milliy – hududiy omillarga asoslangan holda mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritish huquqidan amalda mahrum etilgan O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining tashkil etilishi bilan xususiyatlanadi.

Iqtisodiy jihatdan bu davr xususiy mulkchilikning tugatilishi, yerga xususiy egalikning tugatilishi, mulk egalarining iqtisodiy va siyosiy jihatdan ta'qib qilinishi va mulkdan mahrum etilishi, sotsialistik mulkchilik shakllari asoslarining yaratilishi va iqtisodiy hayotning joriy etilishi bilan xususiyatlanadi.

#### **O'zbek davlatchiligi taraqqiyot bosqichlari jadvali**

**O'ninchi bosqich - 1925 yil yanvar – 1991 yil 31 avgustgacha** davom etgan bu davr **siyosiy jihatdan** O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasida boshqaruv va iqtisodning sotsialistik shakliga o'tilishi, ichki va tashqi siyosatning markazlashtirilgan holda SSSR (Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi) rahbariyati tomonidan amalga oshirilishi, markazga itoatda tutib turuvchi milliy siyosatning amalga oshirilishi, milliy



davlatlarning suvereniteti va mustaqil boshqaruv faoliyatining cheklanganligi, KPSS (Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasi) ning yagona partiya sifatida siyosiy va mafkuraviy hukmronlik mavqeini kasb etishi va kommunistik mafkuraning hukmron mafkuraga aylanishi bilan xususiyatlanadi.

Shuningdek, bu davr *siyosiy jihatdan* XX asrning 80-yillari o'rtalari - 90-yillari boshlarida sobiq Ittifoq markaziy hokimiyatidagi inqiroz holatlarining yuzaga kelishi, milliy davlatlarning o'z mustaqilligi va suverenitetini qaytadan tiklashi uchun sharoitlarning yuzaga kelishi, Ayni vaqtda O'zbekiston SSRda mustaqil davlatchilik xuquqiy asoslarining yaratilishi hamda Prezidentlik boshqaruvining joriy etilishi bilan ham xususiyatlanadi.

*Iqtisodiy jihatdan* bu davrda sotsialistik mulkchilik shakllarining iqtisodiy va ijtimoiy hayotga to'liq tatbiq etilishi, barcha mulkning davlat tasarrufiga o'tkazilishi, ishlab chiqarishda davlat monopoliyasi (yakka hukmronligi) ning tashkil etilishi, ittifoqdosh respublikalarda iqtisodning notekis rivojlanishi va oldindan rejalashtirilgan holda bir-biriga bog'liq va biri boshqasiz faoliyat yurita olmaydigan holda tashkil etilishi, milliy respublikalarning asosan xom ashyo bazasiga va birlamchi mahsulotlar hamda yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi davlatlarga aylantirilishi, qishloq xo'jaligida esa yerning to'liq davlat tasarrufiga o'tkazilishi, jamoaviy ishlab chiqarish jamoa xo'jaliklari (kolxozlar) va davlat xo'jaliklari (sovxozlar) ning tashkil etilishi, yer va uning tuzilishi, tabiiy va iqlim sharoitlari bilan hisoblashmagan holda ekin maydonlarining kengaytirilishi va ekologik holatlarning buzilishi, qishloq xo'jaligidagi samaradorlikning kamayishi bilan xususiyatlanadi.

**O'n birinchi bosqich - 1991 yil 31 avgustdan bugungi kunga qadar** bo'lgan davrni o'z ichiga olib, *siyosiy jihatdan* O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining tugatilishi, O'zbekistonning SSSR tarkibidan chiqishi va davlat mustaqilligining e'lon qilinishi, O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi, 1992 yil mart oyida O'zbekiston Respublikasining BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti) ga a'zo bo'lishi, O'zbekistonning mustaqil va suveren davlat sifatida jahon mamlakatlari tomonidan e'tirof etilishi, 1992 yil dekabrda davlatning Asosiy Qonuni – Konstitutsiyaning qabul qilinishi, O'zbekistonning ichki va tashqi siyosatda asosiy prinsiplarning ishlab chiqilishi va jahon siyosiy sahnasida o'z o'rnini topib borishi, milliy valyutaning joriy qilinishi, xuquqiy-demokratik davlat barpo qilinishi yo'lini tanlanganligi bilan xususiyatlanadi.

Shuningdek, bu davr *siyosiy jihatdan* yana markaziy va mahalliy boshqaruvdagi islohotlar va boshqaruvdagi demokratik omillarning kuchayishi va takomillashib borishi, iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy va ijtimoiy sohadagi islohotlar, milliy mafkuraning shakllantirilishi, qonun chiqaruvchi hokimiyatning jahon tajribasidan kelib chiqqan holda takomillashtirilishi va yuqoridagi islohotlarning va davlatchilikning taraqqiy etishi



hozirda ham mukammallashgan va takomillashtirilgan holda davom etayotganligi bilan ham xususiyatlanadi.

**Iqtisodiy jihatdan** bu davr davlat siyosati darajasida iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi va uning xuquqiy asoslarining yaratilishi, bozor iqtisodiyotiga asoslangan ishlab chiqarishning yo‘lga qo‘yilishi, O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tishda o‘ziga xos tamoyillarni ishlab chiqqanligi va «o‘zbek modeli”ning yuzaga kelishi va uning jahon mamlakatlari tomonidan e’tirof etilishi, xususiy mulkchilikning shakllantirilishi va ishlab chiqarishdagi erkinlikning ta’minlanishi, sanoat ishlab chiqarish turlarining kengaytirilishi, qishloq xo‘jaligining isloh qilinishi va jamoaviy mulkchilik shakllaridan voz kechilishi va boshqalar bilan xususiyatlanadi.

**Ijtimoiy jihatdan** bu davr kuchli ijtimoiy himoyaning davlat siyosati darajasida amalga oshirilayotganligi va mazkur sohaning har jabhasida davlatning eng birinchi himoyachi va g‘amho‘rliqi, ayni vaqtda bu boradagi islohotlarning keng ko‘lamlarda davom ettirilayotganligi bilan xususiyatlanadi.

**Ma’naviy va madaniy jihatdan** davlat va hukumat tomonidan ma’naviy merosning tiklanishi, mavjud osori-atiqalarning tiklanishi va asl holatiga qaytarilishi, madaniy hayotning har bir sohasida davlat siyosatining muhim ahamiyat kasb etishi va uning rivojlanishi va taraqqiyotida asosiy omil bo‘layotganligi, O‘zbekistonning yuksak madaniyatga va ma’naviyatga ega jahon markazlaridan biriga aylanayotganligi, oqilona milliy siyosatning yo‘lga qo‘yilganligi va vijdon erkinligiga keng yo‘l ochib berilganligi bilan xususiyatlanadi.

O‘zbek davlatchiligi tarixi va uning taraqqiyot bosqichlari bu borada boshqa adabiyotlarda va konsepsiyalarda ilgari surilgan qarashlar, shuningdek, o‘zbek davlatchiligi jarayonida mavjud bo‘lgan davlatlar va ularning boshqaruvdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy, mafkuraviy jihatlarini tahlil qilgan holda yuqoridagi tartibda ilk marotaba to‘liq holda mazkur qo‘llanmada ko‘rsatilmoqda. O‘zbek davlatchiligi taraqqiyotining mazkur tartibdagi davrlashtirilishi va bosqichlarga bo‘linishi borasida soha mutaxassislari tomonidan bildiriladigan barcha fikrlar muallif tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilinadi, zero bu ayni masalada mukammallikka erishishda va qolaversa “O‘zbek davlatchiligi tarixi” fanining rivojlanishiga xizmat qiladi.

### Nazorat savollari

1. O‘zbek davlatchiligi tarixi fanining maqsadi nima?
2. O‘zbek davlatchiligi tarixi fanining vazifalari nimalardan iborat?
3. Davlat tushunchasi va uning mohiyatini tushuntirib bering.
4. Davlatning belgilari qanday ko‘rinishga ega?
5. Davlatning tiplari va shakllarini aytib bering.
6. Davlatning tuzilishi haqida ma’lumot bering?
7. Oddiy va murakkab davlatlarning belgilarini tushuntiring?



8. Federatsiya va konfederatsiyalarning belgilarini tushuntiring?
9. Davlatning ichki funksiyalari nimalardan iborat?
10. Davlatning tashqi funksiyalarida deganda nimalar ko'zda tutiladi?

### Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2016. - 56 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 48 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent, O'zbekiston, 2017.
5. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
6. Karimov I.A Tarixiy xotirisiz kelajak yo'q. T., Sharq. 1998
7. Karimov I.A. Yuksak ma'anviyat – yengilmas kuch. T. “Ma'naviyat”, 2008 y.
8. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T. “O'zbekiston”, 2011.
9. Ilxomov Z. Qo'qon xonligi davlatchiligi tarixining manbashunoslik masalalari. Ocherki istoriografii gosudarstvennosti Uzbekistana. Tom 1. Institut istorii AN RUz. D.A.Alimova. –T.: Izdatelstvo “Navro'z”, 2018. 380s.
10. Istorioografiya gosudarstvennosti Uzbekistana: konsepsiya proekta fundamentalnogo issledovaniya . Institut istorii AN RUz. D.A.Alimova. –T.: Izdatelstvo “Navro'z”, 2018. 75 s.
11. Istoriya gosudarstvennosti Uzbekistana (Bibliografiya). O'zR FA asosiy kutubxonasi. Toshkent. 2018.
12. Ocherki istoriografii gosudarstvennosti Uzbekistana. Tom 1. Institut istorii AN RUz. D.A.Alimova. –T.: Izdatelstvo “Navro'z”, 2018.
13. Ocherki istoriografii gosudarstvennosti Uzbekistana. Tom 2. Institut istorii AN RUz. D.A.Alimova. –T.: Izdatelstvo “Navro'z”, 2019.
14. Rtveladze E.V., Saidov A.X., Abdulaev Ye.V. Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixilan lavxalar. - Toshkent: “Adolat” 2001.
15. Rtveladze E., Saidov A. Teoreticheskie voprosy gosudarstvennosti (ponyatiynost, periodizatsi i teori vozniknoveniya i razvitiya) / Ocherki istoriografii gosudarstvennosti Uzbekistana. Tom 1. Institut istorii AN RUz. D.A.Alimova. –T.: Izdatelstvo “Navro'z”, 2018. Str. 3-30.
16. O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi konsepsiyasi. / O'zbekiston tarixi.1999 yil,1 - son.
17. Ilhomov Z. Ilk o'rta asrlar o'zbek davlatchitligi tarixi. Toshkent, TDPU, 2010. 6-7-betlar.



18. Ilhomov Z. O'rta asrlar o'zbek davlatchiligi tarixi. Toshkent, TDPU, 2010. 4-5-betlar.

### **3 - MAVZU: O'ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXI TARIXSHUNOSLIK TADQIQOTLARINING DOLZARB MASALALARI (mustamlaka davri tarixi tadqiqotlari misolida)..**

#### **Reja:**

1. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi ijtimoiy-siyosiy hayotining o'ziga xos xususiyatlari, imperiyaning mustamlakachilik siyosati va uning zamonaviy talqini.
2. Turkiston xalqlari milliy-ozodlik harakatlari tarixshunosligi.
3. Rossiya imperiyasining Turkistonda yuritgan ta'lim siyosati va uning mustamlakachilik mazmuni.
4. Jadidchilik harakatining o'lka xalqlari milliy uyg'onishida tutgan o'rni. Jadidchilik, o'lka jadid namoyondalarining madaniy-oqartuvchilik faoliyati. Qadimchilar va milliy taraqqiyparvar-islohotchilik oqimi.

**Tayanch tushunchalar:** XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi ijtimoiy-siyosiy hayotining o'ziga xos xususiyatlari. Turkistonda Rossiya Imperiyasi mustamlakachilik siyosati va uning zamonaviy talqini. O'lka xalqlari milliy-ozodlik harakatlari tarixshunosligi. Jadidchilik, o'lka jadid namoyondalarining madaniy-oqartuvchilik faoliyati. Qadimchilar va milliy taraqqiyparvar-islohotchilik oqimi.

#### **1. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi ijtimoiy-siyosiy hayotining o'ziga xos xususiyatlari, imperiyaning mustamlakachilik siyosati va uning zamonaviy talqini.**

XIX asrning 50-80-yillari davomida Markaziy Osiyo to'laligicha Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olindi. Mavjud Qo'qon xonligi 1876 yildayoq butunlay tugatildi, Xiva xonligi va Buxoro amirligi mustaqillikdan mahrum etilib, Rossiya vassaliga aylantirildi. 1867 yil 14 iyulda Rossiya podshohi Aleksandr II farmoni bilan Turkiston general-gubernatorligi ta'sis etildi, uning birinchi general-gubernatori etib general fon Kaufman tayinlandi. U cheksiz huquqlarga ega bo'lib, faqat Rossiya podshohigagina bo'ysunar edi. Nomidan ko'rinib turganidek, bu hukumat harbiy kuchga asoslangan edi, uning hukmdorlari ham harbiy edi, general-gubernatorlik tasarrufidagi oblastlar, uezdlar, volostlar nachalniklari – hammasi harbiy xizmatchilardan, yuqori unvonli zobitlardan tayinlanardi, general-gubernator albatta general unvoniga ega bo'lar edi. Turkiston o'lkasi katta harbiy kuch bilan zanjiriband etildi. General-gubernatorlik Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand, Yettisuv va Kaspiy orti viloyatlarini o'z tarkibiga olib, Toshkent uning poytaxtiga aylantirildi.

Yerli yuqori tabaqa namoyandalari davlatni boshqarish huquqidan mahrum etildilar, bu ularning nafaqat siyosiy faoliyatlarini, balki iqtisodiy imkoniyatlarini ham cheklab qo'ydi. Ular orasida Vatan, xalq mustaqilligini muqaddas biluvchi, uning ozodligi uchun



kurashga tayyor turgan fidoyilar ham ko'p edi. Tarix xujjatlariga e'tibor bering: "Ilgari hukmronlik qilgan nufuzli tabaqalarning oddiy kishilarga aylanish jarayoni juda qiyin va alamli kechmoqda. Shuning uchun tasodifiy hodisalarning bo'lishini nazarda tutgan holda mahalliy aholini qattiq nazorat ostida saqlab turish zarur. Yangi tartib va qonunlar orqasida ularning faqat jamiyatdagi mavqeiga emas, balki vaqf yerlaridan olinadigan daromadlarining qisqartirilishi natijasida iqtisodiy manfaatlariga ham ziyon yetkazildi".

General-gubernatorlik ayniqsa xalqo'rtasida katta obro'-e'tiborga ega bo'lgan hurfikrli ziyolilarni, shoirlarni hamma vaqt ta'qib ostiga oldi, ularni o'z manfaatlar uchun xizmat qildirishga tirishdi, ba'zan ochiqdan-ochiq mustamlaka tuzumini madhqiluvchi, o'tmishni qora bo'yoqlarda tasvirlovchi asarlar yozishni topshirdi. Bunday asarlar uchun gubernatorlik muassisi "Turkiston viloyatining gazetisi" sahifalaridan muharriri missioner N.Ostroumov katta o'rin ajratdi. 1880-1890-yillarda va undan keyin ham mahalliy ziyolilarning ichki Rossiyaga – Peterburg va Moskva shaharlariga sayohatlarini uyushtirdilar. Shu davr "Turkiston viloyatining gazetisi"ni varaqlar ekansiz, Sattorxon Abdug'afforov, Muhiddinxo'ja qozi Hakimxo'ja qozikalon o'g'li, Hoji Muhammad Zuhur, Tojimuhammad Isamuhammad o'g'li, Saidrasul Saidazizov, Kamoliddin Qahhorov va boshqalarning sayohat taassuratlarini uzluksiz bosilib turganligining guvohi bo'lasiz. Bulardan asosiy maqsad Rossiyaning va markaziy shaharlarining sha'n-shavkatini, qudratini ko'z-ko'z qilish, mustamlaka xalqi ongiga Rossiyaga nisbatan tobelik ruhini singdirish edi.

Ularning gazeta sahifalarida e'lon qilingan safar taassurotlari bilan chuqurroq tanishar ekanmiz, zohiran, mutaassiblikni, feodal qoloqlikni keskin tanqid qilib, mustamlakachilarga ma'qul bo'ladigan tarzda Rossiya shaharlarini ko'klarga ko'tarib maqtasalar-da, rus mustamlaka siyosatining millatni ruslashtirishdek o'ta makkor, qabih siyosatiga o'z ulushlarini qo'shayotgandek ko'rinsalar-da, botinan mutafakkirlar o'z xalqini taraqqiy etgan xalqlar darajasida ko'rishni orzu qildilar. Buning uchun zamonaviy ta'lim maskanlari, hatto oliy o'quv yurtlari (oliy madrasalar) tashkil qilish kerakligini uqtirdilar. Diqqatga sazovor jihati shundaki, Sharifxo'ja qozi ham, Muhiddinxo'ja qozi ham, In'omxo'ja oqsoqol ham, Sattorxon ham 1892 yil-Toshkentda yuz bergan xalq ozodlik harakati – "Vabo qo'zg'oloni"ning rahbarlari sifatida surgun qilindilar va ta'qib ostiga olindilar. Demak, ularning xalq ongini oqartirish va shu yo'l bilan mustamlaka iskanjasidan ozod qilishga qaratilgan harakatlari chor mustamlaka siyosatiga butunlay zid edi. Arxiv xujjatlariga e'tibor bering: Sirdaryo oblasti gubernatori N.Grodekov Turkiston general-gubernatori A.Vrevskiyga 1892 yil 24 iyun voqealari bo'yicha quyidagilarni xabar qilgan: "Janobi oliylariga shuni ma'lum qilish sharafiga noilmanki, mavjud ma'lumotlarga ko'ra 24 iyun voqealariga olib kelgan harakatning eng asosiy boshlig'i va haqiqiy sababchisi eski shaharning sobiq oqsoqoli In'omxo'ja Umriyoxo'jaev bo'lgan... Mazkur yerli kishining eng yaqin sheriklari yuzboshi Ahmadxo'ja va uning qudasi Usmonxo'jadan tashqari Shayxovand Tahir dahasining qozisi Sharifxo'ja va boshqalar bo'lgan. Ana shu barcha kishilarning zararli agitatorlik ta'sirini 24 iyun voqeasi sodir bo'lgan kuniyoq bildim va ularning barchasini qamoqqa olish to'g'risida buyruq berdim"<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Давлат архиви. Фонд № 723, д. 4, 7-саҳифа.





Ma'lumki, sho'rolar davrida Furqat ma'rifatparvarligi, uning pedagogik qarashlari haqida gap ketganda, tadqiqotchilar ko'proq uning "Ilm xosiyati", "Gimnaziya", "Akt majlisi xususida", "Vistavka xususida" kabi she'rlaridan iqtiboslar keltiradilar va shoirni rus ilm-fani, madaniyati va ta'lim-tarbiya tizimini ko'klarga ko'tarib maqtovchi shoir sifatida baholaydilar. Bu bilan Furqat Rossiya O'rta Osiyoga nisbatan madaniylashtiruvchi rol o'ynadi, degan xulosaga keldi, fikrini bayon qiladilar. Albatta, bu fikr sho'rolar mafkurasi andozalari asosida aytilgan, u davrda bundan boshqacharoq fikr aytish mumkin emas edi. Bu masalani baholashda Furqatning 1889-1891 yillarda general-gubernatorlik doirasidagi mavqeini e'tibordan soqit qilish mumkin emas, u mustamlakachilar muassisi "Turkiston viloyatining gazetasi" tahririyatida Nikolay Ostroumov qo'li ostida ishlar, shuning uchun gubernatorlik doirasida bo'lgan katta yig'inlarda ham ishtirok etar edi. Uning o'sha davrning o'zbek tilidagi yagona gazetasi "Turkiston viloyatining gazetasi" sahifalarida e'lon qilingan, yuqorida nomlari tilga olingan she'r va manzumalarida, maqolalarida rus bosqini haqida, uning o'zbek xalqi boshiga yog'dirgan fojialari haqidagi o'zining ro'y-rost fikrlarini aytishi mumkin emas edi. Keyingi davrlarda, ayniqsa, mustaqillik davrida Furqatning rus bosqiniga munosabati, umrining o'n sakkiz yili g'urbatda, vatanjudolikda o'tish sabablari, Furqat ma'rifatparvarligining o'ziga xos xususiyatlari ancha haqqoniy dalillar asosida baholanmoqda. Shoirning yangi topilgan, uning to'plamlariga kirmagan ko'pgina she'rlarida Furqat "siyosati rus" tufayli "Kuffor (kofirlar) bandi ichra" qolgan bechoralar ahvoliga Ollohdan rahm-shafqat iltijo qiladi.

Buxoro amirligi va Xiva xonligi faoliyatini nazorat qilish uchun chor hukumatining siysiy agenturasi tashkil etildi. Bu bilan ularni ham ichki, ham tashqi siyosatda Rossiyaga to'la bo'ysundirdi.

Rossiya mustamlakachilik siyosati Angliya, Fransiya mustamlakachilik siyosatidan ancha farqqilar edi. Ular ichki Rossiyadan yuz minglab och-yalang'och mujiklarni o'lkaga ko'chirib keltirdilar, hosildor yerlarga, yerli aholini yashab turgan joylaridan haydab chiqarib, o'rislarni joylashtirdilar: ana shu tarzda, 1906-1913 yillarda Turkistonda 116 ta rus posyolkasi vujudga keldi. Bu posyolkalarni tashkil etgan mujiklarning 36,7 foyizi hech qanday mulksiz, 60,9 foyizi esa, hatto sariq chaqasiz kelgan edi. Bu siyosat ayniqsa sho'rolar davrida avjga chiqdi. "Kelgindi o'ris mujiklari yerli xalqqa nisbatan boy bo'lishi kerak" degan shior Rossiya mustamlakachilik siyosatining asosini belgiladi va ularga yaxshi yashash uchun hamma shart-sharoitlar yaratib berildi. Mustamlaka hukumati yerli aholini ruslashtirish, o'z nufusini o'lkada mustahkamlash, yerli aholini feodal qoloqlikda ushlab turish uchun shu o'ris kelgindilarga suyandi.

Markaziy Osiyoning Toshkent, Qo'qon, Farg'ona, Samarqand, Chimkent, Turkiston kabi shaharlarining o'ris zobitlari, yirik boshqaruv ma'muriyati xizmatchilari yashaydigan hashamatli qismi paydo bo'ldi, ularning farovon yashashlari uchun hamma sharoitlar: bog'lar, charog'on ko'chalar, teatrlar, madaniyat va ma'rifat, ta'lim-tarbiya maskanlari yaratildi. Shaharlarning bu qismiga mahalliy aholi kiritilmadi, faqat eng qora va og'ir ishlargina mahalliy aholiga ravo ko'rildi. Ota-bobolarimizning aytishlariga qaraganda, Toshkentning general fon-Kaufman xiyoboniga (hozirgi Amir Temur xiyoboni) shunday shior katta-katta harflar bilan yozib qo'yilgan ekan: "Sartam-sobakam



xodit zaprehen!". Bu hol Abdulla Qahhorning "Tomoshabog'" hikoyasida ham o'z ifodasini topgan.

1907 yilning oxirlarida Turkiston o'lkasiga sayohat qilgan, o'lkaning Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Qo'qon kabi yirik shaharlarida bo'lib, ularning yetakchi ziyolilari bilan yaqin muloqotda bo'lgan, chor Rossiyasining Turkistonda olib borayotgan dahshatli mustamlakachilik siyosatini o'z ko'zi bilan ko'rgan tatar yozuvchisi, (kelib chiqishi o'zbek) ma'rifatparvar noshiri, Peterburgda "Ulfat" gazetasining muharriri Abdurashid qozi Ibrohimov o'z esdaliklarida yozib qoldirgan edi: "Toshkand bundan nihoyat qirq yil muqaddam bir musulmon mamlakati bo'lib, bugun Rusiyaning bir viloyati va umum Turkiston ham Farg'ona va Sirdaryo viloyatlarining markazidir. Toshkand xorijda bir shahar deb tasavvur qilinsa ham, bu yerda u ikki mamlakat kabi ikki dahaga bo'lingan, bir shahar bo'lgani holda ikki xil idoraga bo'linur: ya'ni u Rusiya dahasi, ahli islom dahasi deb yuritilur. Rus Toshkandida g'oyat tartibli bino va savdo uylari, tekis uylar, elektr nurlarida sayr qilib yurishlar Ovro'poning bir namunasidir. Ammo islom Toshkandi aksincha, bundan besh yuz yil avval qanday ahvolda bo'lgan bo'lsa, hamon o'sha ahvoldadir, ilk bahorda, bahor oxirida shahar ichidagi uylardan piyoda yurib o'tishning ham iloji bo'lmay qoladi. Buni hatto so'z bilan ham ta'riflab bo'lmaydi, chunki bu yo'llarda faqat ot-ulov bilangina yurish mumkin bo'lib qoladi. Holbuki, bir shahardir. Umum aholisining asosiy qismi musulmonlardir. Daromad asosan musulmon qismidan olinur. Faqat xristian idoralariga sarf qilinur. Hokimiyat quvvati ruslarda, mamlakat daromadi va yerga egalar ham ulardir, rus qismlaridagi yo'llarga umum daromaddan pul ajratiladi, ammo islomiy qismdagilarning yo'llari nima bo'lsa bo'lsin, bir so'm ham sarflamaydi, na bir tekis yo'l, na bir chiroq bor, hech vaqo yo'q... Haqiqatni yana ham ochiq anglamoq uchun bu yerda quyidagi fikrni ko'raylik: Toshkand aholisi jami 200000 kishi hisobidan bo'lib, bulardan 18 foyizi xristianlar, boshqasi musulmonlardir. Toshkand shahar idorasida jami 72 a'zodir, bulardan 24 musulmonlar, qolganlari xristiandir. Shu holda insoniylik va tenglik, o'zaro muomala-munosabatlar qaerda qoldi"<sup>1</sup>.

Gubernatorlik o'lkada mustamlakachilik siyosatini mustahkamlash uchun ba'zi bir ma'rifiy-ma'naviy tadbirlarni amalga oshirishga kirishadi. 1870 yilda rus tilida "Turkestanskije vedomosti", 1871 yildan birinchi bor o'zbek tilida "Turkiston viloyatining gazetisi" chiqarila boshlandi. Gazetaga 1871-1883 yillarda general-gubernator tarjimoni Shohimardon Ibrohimov, 1883 yilning boshida qisqa muddat Muhammad Hasan Chanishev, 1883-1917 yillarda-34 yil uzluksiz ashaddiy missioner Nikolay Ostroumov muharrirlik qildi. Gazetada rus madaniyati, urf-odatlari, tarixi zo'r berib targ'ib etildi, bu ishda N.Ostroumov farmonbardorlik qildi. Ushbu gazetada uzoq vaqt Sattorxon Abdug'afforov, tarixchi Mulla Olim Maxdum Hoji faoliyat ko'rsatdi. Gazeta har yili Toshkentni bosib olish sanasini katta tantana bilan nishonlagan, mahalliy aholini bu "tantanali bayram" bilan tabriklagan, istilo qatnashchilari, "urush faxriylari" bilan mahalliy xalq uchrashuvlariga bag'ishlab tantanavor maqolalar e'lon qilgan.

"Turkiston viloyatining gazetisi" yerli aholini ruslashtirish siyosatida, rus urf-odatlarini, rus-tuzem maktablarini targ'ib-tashviqqilish ishida katta faoliyat ko'rsatdi.

<sup>1</sup> Abdurashid Ibrahim, 20 Asrin Boslarinda Islam Dunyasi va Japonya'da Islamiyet. Istanbul, 1987, s. 37-38.



Gazetaning umumiy siyosiy yo'nalishi haqida Ziyo Said quyidagilarni yozgan edi: "1884 yilda Turkiston general-gubernatori bo'lib tayinlangan Ruzenbaxning farmoni bilan 1885 yildan boshlab gazetaning bir tomoni ruscha bo'lib chiqadi. Buning sababini gazeta muharriri (bu vaqtlarda endi Ostroumov muharrir) bunday deb ko'rsatadi: "Chunonchi, ul baland darajalik o'tgan yil Samarqand va Farg'ona muzofotlariga borib qaytib kelgandan so'ngra men gazet muallifiga mehribon bo'lub aytib erdilarkim, Turkiston viloyatidagi bul gazetni o'quydurg'onlar va ham bir ozgina Rusiya xatini taniydurg'on odamlarg'a foyda yetkurmoqliq uchun bul gazetni keladurg'on yilda Rusiya tilida tarjima qilib chiqarilsa yaxshiroq bo'ladur deb...". Ruzenbax Turkiston general-gubernatori bo'lib belgilangandan keyin, gazeta betida "Erliklar uchun rus maktablari kerak" degan mavzuda yozilg'on maqola va xabarlar ko'rina boshlaydi. Ya'ni ruslashdirish siyosati va yerlik xalqdan chor chinovniklari hozirlar masalasi shu Ruzenbax kelgandan keyin matbuot maydonig'a yana keskinrok qo'yiladi. Bu narsa shuni ko'rsatadikim, gazetaning bir tomonini ruscha qilib chiqarish, mana shu masala tevaragida qilinayotgan ishlar va ko'rilayotgan choralarning mag'zini chaynab ko'rishdan ibratdir. Butun sarlavhalarni ruscha qo'yish (shu yillardan boshlab butun maqola va xabarlarning sarlavhalari ruscha qo'yila boradi) rus tilini umumlashtirish uchun bo'lsa kerak"<sup>1</sup>.

Mustamlakachilar o'lkaga faqat moddiy zarar keltirish bilan cheklanmadilar, uning ma'naviyatini, tilini, dinini, milliy his-tuyg'ularini oyoqosti qildilar. Qadimiy shaharlarimizdagi osori-atiqalar, noyob qo'lyozma asarlar Peterburg, Moskva shaharlariga betinim tashib ketildi. Bular orasida musulmon dunyosining muqaddas kitobi "Usmon Qur'oni" ham bor edi. Bu haqda ma'rifatparvar Is'hoqxon Ibrat quyidagilarni yozgan edi: "Hazrati Usmon, raziollohu anhu, Qur'oni qadimiy ko'fiy xati ila kitobat qildilar. Ul kalomi Ollohni sohibi Qur'on Amir Temur Kuragon Islombulni olganda xazina bo'lib, Samarqand shahriga kelturgan, o'z huzurida muhofazat qilib, favtidin so'ng Hazrat Shohizindagindlariga, andin podsho Rusiya imperatorlar oldurub, Peterburg shahrida saqlanmoqda"<sup>1</sup>.

1873 yilda general fon Kaufman Xorazm xonligini istilo qilgan vaqtda, istilochi qo'shinlari safida sharqshunos professor A.L.Kun ham qatnashgan. U istilo vaqtida qo'lga kiritilgan mingga yaqin noyob qo'l yozma kitoblarni, hujjatlarni ro'yxat qilib, ularni tasniflagan va Peterburgga olib ketgan. Ushbu qo'l yozmalar orasida Abulg'oz Bahodirxon, Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiyning o'nlab asarlari bo'lgan.

Ma'naviy obidalarimizni tashib ketishda V.V.Bartold, N.I. Veselovskiy, A.L.Kun N.Petrovskiy, A.N. Samoylovich kabi sharqshunoslarning "xizmati" katta bo'lgan. Etnograf, arxiolog Akram Asqarovning turli davrlarga mansub 14000 tanga hamda 200 dan ortiq nodir qo'lyozma asarlar kolleksiyasini Peterburgga jo'natishda N.I.Veselovskiy bosh-qosh bo'ldi. A.Asqarovning bu xizmatlarini Rossiya arxeologiya jamiyati kumush medal bilan taqdirladi. Mana shunday arzon-garov unvonlar, orden-medallar uchun ba'zi bir hamyurtlarimiz xalqimizning noyob osori-atiqalarini, o'lmas asarlar qo'lyozmalarini bosqinchilarga qo'shq'llab topshirdilar.

<sup>1</sup>Зиё Саид. Ўзбеквақтлиматбуотитарихигаматериаллар, Самарқанд-Тошкент, 1927, 22-бет.

<sup>1</sup> Ишоқхон Ибрат. Жомеъул-хутут, Наманган, "Матбааи Ишоқия", 1912 йил, 16-бет.



Toshkent shahar, Sebzor dahasi qozisi Muhiddinxo'ja Hakimxo'ja o'g'li hamda general Jo'rabek Dodxoh vafot etganda, V.V.Bartold ularning kutubxonasidagi nodir kitoblar bilan qiziqib, ayniqsa Muhiddinxo'ja qozi kutubxonasidagi jahonda yagona nusxa hisoblangan Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", noyob qo'lyozma "Tarixi Tabariy" asarlarini qanday bo'lmasin, hukumat tasarrufiga o'tkazish haqida N.Ostroumovga yozgan xatlarida qayta-qayta ta'kidlagan edi.

Noyob qo'lyozma asarlarning kelgindilar tomonidan tashib ketilishiga qarshi Orenburgda Fotih Karimiy muharrirligida chiqadigan "Vaqt" gazetasi ham katta tashvish bilan quyidagilarni yozgan edi: "Bu yerda (Turkistonda) ulkan eski asarlar ochko'z mujovur (qo'shni)lar tarafidan Ovrupa sayyohlarina yo'q-bor aqchalar barobarina va rus ma'murlarina hadya edilararak verulub bitmushdur... Aziz va nodir asarlarning bo'yla ravishda talof o'lmoqlari uchun taassuf etmoyni kimsa inson dagildir"<sup>1</sup>.

1909 yilda Orenburgda chiqadigan "Sho'ro" jurnalining 2-sonida Ahmadjon Bektemirov "Turkiston viloyati" nomli maqolasida Xiva, Buxoro, Samarqand kabi musulmon olamining yirik shaharlaridagi osori atiq va madaniyat obidalariga rus mujiklarining munosabati haqida kuyunib yozgan edi: "Tamoman muhojir ruslar kelub, yerlashub bitgandan so'ng kerakli va osori otqaga mansub shaylar yo'g'olub bitajagina shubha yo'qdur. Chunki muhojir mujik ruslar musulmonlarga nisbatan mutaassib va johillardr. Shul sababli tarixga oid o'lgan shaylar qadrsiz o'rinlarda qolajak, yoki butun-butun mahv o'lajaklardur".

Markaziy Osiyo chor Rossiyasining to'qimachilik sanoatini paxta bilan ta'minlaydigan asosiy xom ashyo bazasiga aylantirildi. Paxtaga bo'lgan ehtiyojning kun sayin oshib borishi paxta tozalash, yog', sovun zavodlarining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. O'lkada mahalliy paxtachi, zavodchi boylar, Rossiyaning markaziy shaharlari bilan aloqa qiluvchi "maskovchi" boylar paydo bo'ldi. Rus kapitalistlariga raqobat qiluvchi nisbatan ancha zaif bo'lsa-da, mahalliy burjuaziya paydo bo'ldi. Masalan, Farg'ona viloyatidagi katta-kichik 157 ta paxta tozalash zavodining 107 tasi mahalliy burjuaziya qo'lida edi. O'lkada kapitalistik munosabatlarning paydo bo'lishi bilan yaramas, o'ta salbiy illatlarni ham olib keldi. Bu illatlar mahalliy xalq axloqiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsata boshladi: mehmonxonalarda, restoranlarda iflos ishlar bilan shug'ullanish, "doim fiyon" (I.Ibrat) bo'lib yurish hollari vujudga keldi. Bu haqda akademik V.V.Bartold quyidagilarni yozadi: "Erli aholining ruslar bilan yaqinlashishi, rus tilini o'rganishi natijasida rus hayotining asosan tashqi, salbiy tomonlarini ham o'zlashtirdilar. Fahsh hayot kechirishga, vino, pivo ichishga o'rgandilar..."<sup>2</sup>. Buning ustiga, Rossiya hukumati ham mustamlaka o'lka xalqlari ma'naviyatini, diniy e'tiqodini buzish uchun aroq, vino va pivo bilan savdo qiladigan maxsus do'konlar tarmog'ini kengaytirdi, fohisha ayollarning o'lkaga oqib kelishiga katta imkoniyatlar yaratdi. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi haqida fohisha ayol Liza va restoran xodimi Artun, Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi Mariya Ostrova, Oybekning "Qutlug'qon" romanidagi restoran fohishalari obrazida Rossiyaning ushbu siyosati fosh etilgani tasodifiy hol emas.

<sup>1</sup> "Вақт" газетаси, 1907-йил, 213-сон.

<sup>2</sup> Бартолд В.В. Сочинения в девяти томах, II том (часть 2). Москва, 1963. С.345.



Mustamlakachilar mahalliy xalq urf-odatlarini, diniy aqidalarini mensimaslik yo‘lidan borib, islom dini obidalarini vayron qildilar, ular o‘rnida pravoslav cherkovlarini bunyod qildilar. Bu bilan ular Turkiston o‘lkasida insonlar ongidan islom ma‘rifatini siqib chiqarish maqsadini o‘z oldilariga qo‘ydilar. General M.Chernyaev Turkiston shahrini bosib olish jarayonida Ahmad Yassaviy maqbarasini to‘pga tutdi, to‘p izlari bitmas chandiq kabi hozir ham saqlanib qolgan. Robiya Sultonbegim maqbarasini esa vayron qilib, g‘ishtlarini kazarma qurilishiga ishlatgani ma‘lum. 1868 yilda general-gubernator fon-Kaufman boshchiligida Samarqandni bosib olgan mustamlakachilar Ulug‘bek, Tillakori, Sherdor kabi musulmon olamining dongdor madrasalarini kazarmaga aylantirdilar, otxona sifatida foydalandilar.

Asrlar davomida musulmon olamida a‘lam, muhtasib, rais kabi lavozimlar bo‘lgan. Bu mansabdorlar bozordagi narx-navoni tekshirish bilan birga, odamlarning xulq-atforini, vaqti-bevaqt ko‘cha-ko‘yda bekor yuruvchi erkagu ayolni, ayniqsa, maktab va madrasa yoshidagi yigitlarni nazorat qilib turgan, hatto jazolagan ham. Shu yo‘l bilan ichkilikbozlik, fohishabozlik, qimorbozlik kabi nopok ishlarning oldi olingan. Mustamlakachilar bu lavozimlarni bekor qildilar, bu ham millat axloqiga kuchli salbiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Rus mustamlakachilarining Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi Nizomiga ko‘ra qozilar sudi saqlanib qoldi. Bu bilan chorizm yerli xalqqa nisbatan “odil”, o‘zini yerli xalqlar “panohi” qilib ko‘rsatmoqchi bo‘ldi. Lekin davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan jinoiy ishlar qozilik sudida ko‘rish man etildi. Shu bilan birga, qozilik lavozimiga saylovlar o‘tkazishni joriy qildi. Oldin bunday mas‘uliyatli lavozimga asosan madrasani xatmi kutub qilgan, shariat, fiqh ilmidan katta ma‘lumotga ega bo‘lgan mahalliy ziyolilar xonlar, hokimlar tomonidan maxsus tekshiruv bilan tayinlanar edi. Endi esa mustamlakachilar bu lavozimni ham o‘z tasarrufiga oldilar, bu mansabga saylanish uchun poraxo‘rlik, rishvatni avjga chiqardilar, saylov ularning boyish manbaiga aylandi. Natijada, ko‘p hollarda bu mahalliy lavozimga nopok, ilmsiz odamlar saylanib qolar edi. Bu vaziyat mahalliy ziyolilarning noroziligiga sabab bo‘lar edi. Qariyb 25 yil davomida To‘raqo‘rg‘on tumanida qozi lavozimida ishlab kelgan Isqoqxon Ibrat bu haqda quyidagilarni yozadi: “Polojeniyada 223-bobida zikr qilingandurki, e‘tibori bor, yetti kundan ziyoda hibs bo‘lmagan, o‘ttiz so‘mdan ziyoda ishtaraf to‘lamagan, yoshi yigirma beshdan past emas odam (qozi) bo‘lur ekan. Olim yo omi, ahmoq yo dono kishi, yo shariat biladurgan va yoki nizom biladurgan demagan... Ko‘rasiz, kimlarni(ng) qo‘llariga bul katta shariat hukmini topshiradurlar. Fikr-andisha qiladurgan kishi yo‘q. Andisha qiladurgan odamni odam ham hisob qilmaydilar. Polojeniya bobiga muvofiq ellikboshi degan kimgaki shar ko‘b tushsa, ani yozar ekan. Na qilsunlar, bu xil qilsalar polojeniyaga muvofiq. Polojeniyada shariat biladurgan mulladan degan emas ekan. Ularga kim va nima bo‘lishi ham darkor emas ekan! Befikr o‘tasang, ey do‘st, muhtoji non o‘lursan.<sup>1</sup>

Mustamlakachilarning bunday lo‘ttibozliklarini ularning yirik mafkurachisi N.Ostroumov ham e‘tirof etib yozgan edi: “Rus ma‘muriyati yerlik aholiga saylash huquqini bergan, biroq shahar boshlig‘ining tavsiyasiga ko‘ra saylovlarni oblast gubernatori tasdiqlash (sanksiya berish) huquqini o‘zida saqlab qolgan edi. Bunda shahar

<sup>1</sup> Туркестон вилоятининг газети, 1910 й., 21 март, 22-сон.



hokimi va shaharning yerliklar yashaydigan qismining polismeysteri saylovchilar tomonidan ko'rsatilgan nomzodning shaxsiy mustaqil xarakteri bilan ajralib turmasligi, rus ma'muriyati qo'lida itoatkor qurol bo'lishi g'amini yeydilar, xolos. Agar nomzodlar orasida ma'muriyatga yoqmaydigan nomzod ko'rsatilib qolsa, biror bahona topib, uni saylashga qo'ymaydilar".<sup>2</sup>

Ma'lumki, maktab-madrasalarni asrlar davomida iqtisodiy jihatdan ta'minlovchi asosiy manba vaqf mulklari edi. Vaqf ayrim mulkdorlar tomonidan diniy va xayrli ishlarga ajratiladigan mulkdir. Unga yer-suv, tegirmon, karvonsaroy, hammom, do'kon kabi daromad keltiruvchi ko'chmas mulklar kiradi. Mustamlakachilik tartibiga ko'ra vaqf mulklari davlat tasarrufiga o'tgach, maktab-madrasalar iqtisodiy ta'minot manbaidan mahrum bo'ldilar. Vaqf mulklaridan keladigan daromadga ham mustamlakachilar egalik qila boshladilar. Mahalliy maktablarda faqat diniy ilmlargina o'qitilib, aniq fanlarni o'qimoqchi bo'lganlar ulardan elementar ma'lumot beruvchi rus-tuzem maktablarida o'qish joriy etildi. Natijada, milliy maktab yo'qqa chiqarildi. Bu hol uzoqni ko'ra oladigan o'zbek ziyolilarining noroziligiga sabab bo'ldi.

XIX asrning 80-yillaridan boshlab mustamlaka Turkiston o'lkasida yangi yo'nalishdagi ma'rifatparvarlik vujudga keldi. Bu yo'nalishning tepasida Ahmad Donish, Komil Xorazmiy, Sattorxon Abdug'afforov, Sharifxo'ja Poshshoxo'ja o'g'li, Muhiddinxo'ja Hakimxo'ja o'g'li, Xo'jajon qozi Rojiy Marg'inoniy, Jo'rabek dodxoh Qalandarqori o'g'li, In'omxo'ja Umriyoxo'ja o'g'li, Is'hoqxon to'ra Ibrat, Saidrasul Saidazizov kabi yetakchi ziyolilar va jamoat arboblari turdilar. Ular o'z amaliy va ijodiy faoliyatlarida rus tilini chuqur o'rganish, shu orqali rivojlangan Orupo madaniyati va ilm-fanini egallashga undadilar. Bu bilan ular xalqning o'zligini tanishi, oxir oqibatda mustamlaka iskanjasidan ozod bo'lish maqsadlarini ko'zladilar. Ma'rifatparvarlarning bunday faoliyati, birinchidan, mustamlakachilar siyosatiga butunlay zid bo'lib, ularning ta'qib va tazyiqlariga uchragan bo'lsa, ikkinchidan, mahalliy mutaassiblarning "Is'hoq kofir" (Is'hoqxon Ibrat), "Cho'qindi qozi" (Sattorxon Abdug'afforov), "Nasora maxzum" (Saidrasul Saidazizov) kabi dashnomlariga, bo'htonlariga duchor bo'ldi. Ammo buyuk olijanob maqsad tufayli ular har qanday to'siqlarni mardonavor yengib bordilar. Yuqorida nomlari tilga olingan mutafakkirlar mustamlaka Turkistonning yagona gazetasi "Turkiston viloyatining gazetasi"dan o'zlarining ezgu orzularini xalqqa yetkazish uchun minbar sifatida foydalandilar. Bu haqda Sattorxon Abdug'afforovning kuyunib aytgan so'zlariga e'tibor bering: "Biz tavorix kitoblaridan ko'ramizki, har bir xalqo'zlariga yaqin hamsoyalaridan har nav' ilmlarni har vaqt o'rganib va ham o'zlariga yaqin mamlakat xalqiga o'rgatib kelganlar. Ammo biz Turkiston viloyatidagi musulmon xalqi o'z ilmimizni darajali kamolga yetkurmoq ul tarafda tursun, balki burung'i ilmlarimiz hosil qilgan va oshkoro etgan kitoblarni ham aksarlarini yaxshi va toza fahmlamaydug'on bo'lub qolg'anmiz. Avvalo bizlarg'a lozimdurkim, obo va ajdodlarimizni taraddudlari birlan oshkoro bo'lung'on ilmlarni tahsil qilmoqqa ruju qilmoq. Chunki bizlarga uyat va aybdurkim, bizlarning burung'i olimlarimiz ilm bobida baland darajada turub, hatto boshqalarg'a ta'lim berib turgan bo'lsalar, bizlar hamma xalqdan ul bobda pastlik maqomida qolsak. Ikkinchi,

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Давлат архиви, 1009-фонд, 1-руйхат, 59-иш, 33-саҳифа.



mazkur maqsudni hosil qilmoqda o‘rusiya tilini bilmoqham hech bir zarar yetkurmas edi, balki foyda yetkurur erdi. Chunki o‘rusiya tilini o‘rganib, alarning kitoblarida o‘zlari topqon ilmlar va boshqa xalqdan o‘rgangan ilmlarni bizlar ham bilib, tirikchiligimizga naf‘i yetadurgan ilmlarni bizlar ham o‘z foydamizg‘a joriy qilur erduk”<sup>1</sup>.

Toshkentdagi Sebzor dahasi qozisi Muhiddinxo‘ja Hakimxo‘ja o‘g‘li chor ma’murlarining mustamlaka xalqni nodonlikda, jaholatda saqlashdek qabih siyosatiga qarshi xalq farzandlarini ilm-ma’rifatli qilish yo‘lida jonbozlik ko‘rsatdi. U rus tilini o‘qitishni yo‘lga qo‘yish maqsadida 1885 yili 3-rus-tuzem maktabi uchun maxsus bino qurib berdi. (U vaqtlarda rus-tuzem maktablarining birortasida maxsus o‘quv binosi yo‘q edi.).

Millat kelajagida aniq fanlarning buyuk ahamiyatini tushunib yetgan mashhur ma’rifatparvar Sharifxo‘ja Poshshoxo‘ja o‘g‘li XIX asrning 90-yillarida Eshonquli dodxoh madrasasi mudarrisi sifatida madrasalarda fizika fanini o‘qitish masalasini kun tartibiga qo‘ydi, fizikadan tajribalar o‘tkazish uchun fizikaviy asboblar yo‘qligini hukumat ma’muriyati doirasiga olib chiqdi<sup>2</sup>. Albatta, millat istiqbolida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bunday taklif mustamlaka ma’muriyatiga ma’qul tushmadi va e’tiborsiz qolib ketdi.

XIX asrning 80-90-yillarida faoliyat ko‘rsatgan, yuqorida nomlari tilgan olingan ma’rifatparvarlarning deyarli barchasi general-gubernatorlik e’tiboridagi turli mansablarda bo‘lgan jamoat arboblari edilar. Ular o‘z mansablaridan foydalanib, nihoyatda og‘ir vaziyatda faoliyat ko‘rsatishga, ba’zan mustamlakachilarga yon berishga majbur bo‘ldilar. Har qanday sharoitda ham o‘z xalqini jaholatdan, asriy qoloqlikdan olib chiqishga bor imkoniyatlari bilan harakat qildilar. Haqiqiy maqsadlari chor hukumati ma’murlariga ma’lum bo‘lib qolgan bu mutafakkirlar ta’qib va tazyiqlarga, qamoq va surgunlarga duchor bo‘ldilar: bunga Sattorxon Abdug‘afforov, Jo‘rabek Qalandar qori o‘g‘li, Sharifxo‘ja qozi Poshshoxo‘ja o‘g‘li, Muhiddinxo‘ja qozi Hakimxo‘ja qozikalon o‘g‘li kabilarning qismati misol bo‘la oladi. Qolaversa, mana shu ulug‘ zotlar Turkiston o‘lkasida usuli savtiya maktablarining ham birinchi tashkilotchilari va targ‘ibotchilari sifatida maydonga chiqdilar.

1898 yil Muhammad Alixon boshchiligidagi Andijon qo‘zg‘oloni va uning qonga botirilishi rus mustamlakachilarining o‘lkada yurgizayotgan siyosiy-mafkuraviy, ta’limiy-ma’rifiy faoliyatiga ba’zi bir o‘zgarishlar, qo‘shimchalar kiritishga majbur etdi. General-gubernator Vrevskiy ishdan olinib, uning o‘rniga kelgan Duxovskiy yerli aholini, diniy muassasalar – masjid-madrasalarni kuchli nazorat ostiga oldi, o‘lkadagi maktab va madrasalarning aniq ro‘yxati tuzib chiqildi. General-gubernator yordamchisi general Ivanov boshchiligida katta komissiya tekshiruv ishlarini olib bordi. Komissiyaning xulosasiga binoan yerli aholi o‘rtasida elementar ma’rifiy ishlar: ommabop ilmiy ma’ruzalar uyushtirish, Rossiyani, rus xalqini ulug‘lovchi mavzularda mahalliy tilda kitobchalar nashr etish, ko‘rgazmalar tashkil qilish va “Turkiston viloyatining gazetasi”da maqolalar berib borish kerakligi ta’kidlandi. Birinchi mana shunday ma’ruza haqida “Turkestanskie vedomosti” gazetasi quyidagilarni yozadi: “1899 yil 14 fevral yakshanba kuni erlar gimnaziyasining katta majlislar zalida 50 yillik rus

<sup>1</sup> Туркестон вилоятининг газети, 1883 йил, 15 феврал, 6-сон.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Давлат архиви, 1009-фонд, 1-рўйхат, 103-иш, 17-саҳифа.



hukmronligi davrida birinchi marta, yerli aholini Yevropa fani yutuqlari bilan tanishtirish borasida ommaviy ma'ruza bo'ldi. Soat birlarda o'lka o'quv yurtlarining bosh inspektori Kerenskiy boshchiligida o'quv muassasalarining vakillari, elikka yaqin yerli aholining eng o'qimishli namoyandalari: mudarrislar, muharrirlar, mullalar va boshqa rus tilini biluvchilar to'plandi. General-gubernatorning yordamchisi Ivanov, Sirdaryo gubernatori Korolkov, o'quv yurtlari direktorlari va boshqa rahbar shaxslar ishtirok etdi. Ma'ruza o'zbek tilida "Turkiston viloyatining gazetisi" xodimi Mulla Olim tomonidan o'qildi. Ma'ruzadan keyin general Ivanov Mulla Olimni faxriy chopon bilan qutladi va qisqacha nutq so'zlatdi. U o'z nutqida Yevropa ilmining afzalliklari, madrasalarga rus tilini kiritish haqida gapirdi. Toshkent shahri aholisi nomidan xalqqozisi Muhiddinxo'ja musulmon ilm-fani va madaniyati haqida gapirdi"<sup>1</sup>.

Ikkinchi tomondan, rus ma'murlariga ham mahalliy xalq urf-odatlarini, tilini, ayniqsa, musulmon dini qonunlarini o'rganishlari uchun ba'zi bir ishlar amalga oshirildi. Mahalliy tilni biluvchilar va o'rganuvchilar rag'batlantirildi, "Turkestanskije vedomosti" gazetasida islom diniga bag'ishlangan turkum maqolalar e'lon qilindi. Bunday tadbirlardan asosiy maqsad mustamlaka xalqqa va uning ma'naviyatiga e'tibor yoki qiziqishdan emas, aksincha, bu o'lka xalqlarini yanada asoratga solish, mustamlaka zanjirlarini mustahkamlash uchun bir vosita edi. Bu ishda V.Nalivkin, N.Ostroumov, M.Miropiev, N.Likoshin va boshqalar katta faoliyat ko'rsatdilar.

## 2. Turkiston xalqlari milliy-ozodlik harakatlari tarixshunosligi.

Hukmron tuzumga qarshi qo'zg'olonlar asosan qambag'al dexqonlar, kosiblar, hunarmandlar tomonidan amalga oshirildi. Milliy g'ururini yo'qotmagan ayrim yuqori tabaqa vakillari ham bu qo'zg'olonlarda ishtirok etdilar. 1878 yilda Mingtepada Yetimxon boshchiligida ruslarga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Biroq rus mustamlakachi hukumati katta harbiy kuchlar yordamida Yetimxon boshchiligidagi qo'zg'olonlarni bostirdi. Biroq, o'lkada rus chorizmiga qarshi qo'zg'olonlar bu bilan boshlandi deb bo'lmaydi. Bu davrda yuz bergan milliy ozodlik harakatlarini mahsus tadqiq qilgan tarixchi X.Bobobekov quyidagi bir qator qo'zg'olonlarni sanab o'tadi:

1. Qozog'iston mintaqasida 1783—1793 yillarda bo'lib o'tgan Sirim Botir qo'zg'oloni.
2. 1822 — 23 yillarda bo'lib o'tgan Julomon Tilanchi qo'zg'oloni.
3. 1836—1838 yillarda- bo'lib o'tgan Isatoy Toyman qo'zg'oloni,
4. 1837 — 1846 yillarda bo'lib o'tgan Sulton Kenasari qo'zg'oloni.
5. 1856 yilda bo'lib o'tgan Sirdaryodagi Jonxo'ja Nurmuhammedov boshchiligidagi qo'zg'olon.
6. 1868 yildagi Samarqand mudofaasi va Buxoro shahri, Shahrizabz beklklaridagi qo'zg'olonlar.
7. 1870 yilda Mang'ishloq 1rshi\*zlarining qo'zg'olonlari.
8. 1871 yilda Sirdaryo viloyatida Eshon EshMuhammad boshchiligidagi qo'zg'olonlar.
9. 1878 yildagi Mingtepadagi Yetimxon qo'zg'oloni va boshqalar.

<sup>1</sup> Туркестанские ведомости, 1899г., 18 феврал.





O'rta Osiyo xonliklari tarixining o'rganilishi turli davrlarda yuzlab ilmiy tadqiqotlarning ob'ekti sifatida chuqur o'rganilgan. Tarixshunoslikning davrlashtirishi masalalari nuqtai nazaridan qaraladigan bo'lsa, xonliklar tarixini o'rganishni ikki davrga bo'lib ko'rib chiqish mumkin. Birinchi davrni XX asr 90 yillarigacha o'lgan davr bilan, ikkinchi davrni mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar bilan belgilash mumkin.

XX asr 90 – yillarigacha bo'lgan davr mobaynida xonliklar tarixi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan va ilmiy asarlar yaratilgan.

Xonliklar tarixini o'rganish XX asr tarixshunosligida katta o'rin tutadi. Turli yillarda yaratilgan tarixiy asarlarda Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarining ana shu davrlardagi tarixini, jumladan siyosiy va iqtisodiy, ijtimoiy hayotini yoritib berishga katta e'tibor berilgan. Biroq bu vaqtgacha yaratilgan asarlarda asosiy maqsad xonliklar tarixining u yoki bu sohasini yoritib berishga qaratilgan bo'lsada, ularda masalaga yondashuvning har-xilligi e'tiborni tortadi. Bu davrda o'zbek xonliklari, jumladan, Buxoro xonligi va amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari tarixi aks ettirilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar va asarlar yaratildi. Bir qator tadqiqotchilar tomonidan Buxoro xonligi va umuman o'zbek xonliklari tarixining turli sohalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirib, monografiyalar nashr ettirgan bo'lsalarda, ulardagi xonliklar tarixini o'rganishdagi bir yoqlamalik, tarixni noxolis o'rganish va talqin qilish holatlari ustunlik qiladi. Garchi XX asrning 90-yillarigacha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va yaratilgan ilmiy asarlarda xonliklari tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar uchrasada, ularni tanqidiy o'rganish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, bu davrda bir qator shu davr tarixini yoritib beruvchi bir qator manbalar tarjima qilinib, nashr etilganki, ular yordami Shayboniylar va ashtarxoniyalar davri tarixini chuqurroq o'rganish imkoni yuzaga kelgan. Jumladan, bunday nashr etilgan manbalar qatorida Mir Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanoma", Mirzo Abdulazim Somiy "Tarixi salotini mang'itiya", Abdurahmon Tole'ning "Tarixi Abulfayzxon" asarlarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Shuningdek bu davrda bir qator ilmiy asarlar va monografiyalar ham yaratildi. Ular qatorida B.Axmedov, Z.Abdullaev, X.Ziyoevlarning tadqiqotlarini ko'rsatib o'tish mumkin. Bu asarlar va monografiyalarda o'zbek xonliklarining tarixi, tarixshunosligi, manbashunosligi, xonliklarning iqtisodiy va savdo aloqalari tarixi, tashqi siyosiy munosabatlari va davlat boshqaruviga oid masalalar yoritib berilgan.

Mustaqillik yillarida o'zbek xonliklari va Turkiston xalklarining mustamlaka davri va milliy ozodlik xarakterlari tarixini o'rganish tom ma'noda o'zining yangi bosqichiga ko'tarildi. Bu davrda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar o'zining ilmiyligi, masalaning mohiyatiga va tahliliga ob'ektivlik nuqtai-nazaridan yondashilganligi jihatlari bilan avvalgi davrlardagi tadqiqotlardan tubdan farq qiladi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan va o'zbek xonliklarini tarixining turli sohalaridagi masalalarini aks ettirgan ilmiy tadqiqotlar orasida X.Ziyoev<sup>27</sup>, G'.Axmadjonov<sup>28</sup>, D.Ziyaeva<sup>29</sup>, B.M.Bobojonov<sup>30</sup>,

<sup>27</sup> Ziyoev X. Tarix o'tmish va kelajak ko'zgesi: (Tarixning dolzarb masalalari). -T.: Adabiyot va san'at, 2000; Shu muallif: Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. -T.: Sharq, 1998.

<sup>28</sup> Axmedjanov G.A. Rossiyskaya imperiya v Sentralnoy Azii. – T.: Fan, 1995.

<sup>29</sup> D.Ziyaeva. O'rta Osiyoda harbiy ishlar tarixidan.

<sup>30</sup> Babadjanov. B.M. Kokandskoe xanstvo: vlast, politika, religiya. Tokio-Tashkent: 2010.



G.Agzamova<sup>31</sup>, Sh.Vohidov<sup>32</sup>, X.Xamidov<sup>33</sup>, Z.Ilhomov<sup>34</sup>, O.Masalieva<sup>35</sup>, Sh.Qo'ldoshev<sup>36</sup>, Sh.Maxmudov<sup>37</sup>, T.Xudoyqulov<sup>38</sup>, S.Tillaboev<sup>39</sup>, Z.Madraximov<sup>40</sup>, Y.Shukurillaev<sup>41</sup> kabi tadqiqotchilarning asarlari va ilmiy ishlarini, shuningdek bir qator fundamental ilmiy tadqiqotlarni ko'rsatib o'tish mumkin<sup>42</sup>.

### 3. Rossiya imperiyasining Turkistonda yuritgan ta'lim siyosati va uning mustamlakachilik mazmuni.

Turkistonning birinchi general-gubernatori K.P.Kaufman o'lka maorifini o'rganib chiqqach, yerli aholini ruslashtirish uchun N.I.Ilminskiy (1822-1891)ning Qozon tatarlarini ruslashtirish borasidagi faoliyatini Turkiston o'lkasiga tatbiqqilish maqsadida uni Toshkentga taklif qildi. Ilminskiy arab, fors, turk tillarini ancha mukammal bilgan, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarini 1857 yilda Qozonda nashr ettirgan turkshunos edi. U Qozon diniy akademiyasining professori, turkiy xalqlarni ruslashtirishga qaratilgan maorif tizimini ishlab chiqqan, tatarlarni ruslashtirishda katta tajriba orttirgan missioner edi. Turkiston o'lkasida ochila boshlagan rus-tuzem maktablari ham Ilminskiy tizimi asosida vujudga kelgan edi. Rossiyaning mustamlaka Markaziy Osiyo xalqlari maorifiga munosabati aniq edi: Volgabo'yi, Ural, Kavkaz, Qrimdagi turkiy xalqlar maorifi tizimiga qo'llagan ruslashtirish siyosatini Turkiston xalqlari maorifiga ham tatbiqqilish edi. Bu siyosat Rossiya maorif vazirligining 1869 yildagi nizomida ishlab chiqilgan bo'lib, bu nizom rus missionerlarining rahnomasi N.Ilminskiy faoliyati zaminida vujudga kelgan edi. Shu munosabat bilan 1869 yilda Kaufman Qozonda Ilminskiy bilan uchrashdi va uzoq suhbatlashdi. Ilminskiy Toshkentga kelmadi. Shunga qaramasdan, Turkiston general-gubernatorligi ma'murlari Ilminskiy bilan aloqani uzmadilar. 1875 yilda Kaufmanning topshirig'iga binoan Turkiston o'quv yurtlari bosh inspektori A.L.Kun (1840-1888) Ilminskiyga xat yozib, undan Toshkentda ochilajak o'qituvchilar seminariyasi direktori lavozimiga nomzod taklif qilishini, iloji bo'lsa, ko'zlangan maqsadni amalga oshirishga layoqatli mutaxassis yuborishini iltimos qiladi. Ilminskiy bu lavozimga eng munosib nomzod sifatida Qozon o'qituvchilar seminariyasi o'qituvchisi N.P.Ostroumovni (1846-1930) tavsiya qiladi.

<sup>31</sup> A'zamova G. So'nggi o'rta asrlar O'rta Osiyo shaharlarida hunarmandchilik va savdo. T.: O'zbekiston. 2000.

<sup>32</sup> Voxidov Sh. Qo'qon xonligi va Buxoro amirligida unvon va mansablar. T.: Fan, 1996. Shu muallif: Qo'qon xonligida tarixnavislik. T.Akademnashr, 2010.

<sup>33</sup> Xamidov X. XVI-XIX asrlarda yurtimiz madaniyati tarixidan lavhalar. T. Fan. 2009.

<sup>34</sup> Ilhomov Z.A. "Aliquli Amirlashkar va uning Qo'qon xonligi siyosiy hayotida tutgan o'rni". Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.2004; Shu muallif: Amirlashkar tarixi. T. 2013. Shu muallif: Qo'qon xonligi tarixshunosligining ayrim masalalari. T. 2008.

<sup>35</sup> Masalieva O. Buxoro, Xiva va Qo'qon xonligi tarixini XX asr Angliya va Amerika tarixshunosligida o'rganilishi. Tarix fan...nomzodi diss... - T., 1998

<sup>36</sup> Qo'ldoshev Sh. «Qo'qon xonligi va Sharqiy Turkiston o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar (XVIII-XIX asrning o'rtalari)» Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.2009.

<sup>37</sup> Maxmudov Sh. Qo'qon xonligi siyosiy tarixi. Tarix fan nomz ilm dar .... diss. T. O'zR FA TI, 2010.

<sup>38</sup> Xudoykulov T.D. XIX asrda Qo'qon xonligining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti: Tarix fan. nomz. ...diss. - Toshkent: Uz MU, 2009. - 172 b.

<sup>39</sup> Tillaboev S. Turkiston o'lkasining ma'muriy boshqaruv tizimida mahalliy aholi vakillarining ishtiroki. T. "Fan". 2008.

<sup>40</sup> Madraximov Z. Qo'qon xonligida savdo munosabatlari. T. "Yangi nashr". 2014.

<sup>41</sup> Shukurillaev Yu.A. Buxoro amirligida qo'shin va harbiy ish (1753 – 1920 yillar). Tarix fan nomz ilm dar .... diss. T. 2006.

<sup>42</sup> O'zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakasi davrida. T. Sharq, 2000; Istoriya Uzbekistana (XVI- pervaya plovina XIX veka). -T.; "Fan", 2012



N.Ilminskiy general-gubernator Kaufman taklifini yerda qoldirmadi: Rossiya imperiyasi manfaatlar uchun bir yo'la o'zining eng ishonchli shogirdlari va izdoshlari N.P.Ostroumov, M.A.Miropiev, N.A.Voskresenskiy, I.M.Sofiyskiylarni Toshkentga yubordi. Ularning hammasi 1879 yilda ochilgan Turkiston o'qituvchilar seminariyasida ishladilar va o'zlarini ustozlari Ilminskiy e'tirof etgan Turkistondagi pravoslav dinining missionerlari sifatida harakat qildilar. Bu seminariya o'lkada birdan-bir o'qituvchilar tayyorlaydigan o'quv muassasasi edi. Uning birinchi direktori etib Ostroumov tayinlandi, 1883 yildan 1901 yilgacha boshqa ishga o'tganligi munosabati bilan Miropiev, Voskresenskiy, Sofiyskiylar galma-galdan rahbarlik qildilar. 1901-1917 yillar davomida yana Ostroumov rahbarlikni o'z qo'liga oldi. Umuman, seminariyada Ilminskiyning missionerlik ruhi – buyuk davlatchilik shovinizmi hukmron edi. Tashkil etilajak rus-tuzem maktablari uchun missionerlik ruhi bilan sug'orilgan o'qituvchilar tayyorlash seminariyaning asosiy maqsadi edi. 1879 yilda seminariyaning tantanali ochilishida Turkiston o'quv yurtlari bosh inspektori A.L.Kun quyidagilarni ta'kidlagan edi: seminariyada yerli aholi bolalari ham o'qitiladi, ammo musulmon dini o'qitilmaydi.

N.Ostroumov va u bilan kelgan hamtovoqlari umrlarining oxirigacha Ilminskiy o'gitlariga amal qildilar. Ilminskiy Ostroumov haqida quyidagilarni yozadi: “U (N.Ostroumov) Qozon diniy akademiyasi kursini tugatgan, u yerda tatar va arab tillari bo'yicha mening o'quvchim bo'lgan, Muhammad dini ta'limoti, “Qur'on” bilan yaxshi tanish. U qalban, shu bilan birga, ilman missioner. Mening ma'rifatli do'stim Ostroumov missionerlikni insonparvarlik asosida faqat xalq maorifidagina mustahkam asosga qo'yish mumkinligini yaxshi tushunadi”<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, ilohiyot magistri, Qozon diniy akademiyasining missionerlik bo'limi dotsenti N.Ostroumov Ilminskiyning o'ng qo'li edi. Ostroumov ancha bilimli sharqshunos bo'lgan, ammo bu bilim, akademik I.Yu.Krachkovskiy ta'biri bilan aytganda “ilmga emas, siyosatga xizmat qildi”. Ostroumov umrining oxirigacha rus kolonizatorlarining o'ta qabih – o'lka xalqlarini ruslashtirish siyosatini og'ishmay amalga oshirdi. Uning 1883 yilda oshkora yozgan quyidagi so'zlari Rossiya mustamlakachilarining Turkiston maorifi sohasida amalga oshirgan siyosati mohiyatini to'la ifodalaydi: “Ruslarning musulmonlarga bo'lgan munosabatini belgilashda davlat ushbu masalalarni e'tibordan soqit qilmasligi kerak: musulmonlar ta'limiga munosabatda o'zimizning manfaatlarimiz birinchi o'rinda turmog'i kerak. Biz musulmonlarga nisbatan har jihatdan – faqat jismoniy jihatdan emas, ayniqsa, ma'naviy-axloqiy jihatdan ustunlik mavqeiga ega bo'lishimiz kerak”<sup>2</sup>.

Ammo rus mustamlakachilari bunday ruslashtirish siyosatini amalga oshirish jarayonida ma'lum to'siqlarga duch keldilar. O'lkada rus bosqinchilariga qarshi davom etayotgan isyonlar, xalq ozodlik harakatlari, mahalliy ziyolilar, shariat-din peshvolarining noroziliklari ularning nihoyatda ehtiyotkorlik bilan ish olib borishlarini taqozo qilar edi. Hatto fon-Kaufman va uning atrofidagilar bu siyosatni asta-sekinlik bilan olib borish tarafdori edilar. Shu maqsadda eski mahalliy maktab va madrasalarni e'tiborsiz holicha qoldirish, mahalliy aholi bilan ziddiyatga bormaslik uchun diniy aqidalarga qattiq

<sup>1</sup> Знаменский П.В.. Участие Н.И.Илминского в деле иногородческого образования в Туркестанском крае. Казан, 1900. С.46.

<sup>2</sup> Остроумов Н. Что такое Коран? Ташкент, типография арендуемая Ф.В.Базилевский. 1883 г. С.31.



tegmaslik, aksincha, diniy mutaassiblikni qo'llab-qo'ltiqlash siyosatini olib bordi. Mahalliy aholi bolalari uchun rus maktablari tashkil qilish, ona tilini rus alifbosi asosida olib borish, milliy madaniyat, milliy ma'naviyat va adabiyot bo'yicha iloji boricha ma'lumot bermaslik, mahalliy millat bolalarini o'z tarixidan uzoqda saqlash masalalarida Kaufman bilan Ilminskiy qarashlari juda mos kelar edi.

1870-1880-yillarda Turkiston o'lkasida mustamlakachilik siyosatini mustahkamlash, Rossiya imperiyasiga, general-gubernatorlikka sidqidildan xizmat qiluvchi kichik amaldorlar toifasini tarbiyalab yetishtirish, o'lkada Rossiyaning ruslashtirish siyosatini rejali ravishda amalga oshirish uchun dastlab rus, keyinroq rus-tuzem maktablari ocha boshladilar. O'zbek ma'rifatparvarlari, pedagoglari dastlabki pallada rus va rus-tuzem maktablarini qo'llab-quvvatladilar, o'zlari ham katta sa'y-harakat bilan bunday maktablarni ochishga bosh-qosh bo'ldilar. Sattorxon Abdug'afforov, In'omxo'ja oqsoqol, Sharifxo'ja qozi, Zokirjon Furqat, Muhiddinxo'ja qozi, Saidrasul Saidazizov, Rojij Marg'inoniy, Komil Xorazmiy, Is'hoqxon to'ra Ibrat kabilar bunday maktablarning homiylari, o'qituvchilari, hatto faxriy nozirlari ham bo'ldilar. Buning ob'ektiv sabablari bor edi.

O'z xalqini zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan bahramand qilish, madrasa dasturiga fizika ilmini kiritish, madrasada fizikadan o'quv laboratoriya tashkil qilish uchun kurash olib borgan va bu masalani general-gubernatorlik darajasiga olib chiqqan Shayxovand Tahur dahasi qozisi Sharifxo'ja Poshshoxo'ja o'g'li rus tilini o'rganish masalasiga ham alohida ahamiyat bilan qaradi. Bu haqda tarixchi-sharqshunos A.I.Dobromislov quyidagilarni yozadi: "1884 yilning 19 dekabrda shaharning mahalliy aholi yashaydigan qismida yerliklarning bolalariga ruscha savodni, o'qish-yozishni hamda arifmetikadan to'rt amalni o'rgatish uchun dastlabki rus-tuzem maktabi (Turkiston o'lkasida ochilgan birinchi rus-tuzem maktabi) ochildi. Bu maktabning ochilishida katta qiyinchiliklar ro'y berdi va faqat Shayxovand Tahur daha qozisi Sharifxo'ja tufayligina ochildi. Sharifxo'ja ikki o'g'lini, ikki yoki uch nevarasini, uch jiyani va boshqa yaqin qarindoshlarini shu maktabga berdi"<sup>1</sup>.

Usuli hijo metodiga asoslangan mahalliy ibtidoiy maktablar ilm-ma'rifatdan shu darajada yiroq ediki, xalq bolalari bir necha yil o'qish davomida zo'r-bazo'r oddiy savodga ega bo'lar edilar ("Mehrobdan chayon" romanidagi Solih Mahdum maktabini, S.Ayniyning "Eski maktab", Mo'minjon Muhammadjon o'g'li – Toshqinning "Eski maktab turmushi yoki Tolib" asarlarini eslang). General-gubernatorlik mahalliy xalq maorifini rivojlantirishni xayoliga ham keltirmadi, faqat hukumat tasarrufidagi rus va rus-tuzem maktablariga juda kam miqdorda mablag' ajratardi, xalos. Bulardan tashqari, eski mahalliy maktablardagi birgina ruhoniyy ta'lim-tarbiya bilan Vatanni olg'a rivojlantirib bo'lmas edi. O'zbek mutafakkirlari rus-tuzem maktablarini tirk'ib-tashviqqilar ekanlar, faqat millat manfaatlarini ko'zda tutdilar.

O'zbek shoirlaridan Rojij Marg'inoniy ham shahar qozisi sifatida Marg'ilonda ochila boshlagan dastlabki rus-tuzem maktablarini qo'llab-qo'ltiqlagani haqida, bu maktabning xalq uchun keltiradigan foydalari haqida "Turkiston viloyatining gazetisi"da ma'lumot beradi: "Andin keyin hurmatlu domullo Xo'jaxon qozi mazkur maktab

<sup>1</sup> Добромислов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем.. Ташкент, 1912. С.203.



xonani(ng) fuqarolarg'a bo'ladurg'on foydalarini bayon etib, fuqarolar chin ko'ngullari bilan xursand bo'lib, bolalarini berganlari to'g'risida izhori arz qildilar"<sup>1</sup>.

O'zbek ma'rifatparvarlari mahalliy yoshlarning rus va rus-tuzem maktablarida rus tilini mukammal o'rganishi jahon ilm-fani yangiliklarini egallash uchun katta imkoniyatlar yaratuvchi vosita deb bildilar. Bu esa oxir-oqibatda millatning o'zligini tanishga olib kelar edi. Ularning bunday faoliyati chor ma'murlari olib borayotgan siyosatga butunlay zid edi. Shuning uchun ham ismi-shariflari yuqorida tilga olingan ma'rifatparvarlar umr bo'yi ta'qib va tazyiqlardan qutula olmadilar. Bu davrda xalq farzandlari uchun zamon talablariga nisbatan javob bera oladigan boshqa durustroqo'quv muassasasi yo'q edi. Bu haqda Sattorxon Abdug'afforovning kuyunib yozgan so'zlariga e'tibor bering: "O'rusiya tilini o'rganib, alarning kitoblarida o'zlari topkan ilmlar va boshqa xalqdin o'rgangan ilmlarini bizlar ham bilib, tirikligimizga nafi yetadurgan ilmlarni bizlar ham o'z foydamizga joriy qilur edik...Men har vaqtda musulmonlarni o'z foydamiz uchun rusiya tilini o'rganmoqlikning zarur ekanligini bayon qilur edim. Ul vaqtlarda Xo'qand xalqi o'shandoq ulug' ishning foydasini chandoni fahmlamas erdilar. Zu'mhol (mutaassib) mullalar ham mening hayriyatimni qilmas edilar. Alarg'a barcha yangi tartiblar begona va vahshiy ko'rinur edilar. Alar ul ahvollarda darvoqe' yaxshi va yomonni(ng) farqiga bormas edilar"<sup>2</sup>.

Ba'zi bir tadqiqotchilar, tarixchi olimlar mustamlakachilar tomonidan ochilgan bu maktablarni qo'llab-quvvatlagan, o'zbek farzandlarini ushbu maktablarga da'vat etgan mahalliy ziyolilarni qattiqqoralaydilar, hatto sotqinlikda ayblaydilar<sup>1</sup>. Ota-bobolarimiz bo'yniga bunday og'ir, ammo noo'rin ayblarni qo'yishdan bir oz bo'lsa-da, o'zimizni tiyishimiz kerak!

Agarda In'omxo'ja oqsoqol, Sharifxo'ja qozi, Muhiddinxo'ja qozilar rus bosqinchilarining malaylari yoki ularga sotilgan bo'lganlarida, 1892 yil Toshkentda yuz bergan milliy ozodlik harakatining-"Vabo qo'zg'oloni"ning rahbarlari sifatida ta'qib qilinib, Toshkentdan badarg'a-surgun qilinaridilar?! General-gubernatorlikning muassisi "Turkiston viloyatining gazetini"ning 1883-1892 yillarda muharrir yordamchisi va tarjimoni Sattorxon Abdug'afforov shu xalq ozodlik harakati tufayli umrining so'nggi 8-9 yilini ishsizlikda, darbadarlikda o'tkazarmidi?!

Xonliklar davrida va undan keyin ham ilm-ma'rifatdan bebahra bo'lib kelayotgan xalq taqdiri o'zbek ziyolilarini qattiq tashvishga solayotgan edi va rus hamda rus-tuzem maktablaridan o'z xalqi manfaatlari yo'lida – mahalliy aholi farzandlarini ilm-ma'rifatli qilish yo'lida foydalanishga, ularni chor hukumatining qabih niyatlariga zid keladigan yo'lga asta-sekinlik bilan burib yuborishga harakat qildilar va bunga qisman bo'lsa ham erishdilar. To'g'ri, bu maktablar mahalliy aholidan yuksak malakali mutaxassis yoki keng ma'lumotga ega bo'lgan kishilarni tarbiyalab yetishtirish maqsadini o'z oldiga qo'ygan emas, bunday bo'lishi mumkin ham emas. Akademik V.V.Bartold ma'lumot berishicha, u yerdagi o'qitish shu darajada sayoz ediki, buni hatto rus ziyolilari ham e'tirof etar edilar: "Viloyatdagi rus-tuzem va sof ruscha maktablardan hech biri ruscha yozish u yoqda

<sup>1</sup> "Turkiston viloyatining gazetini". 1888 y., 31 dekabr.

<sup>2</sup> "Turkiston viloyatining gazetini", 1890 yil, 32-son.

<sup>1</sup> Sh.Karimov, R.Shamsuddinov. Turkiston Rusiyo bosqini davrida. "Meros", Andijon, 1995 yil, 90-91-betlar.



tursin, hatto to'g'ri o'qiy oladigan birorta ham mahalliy xalq kishisini yetishtirgani yo'q"<sup>1</sup>.

Rus-tuzem maktablarida o'qitish saviyasining bu darajada past ekanligining asosiy sabablaridan biri maktab iqtisodiy bazasining nihoyatda nochor ahvolda ekanligidir. Davlat har bir rus-tuzem maktabining barcha harajatlari uchun bir yilga bor-yo'g'i 700 so'm ajratar edi, xolos. Bunday maktablarning ko'pi maxsus maktab uchun qurilgan binoga ega emas edi, balki badavlatroq kishilarning ijaraga olingan hovlisiga yoki uyining 2-3 ta ortiqcha xonasiga joylashgan edi. Bulardan tashqari, ruscha va o'zbekcha sinf o'qituvchilari deyarli baravar ishlashlariga qaramay, o'zbekcha sinf muallimiga juda oz miqdorda maosh berilar edi, ya'ni rus o'qituvchisining bir yillik maoshi 1000 so'm, o'zbek o'qituvchisining bir yillik maoshi 400 so'm edi.

Shuning uchun ham bunday o'quv yurtlari rahbarlari hukumat ma'muriyati oldiga o'zbek sinflari muallimlari maoshlarini oshirish masalasini qo'ygan edilar. 1887 yilda Farg'ona va Samarqand viloyatlari xalq maktablari nazoratchisi P.V.Prilejaev o'z hisobotida quyidagi fikrlarni bayon qilgan edi: "Mukofot uchun belgilangan 100 so'mni mullaning maoshiga qo'shib berish ma'quldir. Ana shundagina mullaning bir yillik maoshi 220 so'm bo'ladi. Shunday qilinsa, bu vazifaga eng yaxshi kuchlarni jalb etishga imkoniyat tug'iladi. Aks holda yaxshi mullalar moddiy jihatdan ko'proq ta'minlaydigan madrasani tashlab, oz haq to'laydigan rus maktablarida ishlashga u qadar muhtoj emas"<sup>2</sup>.

Ba'zi joylarda rus-tuzem maktabi ochish, uning zarur ehtiyojlari uchun mahalliy aholidan pul (shkol puli) yig'ar edilar.

Rus-tuzem maktablari davlat e'tiboridan shu darajada uzoq ediki, bu maktablarning o'zbek guruhlarini darslik bilan ta'minlash masalasi 30 yildan keyin hal etildi. Rus va rus-tuzem maktabi dastlab 1873 yilda Chimkentda ochilgan bo'lsa, bunday maktablar uchun atoqli mutafakkir Saidrasul Saidazizov "Ustodi avval" alifbo darsligini 1902 yilda nashr ettirdi. Rus guruhlar uchun esa S.Grameniskiyning "Pervaya kniga dlya chteniya", "Vtoraya kniga dlya chteniya", "Tretya kniga dlya chteniya" darsliklari 25 yildan keyingina yaratildi.

Bularning hammasi tasodifiy hol emas, aksincha, rus siyosatdonlarining ehtiyotkorlik bilan, o'ylab amalga oshirgan tadbirlari edi. Chunki Ilminskiy o'z gumashtalariga shunday ta'lim berar edi: "Erli xalq orasida bizning uchun foydali va hech bo'lmaganda, zararsiz kishilar ruscha tilni tutilib, uyaliq gapiradigan, ruscha yozganda birmuncha xato bilan yozadigan, bizning gubernatordan emas, hatto stol boshlig'i (mirzo)mizdan ham qo'rqadigan kishilar bo'lishi lozim"<sup>1</sup>.

Lekin shunga qaramasdan, o'zbek ma'rifatparvarlik harakatining atoqli namoyandalari, istiqlol, milliy ozodlik uchun kurashgan, jadidchilik harakatida faol ishtirok etgan mutafakkirlar Saidrasul Saidazizov, Nozimxonim, Hamza, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Botu, Mirmulla hamda Mirmuhsin Shermuhamedov va boshqalar shu rus-tuzem maktablaridan yetishib chiqdilar.

<sup>1</sup> Bartold V.V. Istoriya kulturnoy jizni Turkestana. Leningrad, 1927. S.308.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi. 47-fond, 281-delo, 390-bet.

<sup>1</sup> "Pismo N.I.Ilminskogo k ober-prokuroru Svyateyshego Sinoda K.P.Pobedonossevu". V kn. Musulmanskie deputato' Gosudarstvennoy dumo' Rossii 1906-1917 gg. Ufa, 1998 g. S.120.



Hatto Rossiya imperiyasi davrida ham, sho'rolar imperiyasi davrida ham umri qamoqlarda o'tgan, Turkiston Muxtoriyati hukumatining raisi o'rinbosari advokat Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev ham rus-tuzem maktabini tugatgan. Ma'lumki, Sattorxon Abdug'afforov 1873 yilda Chimkentda ochilgan ilk rus maktabining birinchi o'zbek o'qituvchisi edi. XIX asrning 80-yillaridayoq rus-tuzem maktablarining asl mohiyatini juda to'g'ri tushungan, uning mustamlakachilik, shovinistik mohiyatini, yerli aholini ruslashtirishga qaratilgan siyosatini ochiq fosh qilgan, ushbu maktabni milliy tarbiya zaminida o'zgartirish, asta-sekinlik bilan mustamlakachilar niyatiga zid yo'lga solib yuborish usullarini ishlab chiqqan edi. 1883 yilda Toshkentda Turkiston o'lkasidagi rus o'quv yurtlari muallimlarining 1- qurultoyida Qo'qon shahridagi rus maktabining faxriy noziri sifatida Sattorxon ham ishtirok etdi (Sattorxon Abdug'afforov 1878-1886 yillarda Qo'qondagi rus maktabining faxriy noziri lavozimida ishlagan). U ushbu qurultoyda chor ma'murlarining mahalliy aholini majburan ruslashtirish siyosatini keskin qoraladi va rus maktablariga mahalliy til va musulmon dinidan dastlabki ma'lumot beruvchi muallimlar jalb qilish kerakligini ta'kidladi: "Rus maktablariga musulmon muallimi kiritilib, unga yerliklarning bolalarini mahalliy tilga, joyiga qarab, sart yoki qirg'iz tiliga o'rgatish hamda musulmon dinidan boshlang'ich ta'lim berish vazifasi yuklatilsa, u vaqtda mahalliy kishilarning bu maktabga nisbatan hammaga ma'lum va hamma ta'kidlayotgan ishonchsizligi tugatilgan bo'lur edi"<sup>1</sup>.

Turkistondagi rus va rus-tuzem maktabining birinchi o'zbek o'qituvchisi Sattorxon Abdug'afforovning bu oqilona fikrlari qurultoy raisi, ruslashtirish siyosatining Turkiston o'lkasidagi ashaddiy namoyandalaridan biri M.A.Miropievning keskin qarshiligiga uchradi. U Rossiya maorif vaziri D.A.Tolstoyning "Turkiston o'lkasidagi davlatga qarashli maktablarda musulmon dini ham, musulmon tili ham o'qitilmasligi kerak" degan nizomiga yopishib olgan holda Sattorxonga qarshi o'zining shovinistik qiyofasini ko'rsatuvchi, umuman, rus ma'murlarining Turkiston xalqlarini ruslashtirish siyosatini ifodalovchi quyidagi fikrini bayon qilishdan uyalmadi: "O'z dinida mutaassiblikning mavjudligini inkor qiluvchi musulmonlarga ishonmaslik kerak"<sup>1</sup>.

Sattorxon Abdug'afforov Chimkentda ilk bor ochilgan rus maktabida o'qituvchilik qilgan, Qo'qonda rus maktabining faxriy noziri bo'lib ishlagan yillarda mahalliy aholi o'rtasida rus tilini o'rganishga da'vat etishdek, xalq farzandlarini rus-tuzem maktablariga ko'proq jalb etishdek muhim masalaga bosh bo'lish bilan birga, birinchi o'zbek jurnalisti, publitsisti sifatida xalqni nodonlikda saqlashga qaratilgan mustamlakachilarning munofiq siyosatini, mutaassiblarning johilligini ochib tashlovchi turkum maqolalar bitdi. Shu ma'noda uning "Bir chimkentlik musulmon o'tgan vaqtlarni yodig'a olib yozgani"<sup>2</sup> turkum maqolalari muhim ahamiyatga ega.

Gubernatorlik ma'murlari rus-tuzem maktablarida islohot o'tkazib, uning o'zbek sinflaridagi ta'lim-tarbiya ishlarini bir oz bo'lsa-da, milliylashtirishdan V.V.Bartold so'zi bilan aytganda: "Mahalliy xalqqa o'z ona tilida ko'proq ma'lumot berishdan va bu bilan

<sup>1</sup> "Протокол заседаний собрания учителей городских училищ Туркестанского края (30G'XII-1883-3G'I 1884)". Ташкент. С.17.

<sup>1</sup> Ўша жойда, 18-бет.

<sup>2</sup> Туркiston вилоятининг газети". 1890 й., 6, 8, 16, 19, 24-сонла



mahalliy xalqni ruslashtirish ishiga zarar yetkazib, mahalliy adabiyot va madaniyatning qattiqo'rnashib qolishidan qo'rqar edilar"<sup>3</sup>.

Rus-tuzem maktablarining ochilishiga rus ma'murlari, missionerlarining o'zlari katta shubha va hadik bilan qaradilar, rus ma'murlarini bunday maktablarga yerli aholi farzandlarini jalb qilish katta tashvishga soldi. Bu maktablarni ochishdan rus ma'murlarining ko'zda tutgan maqsadlaridan qat'i nazar, yerli aholining ko'zi ochilishi mumkin, degan tashvish ularni bezovta qilgan, hatto bunday maktablarni ochmaslik, yerliklarni iloji boricha ma'rifatdan, ma'naviyatdan uzoqda saqlash kerakligini qayta-qayta ta'kidlovchilar oz emas edi.

O'zbek, fors, arab tillarini, adabiyotini ancha mukammal bilgan, o'zbek mutafakkirlari Havoiiy – Umidiy, Xo'jajon qozi Rojiiy, Furqatlar bilan yaqin aloqada bo'lgan, sharqqo'lyozmalaridan katta kolleksiya vujudga keltirgan va Sankt-Peterburg Sharqqo'lyozmalari institutiga topshirgan, 20 yil davomida Rossiyaning Qoshg'ardagi bosh konsuli lavozimida ishlagan, missioner N.Ostromovning yaqin hammaslagi N.Petrovskiy rus va rus-tuzem maktablarining ochilishiga keskin qarshi chiqqan edi. U 1887 yil 23 iyunda N.Ostromovga yo'llagan maktubida Turkiston o'lkasida birin-ketin ochilayotgan rus va rus-tuzem maktablaridan tashvishlanib, quyidagilarni yozadi: "Hamma yerda musulmonlar uchun ochilayotgan maktablar (rus-tuzem maktablari ko'zda tutilmoqda) nima o'zi? Ma'nilik ishmi yoki behuda ishmi? Xo'jako'rsingami yoki jiddiy narsami? Bilishni istardim. Birinchisi to'g'ri bo'lsa kerak, degan xavotirdaman. Agar maktablar oldindan ko'zlangan maqsadsiz, oqibati nimaga olib kelishini o'ylamasdan ochilayotgan bo'lsa, ularni ochmaslik ma'qul. Keyin borib pushaymon bo'lib qolmaylik".

Rus bosqinchilarining bu faoliyati XIX asrdayoq rus siyosatdonlari tomonidan rejalashtirilgan edi. Bu haqda Rossiya maorif vaziri D.A.Tolstoyning 1870 yilda yozgan so'zlariga e'tibor bering: "Bizning vatanimizda yashovchi barcha begona (rus bo'lmagan) xalqlarning ma'lumotli bo'lishining oxirgi maqsadi, shubhasiz, ularni ruslashtirish va rus xalqi bilan birlashtirishdan iborat bo'lishi kerak"<sup>1</sup>.

Rus-tuzem maktablarining o'ta reaksiyon mohiyatini hatto rus siyosatdonlarining o'zlari ham e'tirof etganlar. Turkistonda 43 yil faoliyat ko'rsatgan, rus-tuzem maktablarining tashkilotchisi va birinchi o'qituvchisi V.P.Nalivkin (1852-1918) so'zlariga e'tibor bering: "O'lkada rus-tuzem maktablari deb nomlanuvchi, o'ta foydali deb bilgan muassasalar tarmog'ini kengaytirishga qaratilgan proektni amalga oshirishga kirishganimizga 20 yildan oshdi. Bu sohada biz qo'limiz bilan bo'lmasa-da, ammo bizning xohishimiz bilan juda ko'p iflos va axloqqa zid ishlar amalga oshirildi. 20 yil davomida bu maktablardan bir necha ming mahalliy bolalar chiqdi: ularning bir qismi maktabni bitirmay qochib ketdi, qochib ketyapti. Natija shu bo'lyaptiki, ulardan na rus hukumati uchun, na mahalliy jamiyat uchun biror foydali ish chiqayotgani yo'q, menimcha, chiqmaydi ham"<sup>2</sup>.

Ismoilbek Gasprali 1881 yildayoq "Rusiya musulmonligi" asarida rus-tatar maktablarining (Turkiston o'lkasidagi rus-tuzem maktablarining Tatariston va Qrimdagi

<sup>3</sup> В.В.Бартолд. Ўша асар, 134-бет.

<sup>1</sup> В кн. Аграрный вопрос и крестьянское движение 50-70 гг. XIX века. Част I. М.-Л., 1936 г. С.285.

<sup>2</sup> Наливкин В.П. Туземцы ранше и тепер. Газета "Туркестанский курер", 1913, № 38.





ko'rinishi) o'qish-o'qitish, ta'lim-tarbiya metodlaridan tortib, maqsad-maslagigacha keskin fosh etgan edi: "Tatarlar uchun ochilgan rus maktablari o'lik tug'ilgan muassasaning o'zginasidirki, buni ushbu maktabning nazariyasi va amaliyoti yaqqol isbotlab turibdi"<sup>3</sup>. Bunday maktablar o'lkada yil sayin ko'payib, 1917 yilda 167 ga yetgan edi.

Ilminskiy tizimi asosida ochilgan maktablarning ruslashtirish mohiyatini deputat G.Sh.Enikeev 1908 yilda Rossiya Davlat Dumasi minbaridan turib tanqid qilgan edi: "Janoblar! Musulmonlar hozirgi vaqtda adolat, insoniylik tuyg'ulari bilan Davlat dumasidan talab qiladilar: missionerlik maorif sohasidan olib tashlansin, ruslashtirish tizimi bekor qilinsin, maktablar aql-idrokka, pedagogik zaminga asoslansin. Biz bu o'rinda Maorif vazirligi tomonidan musulmonlar uchun Ilminskiy tizimi asosida tashkil qilingan maktablar haqida gapiryapmiz. Bu maktablar hech qachon musulmon aholisining e'tiborini ham, ishonchini ham qozona olmaydi, chunki ular maorifning tub maqsadlariga xizmat qilmaydi"<sup>1</sup>.

Mana shunday o'ta og'ir sharoitda o'zbek mutafakkirlari rus-tuzem maktablarini o'z maqsadlariga bo'ysundirishga harakat qildilar. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Saidrasul Saidazizov (1866-1933) XIX asrning 80-90-yillarida yetishib chiqqan, 1-rus-tuzem maktabini bitirgan va unda muallimlik qilgan, o'zbek pedagogikasi tarixida usuli savtiya metodiga asoslangan "Ustodi avval" birinchi barqaror alifbo darsligini yaratgan, o'zbek pedagoglari orasida o'quv-tarbiya sohasida dastlabki islohat o'tkaza olgan metodist-olim hamdir. Uning "Ustodi avval" alifbo darsligi ta'sirida XX asrning birinchi choragida tovush metodiga asoslangan jadid maktablari uchun o'ndan ortiq alifbo darsliklari yaratilgani ma'lum. Saidrasul Saidazizovning bu faoliyati mahalliy mutaassiblarning keskin qarshiligiga uchradi, ular mutafakkirni "nasoro maxzum" ("kofir maxzum") deb jar soldilar. Shunga qaramasdan, muallifning ushbu darsligini XX asr pedagoglari katta mamnuniyat bilan kutib oldilar, u rus-tuzem maktablaridan tashqari, usuli qadim va usuli jadid maktablarida ham keng qo'llana boshladi. Bu haqda "Turkiston viloyatining gazetasi" da e'lon qilingan maqolalarda, Mo'minjon Muhammadjon o'g'li – Toshqinning "Turmish urinishlari" asarida yaqqolroq ko'rish mumkin.

Rus-tuzem maktablarining o'zbek guruhlarida ta'lim-tarbiya xuddi eski maktablardagi kabi ibtidoiy sharoitda qolib kelmoqda edi. Rus sinflarida belgilangan dars soatlarini o'tib bo'lishlari bilan o'quvchilar qo'shni xonaga – o'zbek sinfi o'qituvchisi ixtiyoriga o'tadilar. O'zbek o'qituvchisi mahalliy eski maktabda o'qitiladigan hamma fanlardan dars beradi. O'zbek o'qituvchisining darsi davomida rus o'qituvchisi singdirishga harakat qilgan hamma narsa bekorga ketadi. O'zbek sinfidagi sharoit xuddi eski maktablardagidek: o'quvchilar rus sinfida partalarda o'tirsalar, o'zbek sinfida kigiz yoki namat ustida o'tiradilar; hech qanday darslik, o'quv jihozlari, o'quv qo'llanma yo'q, dars eski usulda arabcha diniy matnlarni quruq yodlash asosida olib boriladi. Rus-tuzem maktablarining o'zbek sinflarida (Saidrasul Saidazizovning "Ustodi avval", Bayramali Kalinning "Muallimi soniy" asarlari chiqqunga qadar) maxsus dastur, darslik yoki o'quv qo'llanmalar, hatto predmetlarning nomlari ham ko'rsatilmagan.

<sup>3</sup> Исмоил бей Гаспринский (Гаспралў). Из наследия. Симферопол, "Таврия", 1991 г. С.42.

<sup>1</sup> Мусулманские депутаты Государственной думы России 1906-1917 гг. Уфа, 1998 г. С.120-121.



1892 yildan e'tiboran Sirdaryo viloyat xalqo'quv yurtlari inspektori lavozimida ishlagan S.M.Grameniskiy rus-tuzem maktablarida o'qitish usullarini birmuncha isloh qilishga harakat qildi. Bu maktablarda o'qitishdagi o'zbekcha so'zlarni ruscha transkripsiyada berishga asoslangan N.Ilminskiy tarjima metodining yaroqsizligini, shuning uchun ham rus-tuzem maktablari o'zbek xalqi o'rtasida e'tibor qozona olmaganligini ta'kidlaydi.

Ilminskiy faoliyatidan ma'lumki, u 1873 yildayoq turkiy xalqlarni arab alifbosidan voz kechib, alohida yozuv tizimiga o'tkazishni taklif qilgan va bunda u turkiy xalqlar uchun kirill yozuvini joriy qilish taklifi bilan chiqqan edi. Bu madaniyati, tili, dini, tarixi bir ildizga ega bo'lgan turkiy millatlarni parchalab yuborishning birdan-bir yo'li edi. Bu tadbirni amalga oshirish uchun u qozoq pedagogi Ibroy Oltinsarin faoliyatidan foydalangan va Turkistonda 1884 yildan ochila boshlagan rus-tuzem maktablariga ham tatbiq qilgan edi. Bu tadbir arab yozuvidan voz kechishning birinchi bosqichi edi. Chor Rossiyasi va Turkiston general-gubernatorligi 40 yildan ortiq vaqt davomida bu masalani amalga oshira olmadi, ammo sho'rolar hukumati O'rta Osiyoni 1924 yilda besh respublikaga parchalab tashlaganidan keyin ularni arab alifbosidan lotin va asosiy maqsad – kirill alifbosiga o'tkazish kampaniyasini nihoyatda tezkorlik bilan boshlab yubordi.

S.Grameniskiy rus-tuzem maktablarida o'qitishning asosiy usuli bo'lmish Ilminskiy tarjima metodini inkor qilish bilan u mahalliy bolalarni ruscha o'qish, yozish va erkin gaplashishga o'rgatish uchun darslarni faqat rus tilida ko'rgazmalar asosida olib borish usulini ishlab chiqadi va quyidagi masalalarga ahamiyat berishni ta'kidlaydi: "Rus tiliga o'rgatayotgan vaqtda tushunish, ko'z oldiga keltirish qiyin so'zlar bo'ladi, o'qituvchi bunday so'zlarni o'quvchilar qay darajada to'g'ri tushunganligiga shubhalanadi. Shunday vaziyatdagina ushbu tushunchaning nomini mahalliy tilda faqat bir marta aytish mumkin. Masalan, o'qituvchi "nebo" so'zini o'quvchilar to'g'ri tushunganligiga shubhalansa, "nebo – osmon" deb tarjimasini bir marta aytadi, boshqa vaqtda faqat ruschasini qo'llaydi. Asosiy maqsad shundaki, o'quvchi zaruratsiz ona tilini suiiste'mol qilishga odatlanmasin, boshidan ruscha so'zlarni eshitish va gapirishga o'rgansin"<sup>1</sup>. Bu uning til o'qitish metodikasining o'ta nozik jihatlari ancha mukammal biluvchi pedagog ekanligini ko'rsatadi.

Ammo S.Grameniskiyning bu harakatlari Ilminskiy g'oyasining Turkistondagi amaliyotchilari N.Ostroumov, o'sha vaqtdagi Turkiston o'qituvchilar seminariyasining direktori M.A.Miropiev, seminariya pedagogika soveti ilmiy kotibi I.M.Sofiyskiylarning keskin qarshiligiga uchradi. Masalaning murakkab tomoni shunda ediki, rus-tuzem maktablari uchun o'qituvchilar tayyorlaydigan birdan-bir Turkiston o'qituvchilar seminariyasida Ilminskiyning ruslashtirishga asoslangan metodi ustuvor edi. Grameniskiy metodini joriy qilish seminariyada ham tub o'zgarishlarni talab qilar edi.

S.Grameniskiyning 3 darsligi yaratilgunga qadar 14 yil rus-tuzem maktablarida turli xil darslik va qo'llanmalardan foydalanib kelindi. Samarqand oblast harbiy gubernatori graf Rostovsev o'quv yurtlari bosh inspektori Kerenskiyga quyidagilarni yozgan edi: "Rus-tuzem maktablarini kuzatishim davomida men rus tilini o'qitishda yorqin

<sup>1</sup> Граменицкий С.М. Положение инородческого образования в Сурдаринской области. Ташкент, 1916. С.18.



muvaffaqiyatni ko'rmadim. Buning asosiy sababi rus tili darsliklarining yaroqsizligidir. Ko'plab narsa-buyumlarning nomlari yerlik o'quvchilar uchun begona"<sup>2</sup>. Bu juda to'g'ri hol edi.

1897 yilda Turkiston o'quv yurtlari bosh inspektori Kerenskiy topshirig'iga binoan S.Grameniskiy o'zi tavsiya qilgan metod asosida rus-tuzem maktablari uchun maxsus dastlabki darsliklarni yaratishga kirishdi. 1898 yildan boshlab uning "Pervaya kniga dlya chteniya", "Vtoraya kniga dlya chteniya", "Tretya kniga dlya chteniya" darsliklari bosmadan chiqdi. Grameniskiy darsliklari asosida rus-tuzem maktablarida rus tilini o'qitish uchun quyidagi dastur joriy qilindi:

**Birinchi yil:** ko'rgazma asosida o'quvchilarni o'rab turgan jihozlarni og'zaki o'rganish: sinf jihozlari, uy hayvonlari, insonning asosiy a'zolari, o'ngacha bo'lgan sonlar, kiyim-kechak, uy-ro'zg'or anjomlari; hovli, ko'cha, bozorning qisqacha tasviri; qarindoshlar, hafta kunlari nomlarini ifodalovchi ruscha so'zlar (S.Grameniskiyning "Pervaya kniga dlya chteniya" darsligining birinchi qismi asosida).

Rus alifbosini rus so'zlari asosida o'rganish, harf elementlari, kichik va yozma harflarni, o'rganilgan ruscha so'zlarni yozish.

**Ikkinchi yil:** Bog', poliz, bozor va dala tasviri; o'simliklar, meva va sabzavot; asosiy narsa-buyum hamda o'lehovlar, hunarmandchilikka oid buyumlar, oy va yillar tasviri. O'rganilgan so'zlar asosidagi maqolalarni o'qish va so'zlab berish (S.Grameniskiyning "Pervaya kniga dlya chteniya" darsligining ikkinchi qismi asosida).

Yo'l-yo'lakay yangi, noma'lum so'zlarni tushuntirish orqali o'quvchilarni o'rab turgan muhit, jihozlar nomlari ishtirokida bog'langan hikoyalar o'qitish; maktab, uy, bog' jihozlari, uy hayvonlari hayotiga oid matnlarni savollar asosida hikoya qilish (S.Grameniskiyning "Vtoraya kniga dlya chteniya" darsligining 1-45-§lari asosida). O'rganilgan ruscha so'zlar, iboralar, maqolalarni ko'chirib yozish.

**Uchinchi yil:** Shahar, qishloq, dala sharoiti haqida hikoya qilish; vahshiy hayvonlar va ularning hayotini tasvirlovchi hikoyalarni o'rganish, cho'l, o'rmon, tog' va daryolar tasviri, vatan haqida tushuncha (S.Grameniskiyning "Vtoraya kniga dlya chteniya" darsligi asosida).

Yozma mashqlar berilgan savollarga o'rganilgan matnlar asosida to'liq javoblar shaklida bo'lishi, o'quvchilar javoblar uchun so'zlarni o'z kitoblaridan topishlari kerak. O'quv yilining ikkinchi yarmida bu mashqlarga ko'rish xotirasiga asoslangan diktantlar ham qo'shiladi. Bunday diktantlar ba'zi bir tovushlar o'rganishi, ularning yozilishi kabi qoidalarga asoslanadi (S.Grameniskiy "Tretya kniga dlya chteniya", 1-20-§lar asosida).

**To'rtinchi yil:** Nisbatan kengroq ko'lamli hikoya hamda tavsiflarni o'qish va so'zlab berish; Rosiyaning qisqacha geografiyasi, Turkistonning geografiyasi bilan tanishtirish, Rossiya tarixiga oid asosiy voqealarni singdirish.

Eng muhim imlo qoidalariga bag'ishlangan og'zaki diktant. O'quv yilining ikkinchi yarmida o'qilgan hikoyalar bo'yicha savollar asosida bog'liqlik bayonlar mashqqildirish (S.Grameniskiyning "Tretya kniga dlya chteniya" darsligi asosida).

4 yillik o'qish tugagach, quyidagi dasturni o'z ichiga olgan, maktabni bitiruv imtihoni uyushtirilgan:

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Марказий Давлат Архиви, 47-фонд, 2124-дело. Опис Управления учебными заведениями Туркестанского края, 1896.



1. Ruscha o‘qish va o‘qiganini qayta hikoya qilish.
2. O‘rganilgan she’r, masal yoki nasriy parchani yoddan o‘qish.
3. Ruscha jumllarni aytib turib yozdirish.
4. Atrof-muhit, rus tarixi, geografiyasiga oid savollarga ruscha javob berish.
5. To‘rt amalga oid arifmetik masala va misollarni og‘zaki va yozma yechish, millionga qadar sonlarni aytib turish asosida yozish; uzunlik, og‘irlik, vaqt, pul o‘lchovlarini ruscha bilish.
6. Musulmoncha o‘qish.
7. Rus podshohiga omonlik tilovchi “Boje, sarya xrani” madhiyasini xor bo‘lib o‘qish.

Shuni unutmaslik kerakki, Grameniskiy Ilminskiyning tarjima metodiga (o‘zbekcha so‘zlarni ruscha transkripsiyada berishga) qarshi chiqqani bilan rus mustamlakachilarining, general-gubernatorlikning o‘lka xalqlarini ruslashtirish, umuman, mustamlakachilik siyosatiga zarracha putur yetkazish niyatidan yiroq edi. Uchala darslik bilan tanishar ekanmiz, ularda Rossiyaning Turkiston o‘lkasida abadiy hukmronlik qilish siyosati ustuvor ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu islohotlardan keyin rus-tuzem maktablari va ularda o‘qiydigan o‘quvchilar soni ancha oshdi, buni quyidagi jadvaldan yaqqolroq ko‘rish mumkin<sup>1</sup>.

Yillar	Maktablar soni	O‘quvchilar soni
1884-1887	22	461
1888-1895	22	447
1896-1902	44	1331

Ma’lumki, Vatanga, millatga muhabbat tuyg‘usi eng muqaddas, eng mo‘tabar tuyg‘udir. Shuning uchun ham Vatanni Onaga mengzaydilar. Vatan tuyg‘usi, asosan, o‘quvchilarga darsliklar, Vatan haqidagi go‘zal badiiy asarlar orqali singdirib boriladi. Vatanga, xalqqa, tilga muhabbat ruhini singdirish maktabdan boshlanishini yaxshi bilgan Grameniskiy o‘quvchilarni bunday muqaddas tuyg‘ulardan uzoq saqlash vazifasini o‘z oldiga qo‘ygan. O‘zbek bolalari uchun yaratilgan ushbu muallif darsliklarida Rossiya vatan sifatida talqin qilinadi, uning shaharlari, qishloqlari ta’rif-tavsif etiladi va unga nisbatan muhabbat ruhini singdirishga harakat qilinadi. Uchala darslikni varaqlar ekansiz, ularda Turkiston, Turon, Movarounnahr nomlari bilan atalgan Vatanimiz, uning tabiati, go‘zalligi haqida, o‘quvchilarda vatanparvarlik ruhini shakllantirishga qaratilgan birorta matn berilgan emas. Bu, albatta, tasodifiy hol emas, rus-tuzem maktablarining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan.

S.Grameniskiy rus-tuzem maktablarining mohiyatidan kelib chiqqan holda iloji boricha mahalliy xalq tili, urf-odati, madaniyati va tarixi, buyuk ajdodlari haqida ma’lumot bermaslikka harakat qiladi, ayniqsa, mahalliy tilga nihoyatda bepisandlik bilan qaraydi. Missioner-shovinistlar kabi turkiy tilni adabiy til sifatida shakllanmagan deb biladi: “Etarli shakllanmagan sart tili so‘zlarini ruscha transkripsiyada berish

<sup>1</sup> Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане. Москва, 1960. С.214.



o'quvchilarning ruscha talaffuzini buzishga olib keladi va ruscha savodxonlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi", - deb yozadi Grameniskiy.

O'zbek bolalari uchun tuzilgan uchala darslikda mahalliy xalqhayotini aks ettiruvchi birorta ham asar berilmagan. Berilgan rasmlar, hatto qishloqhayotiga bag'ishlangan rasmlar ham rus hayotidan olingan. S.Grameniskiyning "Tretya kniga dlya chteniya" darsligini ham metodik, ham mavzu jihatidan ancha chuqur o'rgangan olim Yo'ldosh Abdullaev juda to'g'ri ta'kidlaganidek: "Grameniskiyning o'qish kitoblari rus-tuzem maktablari bolalari uchun tuzilgan bo'lishiga qaramay, Turkiston o'lkasi haqida juda oz ma'lumot berilgan, chunonchi, 182 betli "Tretya kniga dlya chteniya"da Turkiston haqida bor-yo'g'i ikkita tekst bor xolos". Yo'ldosh Abdullaevning ushbu fikrlarini S.Grameniskiyning boshqa ikki darsligi haqida ham aytish mumkin.

1898 yil Dukchi eshon voqeasi – butun Turkiston o'lkasini larzaga solgan Andijon qo'zg'oloni – gubernatorlikning o'lkada o'tkazayotgan maktab siyosatiga birmuncha o'zgarishlar kiritishga majbur etdi. Mustabidlar o'lka xalqlari to'la zanjirband qilindi, endi ular hech qachon erk, mustaqillik uchun bosh ko'tara olmaydilar, degan fikrlarini puchga chiqardi. Mustamlakachilar mazlum xalqni jaholatda, nodonlikda asrash ularga oz bo'lsa-da, ma'rifat nuridan bahramand qilishdan ko'ra xavfliroq ekanini tushundilar, johil, nodon olomon nihoyatda xavfli kuch ekanligiga ishonch hosil qildilar. Oz bo'lsa-da, ma'rifat berish, ruslarga nisbatan munosabatni yaxshilash maqsadida cheklangan holda ruscha ta'lim berish, bu bilan ruslashtirish siyosatini kuchaytirish maqsadini o'z oldilariga qo'ydilar. Buning uchun o'lkada mavjud bo'lgan birdan-bir o'zbek tilidagi "Turkiston viloyatining gazetasi"dan foydalanishni maqsadga muvofiq deb bildilar. Ushbu gazetaning o'sha davrdagi boylamlarini varaqlar ekansiz, ruslarni, ularning madaniyatini, Rossiya davlatining harbiy qudratini ulug'lovchi turkum maqolalarga ko'zingiz tushadi. Maqsad bitta – Rossiyani ulug' davlat sifatida xalq ongiga singdirish, o'lka xalqlarini unga mutelikda saqlash edi. Andijon qo'zg'oloni munosabati bilan A.B.Vrevskiy o'rniga kelgan Turkistonning yangi general-gubernatori S.M.Duxovskiy ushbu qo'zg'oloni qoralab, xalqni dahshatga solish maqsadida aytgan quyidagi so'zlariga e'tibor bering: "Aqldan ozgan kishigina ulug' podshohimizning tutgan yo'liga qarshi harakat qilish xayolida bo'lishi mumkin! Uning qudrati shu qadar ulug'ki, uning bir og'iz so'zi bilan ikki haftadan so'ng Turkiston shu qadar qo'shin bilan to'ladiki, har bir volostga bittadan batalon qo'yish mumkin bo'ladi"<sup>1</sup>.

Gazeta sahifalarida sxolastik ta'lim-tarbiya tizimini tanqid qiluvchi, usuli savtiya metodining afzalliklarini targ'ib qiluvchi maqolalar ham bot-bot ko'rina boshladi. Ruslashtirish siyosatini amalga oshirishda asosiy vosita bo'lib kelayotgan rus-tuzem maktablari tarmog'ini kengaytirish, undagi o'qitish usullariga birmuncha isloh kiritishga majbur bo'ldilar, ba'za joylarda ushbu maktablar uchun maxsus o'quv binolari ham qurildi. Rus-tuzem maktablarining musulmon guruhlarida o'quv-tarbiya ishlarini nazorat ostiga olish maqsadida o'zbek tilida alifbo darsligi yaratish masalasi qo'yildi. 1898 yilda general-gubernator Duxovskiy ushbu vazifani Toshkent shahar 1-rus-tuzem maktabining musulmon guruhi o'qituvchisi Saidrasul Saidazizovga topshirdi.

<sup>1</sup> "Туркистон вилоятининг газети", 1898 йил, 28 июн.



Turkiston general-gubernatorligi mahalliy xalq o'rtasida rus-tuzem maktablarining e'tiborini oshirish, ularda ruslarga nisbatan iliq munosabatni vujudga keltirish va ayniqsa, Rossiya davlatining qudratini namoyish qilish maqsadida rus-tuzem maktablari o'quvchilarining Sankt-Peterburg, Moskva va boshqa shaharlariga o'quv-ta'limiy sayohatlarini amalga oshirdi. Mana shunday sayohatlardan birinchisi general-gubernator Duxovskiyning maxsus ko'rsatmasi va rejasiga asosan amalga oshirildi. Gubernator avval Sankt-Peterburgdagi katta mansabdor shaxslar – harbiy va xalq maorifi vazirlari bilan kelishib olib, ularga sayohatning Rossiya manfaatlari uchun qanchalar ahamiyatini tushuntirgan. Ushbu sayohat 1899 yilning yoz oylari amalga oshirilgan va ikki oy davom etgan. Duxovskiy buyrug'iga muvofiq Turkiston o'lkasining hamma viloyatlaridan 18 o'quvchi yig'ilgan, sayohatga Samarqand shahar rus tuzem maktabi o'qituvchisi Lapin rahbarlik qilgan.

“Turkiston viloyatining gazetasi” 1899 yil 3 iyul 25-sonida o'quvchilarning Peterburgga ketgani haqida qisqa xabar va sayohat taassurotlarini to'liq berib borish haqida ma'lumot beradi. Darhaqiqat, gazetaning 1899 yil 37, 38, 39, 40, 44, 45, 46-sonlarida “Turkiston o'lkasi musulmon bolalarining 1899 yilda Moskva va Peterburg sayohati bayoni” (sarlavha rus tilida “Opisanie puteshestviya detey musulman iz Turkestanskogo kraya v Moskvu i Peterburg v 1899 g.”) sarlavhasi ostida ancha katta maqola Muhiddinxo'ja eshon o'g'li imzosi bilan e'lon qilingan. Oldindan kelishilganidek, bolalarni hamma joyda ehtirom bilan kutib oladilar, sayohatning ikkinchi kuni juma namozini Peterburgning Jame' masjidida o'qiydilar. Shaharning diqqatga sazovor joylarida: Petropavlovsk qal'asida, Pushkin o'qigan podshoh litseyida, muzeylarda, zavodlarda va hatto har kim kirishi mumkin bo'lmagan imperator xonadonida, harbiylar mashqi jarayonlarida bo'ladilar, ular bilan shaxsan harbiy vazir Kuropatkin uchrashdi, “nasihat” qildi. Bu haqda gazeta quyidagilarni yozadi: “Sakkizinchi kuni borib, voenniy ministr general-leytenant Kuropatkin janoblarini ko'rmoq bo'lib, mazkur janobni uylarida kutub turganimizda bir general kelib bizlarni bir zol uyga boshlab olib kirdilar va ikki ad'yutantlari ham bor edi va ul holda o'shal baland martabali vaenniy ministr o'zlari marhamat aylab, uylaridan chiqib, bizlarni har qayularimiz bilan so'rashib, ba'd az an o'rtada turub dedilarki: “Jame' mamlakatlardagi kishilarni va ra'iyatlarni baland otalari podshoh bo'ladur va biz Rusiya fuqarolarining ham baland otalari podshohi a'zam imperatorimizdurlar. Shul sababli hammamiz bir-birimizga og'a-inilik darajasidadurmiz va yana ushbu taraflarni sayohat aylaganlaringizg'a ko'p xursand bo'ldum va ushbu taraflarda ko'rganlaringizni o'z viloyatlaringizdagi kishilarg'a kamokon bilan qilursizlar va yana ko'rmagan joylaringizni tamosho aylab ko'runglar”, - deb uch yuz so'm aqcha bizlarga in'om ayladilar”<sup>1</sup>.

Gubernatorlik ma'murlar ushbu boshlang'ich rus-tuzem maktablarini har qancha rag'batlantirmasinlar, xalqhayotiga singib keta olmadi. Ayniqsa, usuli jadid maktablarining faoliyati keng ko'lam kashf etgach, unga ehtiyoj ham yo'qolib bordi. Buning asosiy sababi bu maktablarning “sut bilan kirgan”, ming yillar davomida millatning qon-qoniga singib ketgan ma'naviyatini, tarixini, tilini yo'qqilishga qaratilganligidadir.

<sup>1</sup> Туркестон вилоятининг газети, 1899 й. 46-сон.



### **3. Jadidchilik harakatining o'lkalar xalqlari milliy uyg'onishida tutgan o'rni. Jadidchilik, o'lkalar jadid namoyondalarining madaniy-oqartuvchilik faoliyati. Qadimchilar va milliy taraqqiyparvar-islohotchilik oqimi.**

**JADIDCHILIK** (arabcha «jadid»-yangi)-yangilanish, yangi zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullari, yo'llari tarafdorlarining umumiy nomi. Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asrning birinchi choragida turkiy musulmon o'lkalarida (Qrim, Kavkaz, Volgabo'yi-Bulg'or va Janubiy Ural xavzasi, Turkiston) shakllanib kelayotgan milliy burjuaziya muxitida vujudga kelgan. U o'sha davrdan Turkistondagi milliy-ozodlik xarakatining mafkurasi-Turkiston milliy mustakillik mafkurasi vazifasini bajardi.

Jadidchilikning asosiy g'oya-maqсадlari: Turkistonni o'rta asrchilik, feodal tarqoqlik, diniy xurofotlardan ozod qilish, «Usuli qadim» ni inkor etgan xolda o'lkani, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, konstitutsion, parlament va prezident idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish, turkiy tillarga davlat tili maqomini berish, milliy pul birligi va milliy qo'shin tuzish. Bu g'oya va maqsadlar 1917-1924 yillarda «Turkiston muxtoriyati» (1917 yil noyabr-1918 yil fevral), Buxoro va Xorazm xalq Respublikalari davrida (1920-1924 yillar), qisqa muddatda va qisman bo'lsada amalga oshirilgan edi.

Krim, Kavkaz, Volgabo'yi-Bulg'or va Janubiy Uraldagi jadidchilikka Ismoilbek Gaspirali, Jovid Xusayinzoda, Muso Jorullox Kozoniy, Rizouddin ibn Faxriddinlar raxnamolik qilishgan. Turkistonda bu harakatga Maxmudxuja Bexbudiy va Munavvar Qorilar yetakchilik qilishgan. Buxoroda jadidchilik xarakatiga Abdurauf Fitrat va Usmonxo'jalar, Xiva jadidlariga esa Polvonniyoz xoji Yusupov va Bobooxun Salimovlar yetakchilik qilgan.

Jadidchilikning Turkistondagi taraqqiyotini quyidagi davrlarga ajratish mumkin:

**I. 1885-1895 yillar:** G.Ismoilbeyning «Tarjimon» gazetasi ta'sirida Qo'qonda yangi-jadid usulidagi maktablar ochish xarakatlari boshlanib, ular asta-sekin rus-tuzem maktablari bilan raqobatlasha boshlagan.

**II.1895-1905 yillar:** Krimdagi Gaspira shaxridan G.Ismoilbeyning Buxoro va Samarqandga tashrifi, Buxoro amiri bilan uchrashishi natijasida 1895 yilda jadid maktablarini tashkil etish davri-Buxoroda Jo'raboy, Samarqandda A.Shakuriy, S.Aziziy, A.Munzim, Mulla Qilich, Toshkentda Munavvar Qori, A.Avloniy, Qo'qonda Xamza, Namanganda I.Ibrat, So'fizoda va boshqa siymolarimiz ochgan jadid maktablari o'z faoliyatlarini olib bordilar.

**III.1905-1914 yillar** jadidchilikning maktab-maorifdan kengroq gazetchilik, ya'ni ro'znomalar va jaridalar chop etish, matbaa ishlarini yo'lga qo'yish, ilm-fan, adabiyot, madaniyat-maorifni milliylashtirish bosqichi.

**IV.1914-1917 yillar** jadidchilikning o'ta ijtimoiy-siyosiy yo'nalish kasb etishi, jadidchilik siyosiy partiyalarining tuzilishi va ularning uch xil turli talablar qo'yishi:

1) Rossiyadan to'la ajralib chiqish; 2) Rossiya Federatsiyasi tarkibida «milliy-xududiy muxtoriyat» tuzish; 3) Rossiya unitarizmi tarkibida faqat ma'naviy-diniy muxtoriyat xuquqlari kafolatiga ega bo'lish.



**V. 1917 yil noyabri-1918 yil fevral** oralig'ida Qo'qonda «Turkiston muxtoriyati»ning tuzilishi va uning rus bolsheviklari tomonidan qonga botirilib, tugatilishi.

**VI. 1918-1924 yillar**-sho'ro tizimi tarkibida, maorif-matbaa ishlarida «Chig'atoy gurungi» ni tuzish bilan ajralib turadi.

**VII. Turkiston parchalanib (1924)**, jadidchilikning keyingi taraqqiyoti «milliy respublikalar» doirasida bordi. Jadidchilik asosan madaniyat-maorif, maktab va matbaa ishlarida «Chig'atoy gurungi» g'oyalari zimdan amalga oshirishga, milliy ozodlik xarakterini jonlantirishga urindi.

**VIII. 1931 yildan to 1937-38 yillar orqali 50-yillarning birinchi yarmigacha** qatag'onga uchrash davri.

Turkiston jadidchiligidagi asosiy g'oyaviy-nazariy yo'alish Behbudiy, Munvvar Qori, Fitrat, Cho'lponlar tomonidan ilgari surilgan bo'lib, sho'rolar tuzumi, kompartiya g'oyasi va mafkurasini to'laligicha inkor etib, yagona va bir butun Turkiston xalki va davlatini qurish, zamonaviy taraqqiyot yo'lidan borishni taklif etganlar. A.Avloniy, S.Ayniy, Xamza, Botu, Elbek, A.Ikromov, F.Xo'jaev va boshqa jadidlar milliy va umuminsoniy demokratik kadriyatlarga muqobilan sho'ro (sovet) g'oya va qadriyatlariga urg'u berishgan. Lekin shunday bo'lsada oxirda nomlari keltirilgan jadidlar xam o'zlari xizmat qilgan sho'ro (sovet) davlati tomonidan qatag'on qilindilar ...

Turkiston jadidchiligi va ma'rifatchiligi to'g'risida gap borganda, uni an'anaviy Sharq ma'rifatchiligidan, shuningdek, o'sha davrdagi islom diniy isloxotchiligidan farqlash zarur. An'anaviy Sharq ma'rifatchiligi (Turdi, Axmad Donish, Anbar Otin, Nodira, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy) jadidlar ma'rifatchiligi uchun ma'naviy-ruxiy zamin bo'lgan. Shuningdek musulmon olamida boshlangan islom isloxotchilik urinishlari jadidlar xarakati uchun, islom, shariat nuqtai nazaridan diniy-qonuniy jaxatdan yo'l ochib bergan. Biroq jadidchilik xarakati, undagi ma'rifatchilik mayillari o'zini xayotga, umummilliy ijtimoiy-siyosiy muommolarni xal qilishga yo'naltirilganligi bilan an'anaviy sharq ma'rifatchiligi va diniy isloxotchilik jarayonlaridan tubdan farq qilgan.

Jadidchilikning tor-mor qilinishi turkiy xalqlarning jahon miqyosida tanilishini deyarli bir asirga orqaga surdi, ularni xukmron kommunistik mafkura va sovet tuzumi istibdodiga qaram etilishiga olib keldi. Jadidchilik xarakati bir asr davomida dastlab Chor mustamlakachiligi, keyinchalik kommunistik partiya tazyiqi va iskanjasida bo'lib, to'la ravishda nomoyon bo'la olmadi. Ziyolilar tomonidan uning zaminlarini va shakllanish tarzini o'rganish ta'qiq ostida bo'ldi. Sho'rolar davridagi misli ko'rilmagan mafkuraviy, ma'naviy, siyosiy va iqtisodiy tazyiqqa qaramay o'zbek xalqi milliy o'ziga xosligini saqlab qola bildi. Jadidlar o'rtaga tashlagan g'oyalarni amalga oshirish vaqti-soati kelishini umid bilan kutdi. Bu vaqt mustaqillik bilan barga hayotimizga kirib kela boshlandi. Chunki jadidlarning g'oyalari o'lmas g'oyalar edi.

Maktabsizlik qildi bizni qip yalyang'och, Maktabsizlik bizni etdi talon-taroj, Maktabsizlik Turon elin o'ldirdi och,	Ilmdur dunyoda eng yaxshi xunar, Ilmsizdan yaxshidur gung ila kar. Xar kishi ilm-la bo'lsa oshno, Izzatu davlatda bo'lgay doimo, Ilmsiz odam zalilu xor o'lur,
---	--





<p>Ko'zingni och, bu xo'rlikdan maktabga qoch. Bilim qochdi qo'limizdan besh yuz yildir, Unutmagin Ulug'beklar bizning eldir, Turon eli, o'zbek tili bizning tildir, Turon o'g'li ekaningni tezroq bildir Abdulla Avloniy</p>	<p>Ilmsizlikdan xamma bezor o'lur.  Munavvar Qori.</p>
---	--

### Nazorat savollari

1. Turkiston xonliklarining Rossiya imperiyasi ta'sir doirasiga tushib qolishining ijtimoiy omillari nimalardan iborat?
2. Rossiya imperiyasining "O'rta Osiyoni qo'shib olishi" iborasiga munosabatingiz qanday?
3. Mustamlakachilik davrining Turkiston xalqlari maishiy turmushiga ta'siriga baho bering.
4. Rus olimlarining o'lka xalqlari tarixi va etnografiyasini o'rganishga qo'shgan xissasini qanday baholaysiz?
5. Mustamlaka davrida Turkiston agrar munosabatlarida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
6. O'lka xalqlari orasida madaniy-oqartuv ishlarining tashabbuskorlari faqat jadidlar bo'lgan degan fikrga munosabatingiz qanday?

### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T. "O'zbekiston", 2017.
2. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T. "O'zbekiston", 2016.
3. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. -T. "O'zbekiston", 2017.
4. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -T. "O'zbekiston", 2017.
5. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. –T., "Sharq", 1998.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: "Ma'naviyat", 2008.
7. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: "O'zbekiston". 2011.
8. "Vaqt" gazetasi, 1907-yil, 213-son.
9. "Pismo N.I. Ilminkogo k ober-prokuroru Svyateyshego Sinoda K.P. Pobedonossevu". V kn. Musulmanskie deputati Gosudarstvennoy dumo' Rossii 1906-1917 gg. Ufa, 1998 g. S.120.
10. "Turkiston viloyatining gazetasi", 1890 yil, 32-son.



11. "Turkiston viloyatining gazetisi", 1898 yil, 28 iyun.
12. "Turkiston viloyatining gazetisi". 1888 y., 31 dekabr.
13. Axmedjanov G.A. Rossiyskaya imperiya v Sentralnoy Azii. – T.: Fan, 1995.
14. A'zamova G. So'nggi o'rta asrlar O'rta Osiyo shaharlarida hunarmandchilik va savdo. T.: O'zbekiston. 2000.
15. Babadjanov. B.M. Kokandskoe xanstvo: vlast, politika, religiya. Tokio-Tashkent: 2010.
16. Bartold V.V. Istoriya kulturnoy jizni Turkestana. Leningrad, 1927. S.308.
17. Bartold V.V. Sochineniya v devyati tomax, II tom (chast 2). Moskva, 1963. S.345.
18. Voxidov Sh. Qo'qon xonligi va Buxoro amirligida unvon va mansablar. T.: Fan, 1996.
19. Voxidov Sh. Qo'qon xonligida tarixnavislik. T.Akademnashr, 2010.
20. Grameniskiy S.M. Polojenie inorodcheskogo obrazovaniya v Sirdarinskoy oblasti. Tashkent, 1916. S.18.
21. Dobromislov A.I. Tashkent v proshlom i nastoyashem. Tashkent, 1912. S.203.
22. Ziyov Said. O'zbek vaqtlari matbuoti tarixiga materiallar, Samarqand-Toshkent, 1927, 22-bet.
23. Ziyoev X. Tarix o'tmish va kelajak ko'zgusi: (Tarixning dolzarb masalalari). -T.: Adabiyot va san'at, 2000;
24. Ziyoev X. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. -T.: Sharq. 1998.
25. Znamenskiy P.V. Uchastie N.I.Ilminskogo v dele inogorodcheskogo obrazovaniya v Turkestanskom krae. Kazan, 1900. S.46.
26. Ilhomov Z.A. Amirlashkar tarixi. T. 2013. Shu muallif: Qo'qon xonligi tarixshunosligining ayrim masalalari. T. 2008.
27. Ilhomov Z.A. "Aliquli Amirlashkar va uning Qo'qon xonligi siyosiy hayotida tutgan o'rni". Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.2004
28. Ismoil bey Gasprinskiy (Gasprali). Iz naslediya. Simferopol, "Tavriya", 1991 g. S.42.
29. Istoriya Uzbekistana (XVI- pervaya plovina XIX veka). –T.: "Fan", 2012
30. Is'hoqxon Ibrat. Jome'ul-xutut, Namangan, "Matbaai Is'hoqiya", 1912 yil, 16-bet.
31. Qo'ldoshev Sh. «Qo'qon xonligi va Sharqiy Turkiston o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar (XVIII-XIX asrning o'rtalari)» Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.2009.
32. Madraximov Z. Qo'qon xonligida savdo munosabatlari. T. "Yangi nashr". 2014.
33. Masalieva O. Buxoro, Xiva va Qo'qon xonligi tarixini XX asr Angliya va Amerika tarixshunosligida o'rganilishi. Tarix fan...nomzodi diss... – T., 1998
34. Maxmudov Sh. Qo'qon xonligi siyosiy tarixi. Tarix fan nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T. O'zR FA TI, 2010.



35. Musulmanskie deputati Gosudarstvennoy dumi Rossii 1906-1917 gg. Ufa, 1998 g. S.120-121.
36. Nalivkin V.P. Tuzemsi ranshe i teper. Gazeta "Turkestanskiy kurer", 1913, № 38.
37. Tillaboev S. Turkiston o'lkasining ma'muriy boshqaruv tizimida mahalliy aholi vakillarining ishtiroki. T. "Fan". 2008.
38. Turkestanskije vedomosti, 1899g., 18 fevral.
39. Turkiston viloyatining gazetasi, 1883 yil, 15 fevral, 6-son. 1899 y. 46-son. 1910 y., 21 mart, 22-son. 1890 y., 6, 8, 16, 19, 24-sonlar.
40. O'zbekiston Respublikasi Davlat arxivi, 1009-fond,
41. O'zbekiston Respublikasi Davlat arxivi. Fond № 723, 47-fond,
42. Xamidov X. XVI-XIX asrlarda yurtimiz madaniyati tarixidan lavhalar. T. Fan. 2009.
43. Xudoykulov T.D. XIX asrda Qo'qon xonligining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti: Tarix fan. nomz. ...diss. - Toshkent: Uz MU, 2009. - 172 b.
44. Sh.Karimov, R.Shamsuddinov. Turkiston Rusiyo bosqini davrida. "Meros", Andijon, 1995 yil, 90-91-betlar.
45. Shukurillaev Yu.A. Buxoro amirligida qo'shin va harbiy ish (1753 – 1920 yillar). Tarix fan nomz ilm dar ... diss. T. 2006.
46. Ilhomov Z.A. Qo'qon xonligida harbiy islohotlar Pedagogik ta'lim // 2002 yil, 5-son. B. 50-52.
47. Ilhomov Z.A. Aliquli Amirlashkar // O'zbekiston tarixi. 1999 yil, 3-son. B. 25;
48. Ilhomov Z.A. Aliquli Amirlashkar va uning Qo'qon xonligi siyosiy hayotida tutgan o'rni. Tarix fanlari nomzodi ... diss. –T.: 2004. -160 b;
49. Ilhomov Z.A. Amirlashkar diplomatiyasi. Pedagogik ta'lim // 2001 yil, 4-son. B. 49-51;
50. Qosimov B. Ismoilbek Gasprali. – T., 1992.
51. Rajabov Q., Qandov B., Shoymardonov I. O'zbekiston tarixining muhim sanalari. To'ldirilgan beshinchi nashri. – T., "O'zbekiston", 2012. –B. 130-144.
52. Sodiqov M. Erksevar, hurriyatparvar el vorislarimiz. –T., "Kamalak", 1992.
53. Tarix shohidligi va saboqlari. Chorizm va sovet mustamlakachiligi davrida O'zbekiston milliy boyliglarining o'zlashtirilishi. Mas'ul muharrir D.A.Alimova. - Toshkent, "Sharq". 2001.
54. O'zbekiston tarixi / Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. II-jild (XIX asrning II yarmi – 1989 yil iyun). Mas'ul muharrir R.H. Murtazaeva. –T., "Yangi asr avlodi", 2015. –B. 201-232.
55. O'zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – T., «Sharq», 2000.



## 4-mavzu. JAHON IQTISODIY VA SIYOSIY GLOBALLASHUV JARAYONLARIDA O'ZBEK DAVLATCHILIGINING TASHQI IQTISODIY VA SIYOSIY ALOQALARI MASALALARINING ZAMONAVIY TARIXSHUNOS-LIK TADQIQOTLARI

### Reja:

1. XX asr oxiri - XXI asr dastlabki choragida globallashuv jarayonlari.
2. Tashqi iqtisodiy va siyosiy aloqalar masalalarining zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotlari

**Tayanch tushunchalar:** Globallashuv, xalqaro tashkilotlar, integratsiya jarayonlari, Traeka, Yevropa Itifoqi, Markaziy Osiyo, Iqtisodiy inqirozlar, BMT, pandemiya.

### 1. XX asr oxiri - XXI asr dastlabki choragida globallashuv jarayonlari.

Xalqaro munosabatlarning bugungi bosiqichidagi o'zgarishlar mohiyatan XX asrning so'nggi choragidan buyon shakllanib kelayotgan globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlarining ta'siri tufayli rivojlanayotgan bo'lib, biz yashab turgan ushbu davr ikki qutbli dunyoning bo'linishi hamda ko'pchilik olimlarning e'tirofiga ko'ra, ko'p qutbli dunyoga o'tish bosqichi ekanligi bilan xarakterlanadi. Birinchi Prezident I.Karimov aytib o'tganidek, "XXI asr, shubhasiz, xalqaro munosabatlarda butun dunyo qamrab olinadigan asr bo'ladi. Bunday sharoitda integratsiya jarayonini, xalqaro institutlar va tashkilotlarda suveren davlatlarning ishtirok etishini kengaytirish jarayonini faqat tarix taqozosi emas, balki ayrim mintaqalar ko'lamida ham, shuningdek, umuman sayyoramiz ko'lamida ham sobitqadamlik, barqarorlikning qudratli omili deb hisoblamog zarur".

Globallashuv aslida murakkab tarixiy jarayon bo'lib, undagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, texnik va informatsion omillarni hisobga olsak, bunda endi mamlakatlar hayoti mustaqil, bir qarashda tartibsiz, nazoratsiz ko'rinisa ham, mohiyatan o'zaro chambarchas bo'lib borishini ta'kidlash zarur. Albatta, har bir davr ro'hini aks ettiradigan me'yorlar, shuningdek, navbatdagi o'zgarishlarni belgilaydigan o'ziga xos qonuniyatlar mavjud bo'ladi. Globallashuv jarayonlari ko'pchilik davlatlar qatorida mustaqil davlatchilik yo'lidan ketayotgan O'zbekiston uchun ham qator vazifalar, imkoniyat va muammolar yaratadi. Maqolada globallashuv mahalliy va xorij mutaxassisleri nigohida tahlil qilinib, uning salbiy va ijobiy qirralari ko'rsatib beriladi.

O'zining asarlarida, qator chiqish va ma'ruzalarida muhtaram Prezidentimiz O'zbekistonning o'ziga xos rivojlanish modeli yaratilayotgani, ichki va tashqi siyosatda ham ko'p omillarni hisobga olgan holda islohotlar olib borilayotganini ta'kidlab o'tadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga ko'ra ham, mustaqil O'zbekiston o'z tashqi siyosatida xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillariga sodiqligini namoyon qilib, milliy manfaatlarga javob beradigan rivojlanish va hamkorlik strategiyasini olib boradi. Bu yo'lda davlat xalqning istak va xohishini ifoda etib, turli ittifoq va uyushmalar tuzishi yoki ularga qo'shilishi hamda kezi kelganda ulardan chiqishi ham mumkin ekanligi qayd etiladi. Birinchi Prezident I.Karimov "O'zbekiston



XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlik tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari" asarida hozirgi davrda butun dunyoda va mamlakatimizda bo'layotgan muhim o'zgarishlarni chuqur tahlil qilib, asosiy muammo va chaqiriqlarga to'xtaladi. Xususan, ulardan milliy-etnik nizolar, diniy aqidaparastlik va fundamentalizm, xalqaro terrorizm, noqonuniy qurol-yarog' savdosi, Afg'oniston muammosi, ekologik, suv muammolari, OITS va narkomaniya kabi kasalliklarning keng tarqalib borayotganini ta'kidlab, turli madaniy-mafkuraviy tahdidlar, aniqrog'i inson ongi va qalbini egallashga bo'layotgan urinishlar bugungi globallashuv va axborot asrining siyosiy jihatlarini o'zida namoyon etishini uqtiradi. Shuning uchun ham globallashuv, ya'ni ochiqlik, xalqlar, mamlakatlar hayotida o'zaro bog'liqlikning ortib borishi ham aynan nazorat etilishini talab qiladi.

"Globallashuv" atamasining o'zi dastlab iqtisodiy sohada qo'llanilgani nazarda tutadigan bo'lsak bu eng avvalo, milliy xo'jaliklarning xalqaro darajada birlashishi, o'zaro munosabatlarning chuqurlashuvi, tovar ayirboshlash hamda xalqaro mehnat taqsimotining ratsionallashuvi kabi masalalarda namoyon bo'ladi. Globallashuv, aslini oliganda, faqat o'zaro manfaatdorlik tamoyili asosida, ya'ni bu borada klassik nazariyotchilar Adam Smit va Devid Rikardo aytganidek, iqtisodiyotlarning bir-birini to'ldirish evaziga rivojlansa yaxshi. Shu nuqtai nazardan, birinchi Prezident I.Karimov integratsiya masalalarida bahs yuritilganda, hamkorligimizda eng avvalo iqtisodiy manfaatdorlik, aloqalarni siyosiy lashtirmaslik kerakligini ta'kidlaydi. Bu borada O'zbekiston rostdan ham Markaziy Osiyoda ham yerosti boyliklari, ham turli iqtisodiy imkoniyatlari, shuningdek, qulay jo'g'rofiy joylashuvi, salohiyatli mehnat resurslari, mustahkam infratuzilmasi bilan strategik ahamiyatga ega mamlakat hisoblanadi. Markaziy Osiyo mintaqasining dunyo okeaniga chiqish imkoniyati bir tomondan chegaralangan bo'lsa ham, transportning boshqa alternativ yo'llarini rivojlantirish mumkin. Tarixda mavjud bo'lgan Buyuk ipak yo'lini tiklash, Yevropa-Kavkaz-Markaziy Osiyoni bog'laydigan TRASEKA kabi marshrutlar mintaqaga o'ziga xos iqtisodiy afzallik beradi. Ayniqsa, keyingi paytlarda iqtisodiyoti jadal rivojlangan davlatlarda energiyaga bo'lgan talab, Markaziy Osiyoni muhim energiya zonasi sifatida ahamiyatini oshiradi. Bu masalada, yalpi iqtisodiy munosabatlarning davlat tomonidan boshqarilishi o'zimizga xos tanlangan to'g'ri yo'l ekanligi Prezidentimiz tomonidan qayd etib kelinmoqdaki, bu ayniqsa, keyingi moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida amaliy isbotini ko'rsatmoqda. Markaziy Osiyodagi ko'p masalarning hal etilishida O'zbekistonning ishtiroki ko'p jihatdan ham iqtisodiy ham siyosiy jihatdan mintaqa manfaatiga mos keladi. Negaki, bugungi O'zbekiston geosiyosiy va geoiqtisodiy tomondan mintaqada barqaror iqtisodiy va siyosiy muhit qaror topishida munosib xizmat qilishi mumkin. Markaziy Osiyoning markazida joylashgan Toshkent nafaqat madaniy-ma'rifiy poytaxt, balki iqtisodiy va biznes markazi sifatida o'sib bormoqda. Bu yerda BMT va uning tizimidagi qator tashkilotlar va dasturlarning idoralari, XVF, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa Tiklanish va taraqqiyot banki, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Nemis texnik ko'mak jamiyati, Yevropa Ittifoqi (EI)ning O'zbekistondagi delegatsiyasi idorasi kabi turli tashkilotlar o'z faoliyatini olib bormoqda. Mamlakatda xorij va mahalliy sarmoya iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarida ko'pgina korxonalar va banklar ishlab turibdiki, bu O'zbekistonning global iqtisodiyotning tarkibiy qismi ekanligini ko'rsatadi. Qolaversa, O'zbekistonning milliy



mustaqil bank tizimidagi siyosat, mamlakat tashqi qarzlarning doimiy nazorat qilinishi bilan ajralib turadi. Qisqa qilib aytganda, ham inson resurslari ham xom ashyo uchun qulay joy bo'lishi O'zbekistonga yangi-yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu esa, mamlakatni bosqichma-bosqich jahon xo'jalik tizimiga integratsiyalashuvini, iqtisodiyotni liberallashtirish orqali xorijiy investitsiyani jalb etish, bu yerda xalqaro hamkorlikning mintaqaviy markazini tashkil etish, turli tovar va xizmatlar oqimini kengaytirish, transport, turistik va moliyaviy operatsiyalarni olib borishni, shuningdek, dunyoda mavjud resurslar va imkoniyatlarni qaytadan taqsimlashda ham o'zaro manfaatli shart-sharoitlarni yaratish mumkinligini ifoda etadi.

XX asrning nihoyasida sobiq Ittifoqning parchalanishi, mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy va siyosiy aloqalarning sifat jihatdan yangi bosqichga chiqishi, milliy xo'jalik aloqalarining integratsiyalashuvi bilan globalizatsiya jarayonlarining jadallashuvi yuz berdi. Globalizatsiya natijasida jahon xo'jaligining tarkibiy qismiga aylanib borayotgan mamlakatlarning soni ortib bormokda. Bu milliy darajadagi huquqiy, iqtisodiy xamda texnologik to'siqlar yo'qolishiga, uning o'rniga iqtisodiy xo'jalikning umumiy iqtisodiy qonuniyatlari va xo'jalikning funksional aloqalarini tatbiq etilishiga olib kelmoqda. Mamlakatlar hayotidagi globalizatsiya — iqtisodiy munosabatlardagi tovarlar, xizmatlar, kapital xamda fond bozorlaridagi savdo va siyosatga doir tartiblarning tobora erkinlashuvi orqali namoyon bo'lmoqda. Tashqi savdo aloqalari erkinlashtirilayotgan mamlakatlar soni yil sayin ortib bormokda. Prezident yuqorida eslatib o'tilgan asarida xavfsizlikning hech bir hudud

Globalashuv va axborot asrining hali qonuniyatlari to'liq yuzaga chiqmagani bois, shuningdek, ba'zi voqealarning hatto umume'tirof etilgan andozasi (masalan, xalqaro terrorizm xalqaro huquqiy hujjatlarda aniq ifodasini topgani yo'q) yaratilmagani sababli, ko'pchilik masalalarda mamlakatlarning pozitsiyasi turlicha bo'lmoqda. Bu albatta o'z navbatida yangi davrga xos xususiyatlarni anglatadi. Demak, bu bosqichda jahonning ko'pchilik mamlakatlari tanlagan yo'l – bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq jamiyat o'zining ham ijobiy ham salbiy jihatlarini namoyon qilmoqda. Aynan xavfsizlik nuqtai nazaridan mazkur davrni boshqarilishi qiyin, murakkab sir-asrorlarga to'la ekanligini tan olish kerak. Bu, ba'zi olimlar qarashicha, AQSh kabi tashabbuskor davlatlarga ustunlik berishi mumkin.

Lekin, bu, bizningcha, har doim ham to'g'ri bo'la olmaydi. Xususan, AQShdagi 2001 yil 11 sentyabr voqealari bunga dalolat. Xalqaro terrorizmni qo'llab-quvvatlash ba'zi davlatlar uchun garchi manfaatli ko'rinsa ham, aslida bunga oqilona tashqi siyosat nuqtai nazaridan qaralsa, bu butun insoniyat uchun umumiy xavf xatar tug'dirishi tabiiy hol. Globalashuv va axborot asridagi mafkuraviy jarayonlar haqida ketganda, bu boradi Birinchi Prezident I.Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarini (2008 y.) alohida qayd etish mumkin. Unda yurtboshimiz ma'naviy-mafkuraviy masalarga atroflicha to'xtalib, xalqimiz orasida hali ham mavjud bo'lib kelayotgan illatlarni ko'rsatib beradi. Nima bo'lganda ham, bugungi o'zgarib borayotgan dunyoda o'z o'rnimizni topib borishimiz uchun, ham ichki ham tashqi siyosatda mafkuraviy immunitet masalalarga e'tibor qaratishimiz zarurligi, shuningdek, davr talablariga ogoh va tayyor bo'lib borishimiz lozimligini ta'kidlaydilar.

Globalashuv hodisalarning siyosiy ko'zdan kechirganda, hokimiyat uchun kurashda yangi yangi vositalar orqali harakat qilinish imkoniyati tug'ilishini aytib o'tish



joiz. Albatta, ko'pchilik olimlar globallashuv jarayonlaridan ko'proq yangiliklar va ijobiy o'zgarishlar kutilishini ta'kidlashadi. Xususan, O'zbekiston olimlaridan S.Safoev, F.Tolipov, A.Qosimov, N.Kasymova, R.Alimov, I.Mavlyanov, F.Mo'minov, A.Saidov, S.M.Adilxodjaeva, F.Bafoev kabi olimlar ushbu jarayonlarga turli omillarni, jumladan siyosiy-iqtisodiy, madaniy-mafkuraviy, ijtimoiy, huquqiy jihatlarni hisobga olgan holda yondashdilar. Birinchi navbatda siyosiy jihatdan globallashuv ko'pchilik tomonidan nazorat qilinishi zarur bo'lgan o'zgarishlar sifatida e'tirof etiladi. Masalan, olim S.M.Adilxodjaeva o'zining "Globalizatsiya. Davlat. Taraqqiyot strategiyasi" nomli maqolasida globallashuv jarayonlarida davlat o'zining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, o'zi siyosiy yo'lini yo'qotmaslik uchun muayyan strategik dasturga ega bo'lishini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, globallashuv o'z ichiga milliy ijtimoiy-iqtisodiy shakllanishlarning yagona jahon ijtimoiy-iqtisodiy tizimga birlashishini aytib o'tadi. Globallashuv shubhasiz xalqaro munosabatlar va davlatlar tashqi siyosatining pragmatik ko'rinishga o'tishi, shuningdek, bunday aloqalarning demokratlashuvi uchun yangi imkoniyatlar tug'dirishi mumkin. To'g'ri, shu paytgacha kshpchilik rivojlangan davlatlar taraqqiyot resurslarini o'zlarida to'plab kelmoqda. Lekin, bundan keyin jahon sahnasiga Osiyodagi Xitoy, Singapur, Malayziya kabi hamda endi mustaqil yo'ldan rivojlanishga intilayotgan Hindiston, Braziliya kabi davlatlar yangi kuchlar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mahalliy olimlardan N.Kasymova o'zining qator ishlarida globallashuv jarayonlariga ham iqtisodiy ham siyosiy jihatdan yondashadi. Jumladan, unga ko'ra, mintaqaviy integratsiya va global integratsiyalashuv parallel hodisalar sifatida bir-birini to'ldirishi, qolaversa, ular mohiyatan ayni hodisalar ekanini izohlaydi. Shuningdek, globallashuv jarayonlari agar davlatlar tomonidan oqilona tashqi siyosat negizida hamkorlikka tayanilsa, birinchi navbatda iqtisodiy omillar o'zining ijobiy jihatlarni ko'rsatadi. Ortiqcha ekspansiya va mustamlakachilikning yangi turlari xalqaro mehnat taqsimoti kuchaygan bir vaziyatda ko'pchilikka, ayniqsa ilgari xomashyo vazifasini o'tab kelgan ta'sir doiradagi mamlakatlarga qator afzalliklar yaratadi.

Xorijlik olimlar, globallashuv jarayonlariga tafsif berar ekan ular ham masalaga turlicha yondashdilar. Bir guruh mutaxassislar ko'proq salbiy jihatlariga urg'u qaratsa, ba'zilar esa ijobiy tomonlarni ko'rsatishga harakat qiladilar. Masalan, olim E.Kirichenko o'zining "Aqllilar oqimi" dan ularning global miqyosda "aylanib yurishi" nomli maqolasi globallashuv jarayonlarida "aqllilar oqimi" atamasi, uning qachon kelib chiqqanligi, birinchi marta qaerda qo'llanilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar bilan boshlanadi. Maqolada "aqllilar oqimi" ning sabab va omillari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, ta'lim sohasining globallashuvi, ta'lim standartlarining bir-biriga yaqinlashuvi, Yevropa va Amerika Qo'shma Shtatlarining xorijiy talaba va tadqiqotchilar uchun juda qulay shart-sharoitlar yaratib berganligi haqidagi fikrlar keltirib o'tilgan. Bundan tashqari, "aqllilar oqimi" ning bir qancha salbiy va ijobiy oqibatlari haqida to'xtalib o'tilgan. "Aqllilar oqimi" atamasining eskirganligi hamda uning o'rniga "aqllilarning aylanib yurishi", ya'ni butun dunyo bo'ylab xalqaro mehnat bozorida intellektual salohiyatga ega bo'lgan yuqori toifali mutaxassislarning paydo bo'lganligiga katta urg'u berilgan. "Aqllilarning harakatlanishi" ning turlari, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning "aqllilar harakatlanishi" ni qabul qilishi va



jo'natishida ularning tutgan o'rnini haqida ta'kidlab o'tilgan. Maqolada "aqlilar oqimi"dan zarar ko'rayotgan mamlakatlar to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Maqola Rossiyaning global miqyosda "aqlilar oqimi"dagi o'rnini haqidagi fikrlar bilan tugaydi. Xullas, "aqlilar oqimi" muammosi, ushbu muammo dunyoning deyarli barcha davlatlarida dolzarb ahamiyatga ega ekanligi haqidagi fikrlar bayon etilgan bo'lib, mazkur hodisa ham globallashuvning ham salbiy ham ijobiy tomoni sifatida gavdalanadi.

Xorijlik olimlardan V.Sokolov "Kelgusi dunyo chizgilari:

millatlar, mintaqalar, transmilliy hamjamiyatlar" nomli maqolasida globallashuvni har tomondan tahlil qilishga urinadi. Unga ko'ra, globallashuv va mintaqaviy integratsiyalashuv iqtisodiy natsionalizmga qarshi hodisa sifatida qaraladi. Bu yerda albatta biroz bir yoqlama yondashuv ya'ni aynan iqtisodiyot va boshqa munosabatlarning transmilliy chegaradan chiqishiga urg'u qaratish kuzatiladi. Lekin, Vladimir Maksimenkoning "Proisxodit li globalizatsiya" maqolasida esa aksincha munosabatni ko'ramiz. Unga ko'ra esa, globallashuvda AQSh, Rossiya kabi qudratli davlatlar o'zining o'yinini olib boradi, degan fikrni yuritadi. Bu bir jihatdan ma'lum sababga ega. Aynan, xavfsizlik va jahon siyosatining murakkab tomonlari haqida gap ketganda, globallashuv ma'lum ma'noda ko'p qutbli dunyoning salbiy tomonini ko'rsatadi. Shuning uchun, davlatlar tomonidan iqtisodiy, siyosiy va xavfsizlik masalarida hamkorlik qilish, murosalar yo'lini tutish dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

## **2. Tashqi iqtisodiy va siyosiy aloqalar masalalarining zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotlari**

Jahonning taraqqiy etgan davlatlari bilan iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlik rivojlanayotgan mamlakatlar uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab o'z iqtisodiyotini bozor munosabatlariga asoslangan keng qamrovli infratuzilmani yaratish, ijtimoiy hayotni demokratik tamoyillarga asoslangan dunyoviy davlatni barpo etish maqsadlarini ilgari surib, jahonning yirik mamlakat va turli xalqaro tashkilotlari bilan yaqin aloqalarni yo'lga qo'ygan.

Darhaqiqat, o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyin O'zbekiston Respublikasi jahonning nufuzli xalqaro tashkilotlari bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yib, ularning boy tajriba va imkoniyatlaridan mamlakatdagi iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida unumli foydalanib kelmoqda. Aynan bunday hamkorlik aloqalari O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o'rtasida yuzaga kelgan munosabatlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy sohalaridagi hamkorlikda ushbu tashkilotga a'zo bo'lgan barcha mamlakatlar ishtirok etib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini jadal ravishda tubdan modernizatsiya qilish, uning ko'p tarmoqli infratuzilmasini yuzaga keltirish va sarmoyalar ajratish jarayonida, shubhasiz, Yevropa Ittifoqining ilg'or, rivojlangan mamlakatlarining o'rnini ham mavjud<sup>43</sup>.

<sup>43</sup> Арин О. Интеграционный блок или экономический центр? // Новая и новейшая история. Москва, 1998. – №10. – С. 45-49.





O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida Yevropa Ittifoqi mamlakatlari yetakchi o‘rin egallar ekan, o‘z navbatida respublika ushbu tashkilotga a‘zo davlatlar bilan ko‘p tomonlama o‘zaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yilishiga katta e‘tibor qaratmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Yevropa Ittifoqining iqtisodiy rivojlangan, Chexiya, Bolgariya, Vengriya, Polsha, Latviya va Litva kabi mamlakatlar bilan iqtisodiy va ijtimoiy – gumanitar sohalarda hamkorlikni rivojlantirib kelmoqda<sup>44</sup>.

O‘tgan qisqa davrda Yevropa Ittifoqining Polsha, Ruminiya, Bolgariya, Latviya, Litva va boshqa mamlakatlarida faoliyat yuritayotgan O‘zbekiston elchixonalari ikki va ko‘p tomonlama aloqalarning olib borilishida muhim o‘rin egallamoqda<sup>45</sup>. Demak, O‘zbekiston Yevropa Ittifoqi doirasida hamkorlik bilangina chegaralanib qolmasdan, uning tarkibida bo‘lgan davlatlar bilan ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri ikki va ko‘p tomonlama hamkorlik aloqalarini bog‘lagan. Hozirda esa Yevropaning 16 ta mamlakati bilan ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan hukumatlararo qo‘mita faoliyat olib bormoqda<sup>46</sup>.

Ana shunday ikki tomonlama hamkorlik aloqalari Sharqiy Yevropa davlatlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib<sup>47</sup>, hozirda Yevropa Ittifoqining «Sheriklik va Hamkorlik» bitimi negizida ham rivojlanib kelmoqda. Jumladan, qisqa davrda O‘zbekiston Respublikasi bilan keng qamrovli hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘ygan Sharqiy Yevropa mamlakatlari sarasiga Bolgariya, Latviya, Litva, Polsha, Vengriya, Slovakiya, Sloveniya kabilarni kiritish mumkin. Shu o‘rinda, alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, ushbu davlatlar bilan aloqalar ancha avvaldan rivojlanib kelgan, ayniqsa oxirgi chorak asr davomida bu aloqalar yangi bosqichga ko‘tarilganligini ko‘rish mumkin.

Sharqiy Yevropa davlatlarida iqtisodiyotning turli sohalari rivojlangan bo‘lib, ayniqsa farmasetika, qishloq ho‘jaligi va baliqchilik borasida yuqori natijalarga erishib kelmoqda. Rivojlanib kelayotgan O‘zbekiston uchun ularning tajribalarini o‘rganish har jihatdan foydalidir. Shu bilan birga ushbu davlatlarda neft va neft maxsulorlariga, paxta tolasi va mineral o‘g‘itlarga katta ehtij mavjud bo‘lib, ushbu yo‘nalishda O‘zbekiston bilan hamkorlik qilish ularga ham birday manfaatlidir.

O‘zbekiston Respublikasi Yevropa Ittifoqiga 2004<sup>48</sup> va 2007<sup>49</sup> yillarda a‘zo bo‘lib qo‘shilgan Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan turli sohalarda jumladan, iqtisodiyot, fan va ta’lim, turizm va madaniyatni turli yo‘nalishlarida hamkorlikni kuchaytirib kelmoqda. Ushbu davlatlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ikki tomonlama hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib<sup>50</sup>, hozirda Yevropa Ittifoqining «Sheriklik va Hamkorlik» bitimi negizida rivojlanib kelmokda. Jumladan, qisqa davrda O‘zbekiston Respublikasi bilan

<sup>44</sup> Xidirov X. O‘zbekiston tashqi siyosati: siyosiy modernizatsiya va integratsiya // Falsafa va Xuquq. – 2007. – № 1. – B. 21–22; Касымова Н. А., Жо‘раев С. А. Актуальные вопросы современных международных отношений. – Tashkent: Akademiya, 2008. – S. 233; MID RUz // Sotrudnichestvo Respubliki Uzbekistan so stranami Yevropy. <http://www.mfa.uz>.

<sup>45</sup> MID RUz // Sotrudnichestvo Respubliki Uzbekistan so stranami Yevropy. <http://www.mfa.uz>

<sup>46</sup> MID RUz // Sotrudnichestvo Respubliki Uzbekistan so stranami Yevropy. <http://www.mfa.uz>.

<sup>47</sup> MID RUz // Sotrudnichestvo Respubliki Uzbekistan so stranami Yevropy. Uzbeksko-bolgarskie otnosheniya. Sotrudnichestvo v politicheskoy sfere. <http://www.mfa.uz>.

<sup>48</sup> 2004 yilda Yevropa Ittifoqiga qo‘shilgan davlatlar: Vengriya, Kipr, Latviya, Litva, Malta, Polsha, Slovakiya, Sloveniya, Chexiya, Estoniya – muallif.

<sup>49</sup> 2007 yilda Yevropa Ittifoqiga qo‘shilgan davlatlar: Bolgariya, Ruminiya.

<sup>50</sup> MID RUz // Sotrudnichestvo Respubliki Uzbekistan so stranami Yevropy. Uzbeksko-bolgarskie otnosheniya. Sotrudnichestvo v politicheskoy sfere. <http://www.mfa.uz>.



keng qamrovli hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan Sharqiy Yevropa mamlakatlaridan Vengriyani Respublikasini ko'rsatish mumkin.

2020 yil holatiga Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalari rivojlanib yangi sifat bosqichiga ko'tarilayotganligini mamlakatimizga amalga oshirilayotgan rasmiy tashriflar ko'lamida ham ko'rish mumkin. Jumladan, 2020 yil 18 fevralida O'zbekiston Respublikasiga Sharqiy Yevropa davlatlari ichida iqtisodiy sohada ancha muvafaqiyatli rivojlanib kelayotgan Vengriya Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar va tashqi ishlar vaziri Peter Siyyarto boshchiligidagi delegatsiya tashrifida ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Vengriya Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar va tashqi ishlar vaziri Peter Siyyartoning qabul qilib, ...O'zbekiston va Vengriya o'rtasidagi an'anaviy do'stlik va ko'p qirrali sheriklik munosabatlari keyingi yillarda izchil rivojlanayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdi...<sup>51</sup>.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy strategiyasi va omillari, xalqaro maydonga chiqishi, xalqaro munosabatlarning zamonaviy shaklini yaratishdagi o'rni hamda jahon hamjamiyati mamlakatlari va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama olib borgan hamkorlik aloqalari masalalarini qamrab olgan. Ular orasida, eng avvalo, A. Akilov, A. Rasulev va A. Bedrinsev, A. Kasimov, L. Petrova, I. Vaskin, N.A. Kasimova, S.A. Jo'raevlarning[4]<sup>52</sup> monografiyalarini ta'kidlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Mustaqillikning dastlabki yillarida yaratilgan ushbu mualliflarning ishlarida respublikaning jahon hamjamiyatiga kirib borishi milliy mustaqillik mafkurasi nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

Xalqaro hamkorlik munosabatlari borasida E.Z. Nuriddinovning tadqiqotlari alohida o'rin egallaydi<sup>53</sup>. Xususan, muallifning «O'zbekiston Respublikasining Yevropa mamlakatlari bilan xalqaro hamkorligi» nomli monografiyasida ko'plab hujjatli materiallar asosida respublikaning Yevropa mamlakatlari bilan ko'p tomonlama hamkorligi keng ko'lamda yoritib berilgan.

O'zbekistonning xalqaro maydondagi erishgan muvaffaqiyatlari hamda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalaridagi rivojlanishi haqida B. Roberson, N. Lyubin, D. Diker o'z asarlarida fikr-mulohaza yuritganlar<sup>54</sup>. Shu bilan birga ushbu mualliflar O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy va geostrategik ahamiyatiga alohida urg'u berib o'tganlar.

<sup>51</sup> O'zbekiston Prezidenti Vengriya delegatsiyasini qabul qildi // Xalq so'zi. 2020. 19 fevral

<sup>52</sup> Akilov A., Rasulev A., Bedrinsev A. Uzbekistan: vneshneekonomicheskaya deyatelnost i integratsiya v mirovoe xozyaystvo. – Tashkent: Uzbekistan, 1996. – 80 s.

<sup>53</sup> Nuriddinov E. Z. Stanovlenie novogo tipa ekonomicheskix otnosheniy Uzbekistana s vedushimi gosudarstvami Zapadnoy Yevropy // Obshchestvennye nauki v Uzbekistane. – Toshkent, 1998. – № 1. – S. 22-27; O'sha muallif: O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati: asoslari va ustuvor yo'nalishlari // O'zbekiston tarixi. – Toshkent, 2000. – № 4. – B. 27-37; O'sha muallif: Mejdunarodnoe sotrudnichestvo Respubliki Uzbekistan so stranami Yevropy. – Toshkent: Chulpan, 2002. – 216 s.; O'sha muallif: Stanovlenie i prioritetnoe napravlenie vneshney politiki Respubliki Uzbekistan // O'zbekiston tarixi. – Toshkent, 2002. – № 4. – C. 3-11.

<sup>54</sup> Lubin N. Central Asia: Issues and challenges for United States policy. The new geopolitics of Central Asia and its borderlands. Ed. By Ali Banuazizi and Myran Weiner. J. 8. Touris and Co. Ltd. – I. W. Y., 1994; Dyker D. A. Investment direction in prospects of Uzbekistan // Central Asia Newsiife. Chapter 4, 8. August-September. 1996; Roberson B. A. The Middle East and Europe. The Power deficur. Routledge. – London, 1998.



Ikki tomonlama aloqalarning jadallik bilan o‘zib borayotganligini o‘zaro tovar ayriboshlash 2018 yilga nisbatan 2019 yilda 45 foizga ortganligida ham ko‘rish mumkin<sup>55</sup>. Bunda albatta 2018 yil 14 dekabrda Toshkentda o‘tkazilgan “O‘zbek-Venger biznes forumini” hissi katta. Forum davmida Vengriya tomonidan 18 ta kompaiya vakillari ishtirok etib, umumiy qiymati 46, 5 million AQSh dollarlilik shartnoma imzolangan edi<sup>56</sup>. Bunda baliqchilik, mevalarni qayta ishlash hamda qishloq ho‘jaligini turli sohalarida klastrlarni yaratish maqsad qilingan. Agar qisqa davr tarixiga e‘tibor bersak, ushbu kelishuvlar o‘zining ijobiy natijalarini berganligini tashqi ishlar vaziri Peter Siyyarto ham e‘tirof etdi.

Hamkorlik aloqalarini tarixiy tadrijini o‘rganish orqali quyidagi sohalarida: qishloq ho‘jaligi, oziq-ovqat sanoati, farmasevtika va boshqa tarmoqlarda qo‘shma loyihalarni samarali amalga oshrilganligi ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga sharqiy Yevropa davlatlari bilan ta‘lim, madaniyat va turizm sohalaridagi alamashinuvlar kengayyotganligi quvonarli holatdir. Ayniqsa ta‘lim sohasida Chexiya, Latviya va Polsha Respublikalari bilan talabalar almashinuvi sohasidagi aloqalar so‘ngi yillarda bir necha marotabaga ko‘paydi. Turizm yo‘nalishida ham salmoqli natijalarga erishilib kelinmoqda.

Vengriya Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar va tashqi ishlar vaziri Peter Siyyarto tashrifi doirasidagi muzokarlarda istiqbolda quyidagi: AKT, telekomunikatsiyalar, bank – moliya, qurilish, qishloq va suv ho‘jaligi, oziq – ovqat sanoati kabi sohalarida hamkorlikni yanada rivojlantirib yangi sifat bosqichiga ko‘tarish masalalari kelishib olindi<sup>57</sup>.

Sharqiy Yevropaning tibbiyot turizm yuksak taraqqiy etgan davlati hisoblangan Bolgariya respublikasi bilan ham hamkorlik aloqalari so‘ngi yillarda ancha yuqoriga ko‘tarilganligini ko‘rish mumkin. O‘zbekiston va Bolgariya Respublikalari o‘rtasidagi iqtisodiy sohadagi hamkorlik aloqalariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ikki mamlakatning savdo aylanmasi yildan yilga o‘zib borganligini ko‘rish mumkin. Masalan, 2004 yilda ikki mamlakat o‘rtasidagi savdo aylanmasi 132 mln. AQSh dollarini tashkil etgan. Ammo, Bolgariya Yevropa Ittifoqiga a‘zo bo‘lganidan so‘ng, tomonlar o‘rtasidagi savdo aylanmasining bir muncha susayganligini ko‘rish mumkin. Bu ko‘rsatkich 2005 yilda 77 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Bunda O‘zbekistonning eksport ulushi 22 mln. AQSh dollarini, import ulushi esa 55 mln. AQSh dollarini tashkil etgan<sup>58</sup>. O‘tgan davr davr mobaynidagai rivojlanish dinamikasini ko‘rish uchun raqamlarga murojat etamiz. 2015 yilda ikki tomonlama savdo aylanmasi miqdori 42 mln. AQSh dollarini tashkil etgan. Bu shuni ko‘rsatadiki oxirgi o‘n yillik aloqalarda sustlik, orqaga ketish holatini ko‘rish mumkin. Vaholanki iqtisodchi va siyosatchi ekspertlar fikricha ikki tomonlama aloqalarni bir necha o‘n marta yuqori darajago olib chiqishga salohiyat ikki tomonda ham yetarlidir. Hozirda O‘zbekiston va Bolgariya mamlakatlarning iqtisodiy salohiyati o‘zaro savdo-iqtisodiy hamkorlik ko‘lamidan ancha yuqori. Tomonlarning tovarlar va xizmatlar ro‘yxatiga nazar tashlaganda, biznes borasidagi aloqalar nisbatan sust ekanligi kuzatiladi.

<sup>55</sup> O‘sha joyda.

<sup>56</sup> m.uz.spuniknews.ru. Press – slujba goskominvestitsiy Uzbekistana

<sup>57</sup> Peter Siyyarto: o‘zaro hamkorlik yanada mustahkamlanishidan manfaatdormiz // Xalq so‘zi. 2020. 19 fevral

<sup>58</sup> MID RUz // Politika Uzbekistana po razvitiyu mejdunarodnogo torgovo-ekonomicheskogo sotrudnichestva. <http://www.mfa.uz>



Masalan, qishloq ho'jaligi sohasida O'zbekiston va Bolgariya katta tajribaga ega. Poliz mahsulotlari yetishtirish va chorva seleksiyasi o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarining o'rnatilishini talab etadi. Bu orqali oziq-ovqat ishlab chiqarish, mevasabzavot va go'sht-sut mahsulotlarini qayta ishlash sohasida faoliyat yuritadigan qo'shma korxonalar tuzishga ham yanada kengroq yo'l ochilishiga imkoniyat yaratiladi. Shuningdek, to'qimachilik va farmasevtika sanoati, ko'ncilik, poyabzal ishlab chiqarish – bugungi kunning dolzarb sohalaridan hisoblanadi. Bular sirasiga qurilish materiallari ishlab chiqarish va energetikani ham qo'shish mumkin<sup>59</sup>.

Bugungi kunda O'zbekiston Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligida Bolgariyaning besh firmasi – «Veno Xolding» (xolding va moliya), «Zet end Em Prayvit» (konchilik va qishloq ho'jaligi texnikasi), «Energiya – 97» (qo'rg'oshin – kislotali akkumulyator va batareyalar), «Aktavis» (farmasevtika), «Koket» (trikotaj buyumlar) akkreditsiya qilingan<sup>60</sup>.

Sharqiy Yevropa mamlakatlari ichida O'zbekiston Respublikasi bilan uzoq tarixiy aloqalarga ega davlat – Bu Latviyadir. Aynan ana shu tarixiy rishtalar ikki davlatni turli yo'nalishlarda jumladan, baliqchilik, farmasevtika, ta'lim, tranzit yuk tashish sohalarida keng qamrovli, o'zaro manfaatli aloqlarni yo'lga qo'yishda muhim rol o'ynaganligini e'tirof etish o'rindir.

O'zbekiston Respublikasi bilan Latviya Respublikasi o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi hukumatlararo bitimga muvofiq, mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro savdoda eng ko'p qulaylik yaratish tartibi joriy etilgan. O'zbekistonning Latviya bilan tashqi savdo aylanmasi 2006 yil 88,2 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, 2007 yil 123,3 mln. AQSh dollariga teng bo'ldi<sup>61</sup>. Unda mamlakatning eksport ulushi – 102 mln. dollarni tashkil etdi. 2008 yilning birinchi yarmida ushbu ko'rsatkich 279,2 foizga o'sib, 142,6 mln. dollarga yetdi<sup>62</sup>. Ikki tomonlama savdo aylanmasi 2018 yil holatiga 100 mln. dollarni tashkil etgan<sup>63</sup>. Demak Latviya bilan ham huddi Bolgariya kabi oxirgi o'n yillikda iqtisodiy pasayish bo'lganligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston eksporti tarkibida yoqilg'i, neft va minerallar hamda ularni qayta ishlovchi moddalar, paxta tolasi, o'g'itlar va xizmatlar asosiy o'rinni egallamoqda. 2019 yilda Latviya bozorlariga sarxil mevalar, sabzovotlar, quruq mevalar va to'qimachilik mahsulotlari ham yetkazib berilgan. Import asosini esa mexanik va elektr asbob-uskunolari, qora metallardan tayyorlangan buyumlar, xizmatlar, yog'och-taxta, farmasevtika va baliq mahsulotlari, organik birikmalar tashkil etadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekistonda Latviya sarmoyadorlari ishtirokida 21 ta korxonalar faoliyat yuritmoqda. Uning 2 tasi to'laligicha Latviya kapitali asosida tashkil etilgan. Mazkur korxonalarning asosiy faoliyati elektronika, dasturlash jihozlari va

<sup>59</sup> MID RUz // Sotrudnichestvo Respubliki Uzbekistan so stranami Yevropy. Uzbeksko-Bolgarskie otnosheniya. Sotrudnichestvo v trgovno-ekonomicheskoy sfere. <http://www.mfa.uz>.

<sup>60</sup> MID RUz // Sotrudnichestvo Respubliki Uzbekistan so stranami Yevropy. Uzbeksko-Bolgarskie otnosheniya. Sotrudnichestvo v trgovno-ekonomicheskoy sfere. <http://www.mfa.uz>.

<sup>61</sup> O'zbekiston Respublikasi TIAISV JA. O'zbekiston Yevropa Ittifoqi savdo-iqtisodiy aloqalari to'g'risidagi ma'lumot. 1-variant.

<sup>62</sup> MID RUz // Politika Uzbekistana po razvitiyu mejdunarodnogo trgovno-ekonomicheskogo sotrudnichestva. <http://www.mfa.uz>

<sup>63</sup> m.uz.spuniknews.ru. Latviyskie kompanii osvayayut novqe rьnki, Uzbekistan stal krupnym partnerom s vzaimnym trgovym oborotom v 100 millionov yevro.



radioaloqa vositalari, umumiy mashinasozlikda qo'llaniladigan buyumlar, tikuv dastgohlari mebellar va ipak mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan. Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi Latviyaning 8 ta firmasi vakolatxonasi akkreditatsiyadan o'tgan. O'zbekistonda Latviyaning nufuzli banklaridan biri «Pareks Bank» vakolatxonasi ham ishlab turibdi.

Latviya O'zbekistonning ishonchli iqtisodiy sheriklaridandir. Mamlakatlar ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish barobarida tranzit yuk tashish borasida ham ishonchli hamkorlardir. O'zbekiston o'z mahsulotlarini G'arb davlatlariga Latviya bandargohlari orqali eksport qiladi. Yevropa Ittifoqi a'zosi sifatida Latviya xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi o'rnini kengaytirish, Yevropa bozoridan to'liq foydalanish imkoniga ega. Ayni paytda, Buyuk ipak yo'li markazida joylashgan O'zbekiston Latviya uchun butun O'rta Osiyo mintaqasi bilan hamkorlikni rivojlantirishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ikki tomonlama aloqalarda Yevropaning nisbatan kichik ammo erishayotgan natijalari ancha yuqori bo'lgan Slovakiya va Sloveniya davlatlari bilan aloqalar ham ancha keng tarmoqlidir.

O'zbekiston Respublikasi bilan Slovakiya Respublikasi o'rtasida iqtisodiy aloqalar yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, hozirda bir nechta firma va kompaniyalar faoliyat yuritib, respublika bozorlarida munosib o'rin egallamoqda. Ularning orasida avtomobil shinalarini yetkazib beruvchi «MATADOR», to'qimachilik, yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi «XIRANA», meditsina mahsulotlari, dori-darmon ishlab chiqarish va uni sotish bilan shug'ullanayotgan «SLOVAKA – FARMA», nasoslar ishlab chiqarish bilan shug'ullanayotgan «SIMA» korxonalari raqobatbardosh sifatli mahsulotlari bilan respublikada o'ziga xos o'rin egallab, hamkorlik aloqalarini rivojlantirib kelmoqda<sup>64</sup>.

O'zbekiston – Sloveniya hamkorligi iqtisodiy yo'nalishda rivojlanib, bunda ikki tomon hamkorlikda faoliyat olib borayotgan, asosan, maktab mebellari ishlab chiqarish bilan mashg'ul «Fayz–Yavor» hamda Sloveniya investitsiyasi asosida faoliyat olib borayotgan, savdo operatsiyalarini bajaradigan, shu bilan birga, oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berish xizmatlari bilan shug'ullanib kelayotgan «Intertek» korxonasidir<sup>65</sup>. Sloveniyaning «Lek» kompaniyasi O'zbekistonda farmasevtika mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida hamkorlik qilish istagini bildirgan.

Sharqiy Yevropa mamlakatlari Yevropa Ittifoqining to'la huquqli a'zosi bo'lib, mazkur tashkilotning tashqi siyosiy faoliyatida to'liq ishtirok etayotganligini ko'rish mumkin. Shundan kelib chiqib, bu davlatlar yangi mustaqil davlatlar bilan ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini rivojlantirib, Yevropa Ittifoqining «Sheriklik va Hamkorlik» bitimi doirasidagi faoliyatlarini yanada kengaytirmoqdalar. Sharqiy Yevropa mamlakatlari o'zlari orttirgan tajribasi bilan yosh mustaqil davlatlarning bir qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishda yordam bermoqda.

Shundan kelib chiqib, aytilish mumkinki O'zbekiston Respublikasini Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan ikki va ko'p tomonlama aloqalari o'zining ijobiy natijalarini

<sup>64</sup> ЦГА РУз. Пресс – релиз // Ф-м-2, д – 169, л - 27.

<sup>65</sup> МИД РУз // Сотрудничество Республики Узбекистан со странами Европы. Узбекско-словенские отношения. Сотрудничество в торгово-экономической сфере. [http:// www.mfa.uz](http://www.mfa.uz).



berib kelmoqda, bunday o'zaro hamkorlik aloqlarini ko'lamini yanada kengaytirish galdagi muhim vazifalardan sanalib, istiqbolda ikki mintaqa xalqlari taraqqiyotiga xizmat qilishi shubhasizdir.

### **Nazorat savollari**

1. Globalizatsiya jarayonlarining ijobiy va salbiy jihatlarini taxlil eting.
2. Globalizatsiya sharoitida O'zbekistonning tashqi siyosati va unga oid tadqiqotlar taxlilini amalga oshiring.
3. O'zbekistonning qaysi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqlarini olib bormoqda?
4. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida O'zbekistonning o'rni qanday?

## **5-mavzu. ZAMONAVIY TARIXSHUNOSLIK TADQIQOTLARIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JAHON IQTISODIY VA SIYOSIY ALOQALARI JARAYONLARI-NING GLOBALLASHUV VAZIYATIDAGI TASHQI SIYOSA-TI PRINSIPLARI MASALALARINING O'RGANILISH**

### **Reja:**

1. O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy prinsplari va yo'nalishlari.
2. O'zaro manfaatli, amaliy tashqi siyosat-Xarakterlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida.

**Tayanch tushunchalar:** tashqi siyosat, xarakterlar strategiyasi, konstitutsiya, tashqi siyosat konsepsiyasi, O'zbek-xitoy hamkorligi, temir yo'l, buyuk ipak yo'li, bir kamar-bir yo'l.

